формировать своё отношение к прочитанному и свой взгляд на мир. Главное отличие семейных чтений состоит в том, что родители, используя книгу, начинают по-настоящему заниматься духовным развитием своего ребёнка, формированием его нравственности, создают условия для познавательной деятельности ребёнка, стимулируют её. Направлять его размышления о жизни и о самом себе – вот главная задача родителей, которой определяется и их ведущая роль в организации семейных чтений. Жизнь показывает, что если ученик научился читать в период обучения грамотности, то он в коллективе класса занимает заметное место, верит в свои силы, и, наоборот, если ребёнок не овладел чтением, он чувствует какую-то ущербность, теряет веру в свои силы, в способность учиться и в коллективе класса находится в тени. Привитый матерью интерес к книге и чтению – это одновременно и предпосылка успешной учебы в школе. Учебные успехи во многом зависят от того, насколько развита у ребёнка мотивация к чтению, а значит, к поиску, к творчеству, познанию. Это я могу утверждать и по своему собственному опыту, как учитель и мать. И на своём примере стараюсь быть образцом для своих детей, читая вместе с ними и постигая новое, несмотря на их возраст: самой младшей дочери уже 12 лет. Эта привычка семейного чтения, можно сказать, стала ритуалом проведения каждодневного досуга.

Я считаю, что каждый родитель должен дать своим детям возможность всеми путями развиваться в качестве читателей и помочь сформировать любовь к книгам, ведь это первая ступень к грамотности и обучению на протяжении всей жизни, способная сделать ребёнка счастливым.

Список литературы:

1. <https://ru.citaty.net/avtory/alisher-navoi/>
2. И.И. Тихомирова. «Что могут родители?» Журнал «Школьная библиотека». 2005г. Ноябрь – декабрь.
3. Н.П. Яшина «Учить читать трудно, но интересно». Журнал «Начальная школа». 2001г., № 6



UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA HUQUQ FANINI O'QITISHDA NO'ANANAVIY DARSLARNI TASHKIL ETISH

Baymatova Dilnoza Baxromjonovna
Angren shahar 24-umumiy o'rta ta'lim maktabi
I-toifasi huquq va tarbiya fani o'qituvchisi
Tel: +99894 944 84 27

Annotatsiya: Ushbu maqolada huquq fanini o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalarning ahamiyati, o'qituvchining pedagogik mahorati va o'quv mashg'ulotlarini samaradorligiga erishish pedagogik texnologiyalarga qanchalik bog'liqligi keltirilgan.

Kalit so'zlar: Pedagogik texnologiya, ilg'or, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, ijodkor o'qituvchi.

Mustaqil davlatimizni rivojlantirish istiqbollari har tomonlama bilimli, yoshlar qo'lida bo'lib, bu ulardan yuksak huquqiy ong va huquqiy madaniyatga ega bo'lish huquqni puxta bilishni talab qiladi. Huquqiy bilim berish orqali huquqiy madaniyatning yuksalishiga erishiladi va huquqiy ong shakllantiriladi.

O'quvchi-yoshlarga huquqiy bilim berish, ularda milliy huquq tizimi to'g'risida tasavvur uyg'otish, huquqiy madaniyatni yuksaltirish, qonun ustuvorligini anglash, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini yuzaga keltirishda ta'lim muassasalarining hamda biz pedagoglarning o'rni alohida mazmun kasb etadi. "2017-2021-yillar harakatlanish strategiyasi" da Yurtboshimiz Sh. Mirziyoyev ta'lim tizimini, ayniqsa huquqiy tizimni rivojlantirish orqali aholi hiqiqiy ong va madaniyatini yuksaltirishga erishish zarurligi, buning uchun ta'lim tizimida islohatlarni yanada chuqurlashtirish haqida alohida to'xtalib o'tdi.

Umumta'lim maktablarida huquqiy ta'limni samaradorligini oshirish orqali o'quvchilarni mustaqil faoliyat yuritishga tayyorlanish, hayotiy maqsadni belgilay olish, ma'naviy-axloqiy xulq-atvorini takomillashtirish, kasbiy faoliyat yo'nalishini belgilab olishga nisbatan jiddiy munosabatda bo'lishga erishish mumkin.

O'quvchilar ongiga ijtimoiy munosabatlarning huquqiy me'yorlarni singdirish, ularni nobaqbul hatti-harakatlar sodir etishdan himoya qiluvchi mezonlar ekanligi haqida tasavvur hosil qilish, o'quvchilarda quyidagi holatlarning rivojlanishiga zamin yaratadi:

1. Yoshlarda huquqiy me'yorlar, qonunlarning nafaqat davlat, balki shaxs manfaatlarini birdek himoya qilishiga nisbatan ishonchning shakllanishiga erishish;

2. O'quvchilarni huquqqa oid bilimlarni o'zlashtirishga bo'lgan ichki extiyoj va qiziqishining yuzaga kelishini ta'minlash;

3. O'quvchilarda ijtimoiy-huquqiy me'yorlar, qonunlarga nisbatan hurmat va itoatkorlikni qaror toptirish;

4. O'quvchilarda har qanday ko'rinishdagi huquqbuzarlikka qarshi kurashish tuyg'usini tarbiyalash;

5. O'quvchilarda ijtimoiy -huquqiy madaniyat va faollikni qaror toptirish; Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanilmoqda. Ta'lim metodlarini tanlashda har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqish maqsadga muvofiq sanaladi. Buning uchun dars jarayonini oqilona tashkil qilinishi, ta'lim beruvchi tomonidan ta'lim oluvchilarni qiziqishini orttirish, loixax, rolli o'yinlar kabi metodlarni qo'llash va ta'lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

O'qituvchi zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanar ekan, albatta bunda birinchi navbatda fan, mavzu, o'quvchilar yoshi, kasbiy yo'naltirilganligi va shu kabi bir necha jihatlarga e'tibor berishi kerak. Masalan VIII-sinf " Davlat va huquq asoslari" darsligidagi "Jamiyat", "Davlat" mavzularini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan: "Muammoni hal qilish texnologiyasi" dan foydalanishimiz mumkin.

Darslarni zamonaviy texnologiyalar asosida o'tish orqali o'quvchilarda qonunlar, yuridik adabiyotlar bilan mustaqil ishlay olish ko'nikmasini shakllantirish, ularni erkin fikrlash mavzu yuzasidan o'zining mustaqil fikrini bildira olish, mavzuni nazariy jihatini xolisona ilmiy taxlil etish xususiyatlarini rivojlanishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev asarlari
2. X.T.Odilqoriyev " Davlat va huquq nazariyasi "



BOSHLANG'ICH SINIF MATEMATIKA DARSLARIDA O'QUVCHILARNING FIKRLASH QOBILIYATLARINI O'STIRISH.

*Hasanova Bahora Sadirovna
Nurota tuman 58-umumiy
o'rta ta'lim maktabining
Boshlang'ich sinf o'qituvchisi.*

Annotatsiya: Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematika fanidan mustaqil fikrlash malakalarini shakllantirishning ayrim masalalari yoritilgan, bu pedagogik yondoshuvga oid muhim uslubiy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: intellektual, arifmetik, ko'nikma, malaka

Hozirgi paytda maktablarda boshlang'ich sinflarda matematika o'qitishning asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarni har tomonlama etuk insonlar qilib tarbiyalash hisoblanadi. Bunda ularda matematika bo'yicha bilimlar berish bilan birga ularga o'rganilayotgan bilimlarni asosli va puxta bo'lishini ta'minlash, ularni qo'llay olish ko'nikma va malakalarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa matematika darslarida fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish hamda ularni kelgusida olingan bilimlarni ongli hayotiy faoliyatda muvaffaqiyatli qo'llashlari uchun zarur ko'nikma va malakalarni shakllantirish boshlang'ich matematik ta'limning asosiy vazifalariga aylanishi lozim. SHu nuqtai nazardan o'quv jarayonida matematik masalalar, jumladan hayotiy mazmunli, ularning to'plagan tajribasiga asoslangan masalalarni yechish usullariga va ularni qo'llashga o'rgatish o'ziga xos xususiyatlarga ega, ularni ta'lim mazmuni va o'rganilayotgan tushunchalar mohiyatini ochib berishda foydalanish, o'zaro aloqadorlikda va o'quvchilar amaliy faoliyati tajribasi bilan qo'shgan holda o'qitish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Bu usullarni ishlab chiqish va amalda qo'llash o'qitish sifat va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Boshlang'ich ta'limda matematika o'qitishning asosiy maqsadlaridan biri ham o'quvchilar intellektual tafakkurini shakllantirish asosida o'quvchilar qobiliyat va qiziqishlarini rivojlantirish hisoblanadi. Demak, boshlang'ich sinflarda arifmetik amallar tushunchasini mohiyatini va hisoblash usullarini yetkazish uslubiyatini ishlab chiqish o'z ichiga o'quvchilarda umuman boshlang'ich matematika asosiy tushunchalarni shakllantirish va ularni amalda qo'llay olish ko'nikma va malakalarini rivojlantirishni oladi. Bunga sabab quyidagilar:

1. Boshlang'ich ta'limda matematika o'qitish arifmetik amallar va tushunchalar mohiyatini ochish orqali, hayotiy mazmunli mashq va misollardan keng foydalanish va shu asosda mantiqiy biri-biriga bog'langan tushunchalar, ta'riflar, qoidalar va xulosalarni keltirib chiqarish o'quvchilar matematik qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

2. Boshlang'ich ta'limda matematika o'rganishda har bir amalning o'ziga xos xususiyatlarini o'zida aks ettiruvchi matnli mashqlar va ularni o'quvchilar hayotiy tajribasi bilan bog'lab taklif etish uzviylikka ega, bu esa o'quvchilarning fanga qiziqishlarini oshirish bilan birga fikrlash qobiliyatlarini rivojlanishi uchun asos bo'ladi. SHuningdek umumiy fikrlash usullari va ko'nikmalarni rivojlantirishga ta'sir ko'rsatadi.

3. Boshlang'ich ta'limda matematika o'qitishda fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish arifmetika materiallari mazmuni, o'rganilayotgan asosiy tushunchalar va ularga doir masalalarni echish ko'rgazmali tasavvurlar bilan birga mantiqiy fikrlashni, asoslash va amaliy qo'llanishni talab etadi. SHularni hisobga olib ushbu malakaviy bitiruv ishi boshlang'ich sinflar matematika darslarida bo'lish tushunchasini o'qitish uslublari o'rganishga va bu borada uslubiy tavsiyalar ishlab chiqishga bag'ishlangan. Boshlang'ich sinflar matematika darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarini hayotiy masalalar yechish jarayonida fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar mavjud. Bu shu bilan asoslanadiki, birinchidan, boshlang'ich sinflar matematika darslarida ko'pigan tushunchalarni hayoti tajribaga asoslanib o'qitishga asoslanadi, ikkinchidan, tushunchalar, qoidalar va ularni kuzatishlar, mashq va misollar asosida ko'rgazmali chiqarilishi usullari, amallar va ularning xossalari bayon etishda ularning qo'llanilishi, uchinchidan, matnli va syujetli mashq va misollar va ularni yechishda o'quvchilar da fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish bilan birga algebraik va geometrik tushunchalar, boshqa amallar bilan o'zaro aloqadorligidan foydalanish talab etiladi. SHuning uchun o'quvchilarini hayotiy masalalar yechish jarayonida fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish samarali usullarini ishlab



chiqish va ularni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida qo'llash usullarini o'rganish dolzarb vazifa hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini matematika darslarida fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda turli masalalarning o'rni katta. Biz quyida ana shunday masalalarning ayrim turlariga to'xtalib o'tamiz. **Sahnalashtirilgan masalalar.** Sahnalashtirilgan masalalarga katta e'tibor beriladi. Bu masalalarda bolalarning kuzatgan, ko'pincha o'zlari bevosita bajargan harakatlari aks ettiriladi. Bu erda savolga javob berish emas, balki bu berilgan sonlar ko'rgazmali asosida ko'rinib turishi mumkindir. Birinchi sinf bolalari ko'pincha masalani echishni bilmaydilar, chunki ular u yoki bu harakatni ifodalovchi (sarf qildi, bo'lishib oldi, sovg'a qildi va hakoza) so'zlarning ma'nosini tushunmaydilar. SHunning uchun maktabda, tayyorlov guruhida u yoki bu harakatni ifoda etuvchi so'zlarni mazmunini ochib berishga alohida e'tibor berish kerak. SHu maqsadda masala asosiga qanday amaliy harakatlarni kiritish zarurligini hisobga olish kerak. Bunda qarama- qarshi harakatni: keldi-ketdi, yaqin kelishdi-uzoqlashdilar, oldi-berishdi, ko'tarishdi-tushirishdi, olib kelishdi- olib ketishdi, uchib ketishdi nazarda tutuvchi yig'indi va qoldiqni topishga oi masalalarni taqqoslash maqsadga muvofiqdir.

Ijodiy tafakkuri rivojlangan, mustaqil fikrga ega bo'lgan yoshlar o'z bilimlariga ishonchi, shaxsiy fikri, e'tiqotlariga sobitligi jamiyatimizni yanada taraqqiy ettirishga, demokratik islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda o'zlarining beqiyos yordamlarini ko'rsatadi. Xulosa boshlang'ich sinf o'quvchilarini matematik fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish hozirgi rivojlanib kelayotgan yurtimizda barkamol avlodni turli iqtisodiy munosabatlar, holatlar va vaziyatlarni to'g'ri idrok etishga tayyor bo'lgan intellektual yoshlarni tarbiyalash bugungi kunning muhim vazifalaridan hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.- T.: «SHarq» nashriyot-matbaa konserni, 1997.
2. Axmedov M. , Abduraxmonova N., Jumaev M.E. Birinchi sinf matematika darsligi. Toshkent. SHarq. 2005 yil., 160 bet
3. Axmedov M. va boshqalar. To'rtinchi sinf matematika darsligi. Toshkent. O'qituvchi. 2005 yil
4. Axmedov M. , Abduraxmonova N., Jumaev M.E. Birinchi sinf matematika darsligi metodik qo'llanma.)Toshkent. I'SHarqr. 2005 yil.,



BOSHLANG‘ICH SINFLARNI VIRTUAL O‘QITISH

*Irgasheva Gulbodom Rahmatullayevna
Oltinsoy tumani 64-sonli umum ta’lim maktabining
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarni virtual ta’lim vositalari va shakllari yordamida o‘qitishning afzalliklari haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: virtual sinf, multimedia, innovatsiya

Virtual sinflar yangi tendentsiya emas. Hozirgi kunda butun dunyo bo‘ylab ko‘plab o‘quvchilar masofaviy ta’limdan foydalanmoqdalar. Ba’zi hollarda virtual sinf tajribasi ixtiyoriy tanlov bo‘lmasa ham, virtual o‘rganish bu bo‘shliqni to‘ldirishga yordam beradi har tomonlama va interaktiv onlayn ta’lim muhitidir.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, onlayn ta’lim va ta’lim bo‘yicha so‘nggi ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, dunyo bo‘ylab rivojlangan davlatlarda, boshlang‘ich o‘quvchilarning 92% shaxsiylashtirilgan ommaviy axborot vositalariga va o‘quv jarayonida raqamli qurilmalardan foydalanishga qiziqishmoqda. Bu shuni anglatadiki, virtual sinflar ko‘plab o‘quvchilar uchun ideal o‘quv muhitidir.

Nima uchun virtual sinflardan foydalanish kerak degan savolga javob sifatida bunday innovatsion o‘qitish tizimining quyidagi afzalliklarini keltirish mumkin.

1. Moslashuvchanlik

Virtual sinfning onlayn muhiti o‘qituvchilar va o‘quvchilarga o‘zlarining kun tartiblarini istalgan vaqtda, istalgan joyda yangilash va moslashtirishga imkon beradi. Bu bir nechta muassasalarda bir nechta kurslardan o‘tgan juda band bo‘lgan o‘qituvchilarga sezilarli darajada moslashuvchanlikni beradi. O‘quvchilarning o‘zlari o‘zlarining jadvallarini o‘zlarining xohishlariga ko‘ra tuzishlari mumkin. Sizga faqat raqamli tarkibni namoyish etadigan noutbuk yoki raqamli qurilma kerak halos. Virtual sinfda hamma narsa onlayn: e’lon, uy vazifasi, dars mazmuni, sharhlar yoki faqat o‘qituvchiga savol berish.

2. Raqamli qobiliyatlarni oshirish

“Hozirgi kunda o‘rganish uchun hali ko‘p narsa bor. Agar biz ovozi yozuvni qanday yuklashni bilmasak, unda bizga yordam beradigan texnologik vositalar mavjud, ammo bu uni qanday qilishni o‘rganish va keyin bajarishdirga bog‘liq.

Masofaviy o‘qitish doirasidagi virtual sinf yechimlari o‘zlarining munosibligini isbotladi.

3. Masofaviy tarkib

Virtual sinflar kurs hujjatlariga va bulutli saqlashga osonlikcha kirish imkonini beradi. O‘zingizning dars rejalaringsizni hujjatlashtirish o‘quvchilaringiz istalgan vaqtda dars mazmuniga kirishi va darsdan keyin o‘qishi uchun eng yaxshi usuldir. Bu yo‘q o‘quvchilar yoki virtual sinf paytida muammolarga duch kelganlar uchun juda muhimdir. Har bir inson dars mazmunini osongina yuklab olishi va saqlashi mumkin.

4. Interaktivlik

Virtual sinfning birinchi va qon tomirlari bu interaktivlikdir. Faol ishtirok etish darslar davomida sinergiya hosil qiladi. O‘quvchilarning ekran orqali fikrlari va shaxsiy aks ettirishning qisqa davrlari virtual sinfda yaxshi ishlaydi. Virtual sinfingizni qanday qilib interaktiv qilish kerakligini bilish uchun: Virtual sinflarni amalga oshirish qiyin bo‘lgan vazifalardan tashqari, hamma uchun va butun dunyo miqyosida o‘quv jarayonini osonlashtiradi. Virtual xonalarning afzalliklari aralash ta’limga qaraganda yaxshiroq variant bo‘lib qolish va butun dunyodagi maktablar kelajakdagi muammolar uchun o‘z dasturlarini ishlab chiqishda davom etish ehtimoli yuqoridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. K. Ismanova. Amaliy dars mashg‘ulotlarini innovatsion usullar yordamida tashkil etish. — Ta’lim muammolari jurnali. 2-son, 2012-yil.

2. Dedova V.N. Boshlang‘ich sinflarda o‘qitishning faol usullaridan foydalanish. 2016.



EASY WAYS TO LEARN ENGLISH

Dinura Jastilekova Amir qizi
English language teacher of school
№169 of Turtkul distric

Annotation: For example, we all know that learning a new language takes a long time. There are new rules to memorize and new words to learn. You have to learn tons of things and practice and remember them, and all of that takes time.

Keywords: special, grammar, English music, YouTube

By understanding how and why we learn languages the way we do, we can make our language learning trips faster and easier.

Scientists who learn languages have a special term for one of the ways we learn languages: unconscious or implicit language learning. This kind of learning happens when we don't even try.

It doesn't happen when you sit at your desk and keep studying the rules. Instead, it happens when we hear a lot of English and when we don't pay much attention to it. The sound of English stays in the background, and your brain automatically absorbs the tones, accents, words, and grammar, even if you're not listening, speaking, or taking notes well.

The crazy thing is that even if we don't understand what the words mean, we learn from listening. One study after another shows that it is possible for people to learn any language by listening in this way - we can even wrong Learning languages (those that scientists invent for their research) where all we listen to them.

That's because when we listen to the language, we hear the patterns. It's a more natural way to learn - kids do it all the time. Think about it! When babies are very, very small, they cannot speak. You can only listen. They spend a lot of time listening before they can understand what is being said and before they can use the language on their own. Hear as much English as you can. Keep listening! Whenever you can, make sure you can hear something in English in your room, in your office, or on your headphones.

Watch English TV, listen to English music, and listen to English audio books . Go to places where you can hear native English speakers speak. Hear as much English as you can. You don't have to listen carefully - while listening, you can just walk around, enjoy the sights, do the dishes, read a book, work out in the gym, do homework, write an essay, or do your daily work.

No matter what, as long as the sounds of English penetrate your ears and brain, you will learn more English than you think! When using word associations, combine words with other words, sounds, movements, ideas, or images. If you hear the sound of "woof," you associate it with a dog. When you see a picture of a sun, immediately think of the words "sun", "warm" and "hot". You don't have to spend time thinking about it, these words come to mind automatically.

Not only is learning words through association fun, it is also a very useful way to speed up your English learning. Scientists used this study to look at sign language, a language that deaf people use to communicate and uses hands and fingers instead of sounds to form words. One experiment showed that it is much easier to remember characters that look like the word they represent. This means that it will be easier to remember the sign language word for "eat" since it will look like a person is eating. Words are harder to learn when the movement of your hands isn't as closely related to the idea. As you learn new words, try to learn them in groups. Combine a word with a picture, movement, or other word. Having this strong connection in your head will make it easier for you to remember.

Try to use your hands and body to show the meaning of the words you are learning, at least until you remember it for yourself. You can also try drawing some pictures instead of writing the definitions. As a fun activity, try making the words what they mean. You can find some ideas by using Google Images search. This not only helps you remember the meaning but also the spelling!

Some words have a meaning on their own, but have a completely different meaning when they are put together with other words. When we hear or read a sentence in English, we look for these groups. Learning words alone can be difficult as many words have more than one meaning. Knowing just one word doesn't mean you can actually use it. So as you learn new



words, you learn how to use them in phrases, sentences, and conversations. Do you remember the great songs you learned as a kid? I bet you can still sing the songs your mom or teachers taught you. But you learned these songs a long time ago! How can you still remember her so well? For a child, music is very important for language learning. That is why there are songs for children to help them remember numbers and letters, learn vowels and new words. Repeatedly singing songs and music will help children remember important parts of the language.

Adults also learn more easily with music. Language skills are usually considered very important and music is not that important. Language is almost a kind of music of its own. Learning language skills through music makes learning easier and faster. There are many songs for learning English, many of which can be found on YouTube or right here on FluentU. Listen to songs and sing along and you'll soon be speaking like a local!

References:

1. Galskova N.D. Modern methods of teaching foreign languages: Manual for teachers. Moscow: ARKTI, 2003, 192 p.
2. Bykova, N. I. English. For general education. organizations / N.I. Bykova, D. Dooley, M.D. Pospelov, V. Evans. - 6th ed. - M.: Education, 2017.



BOSHLANG'ICH SINFLARNING TA'LIM JARAYONIDA O'QUVCHILARNING O'QISH MOTIVLARINI RIVOJLANTIRISH

*Farg'ona viloyati Oltiariq tumani
2-IDUM maktabining boshlang'ich
sinf o'qituvchisi Zilolaxon Karimova*

Annotatsiya; ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilar bilimini oshirish va o'quv - bilim salohiyatini rivojlantirish haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar ; o'quvchilar, ta'lim jarayoni, motiv, ko'nikma.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarning o'quv-bilim faoliyatini rivojlantirishda o'qituvchi juda muhim o'rin egallaydi. Chunki u ta'lim jarayonini tashkil etuvchi va boshqaruvchi subyekt sifatida o'quvchining o'quv-bilim faoliyatini ham bevosita boshqarib boradi. O'qituvchi darsda boshqaruvchi, o'quvchilar esa, ishtirokchiga aylanmog'i kerak. Boshlang'ich ta'lim umumiy o'rta ta'lim maktablarining bosh bo'g'ini bo'lganligi sababli ana shu jarayonida o'quvchi shaxsining mukammal rivojlanib borishiga ko'proq e'tibor berish kerak. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ma'suliyatlari cheksizdir. Ular maktab ostonasiga endigina qadam qo'ygan o'quvchilarni maktab hayotiga ko'niktirib, zamonaviy bilim olishlariga yo'l ochib beradilar. Boshlang'ich sinfda ta'lim jarayonida o'quvchilarning o'qish motivlarini rivojlantirish katta ahamiyatga ega. Chunki motiv o'quvchilarni ta'lim jarayoniga qiziqtiradi, darsda faol qatnashishga, bilim, ko'nikma egallashga undaydi. Boshlang'ich sinflarda ko'proq bolaning yoshini, ongini, bilim saviyasini inobatga olgan holda, o'quvchilarga oson va oddiy, kam vaqt sarflanadigan o'yin mashqlarni o'ynatish ko'p samara beradi. V . A. Suxomlinskiy shunday degan ; " Bola - bu dunyoni o'rganadigan, o'yin orqali yangi kashfiyotlar qiladigan tadqiqotchidir ". Shuni alohida ta'kidlash kerakki, o'yin - bu bolalar o'rganadigan faoliyat. Bu bilimlarni kengaytirish, chuqurlashtirish va mustahkamlash uchun pedagogik amaliyotda va nazariyada tasdiqlangan vositadir. Hozirgi kunda boshlang'ich sinf o'qituvchilari tajribasida "Charxpalak, Klaster, Bumerang, Dumaloq stol, Aqliy hujum, Baliq skleti, Venn diagrammasi" kabi metodlari bor. Ushbu metodlarni dars jarayonida qo'llash, ta'lim samaradorligini oshiradi. O'quvchining mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda mavzuni o'rganishga ishtiyoq va qiziqishni orttiradi, bilimlarni mustahkamlash, o'zlashtirish ulardan amaliyotga erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi. Xulosa qilib aytganda, innovatsion texnologiyalardan foydalanib o'tilgan darsda o'quvchilar o'z qobilyati va imkoniyatlarini namayon qilishga erishadilar, jamoa bilan ishlash imkoniga ega bo'ladilar. Bu esa, darsning samaradorligini oshirib, ta'lim sifatini kafolatlashga xizmat qiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga tarbiya va ta'lim berishda ilg'or pedagogik texnologiyalarning o'rni beqiyos. Darslarni shunday texnologiyalar asosida olib borish dars samaradorligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Pedagogika o'qitish metodikasi.
2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini bilim faoliyatini shakllantirishning didaktik asoslari. Toshkent.2005. 320-bet.



МАТЕМАТИК HISOBLASHDAGI ZAIFLIKDA NIMA QILISH QILISH KERAK?

*Kirgizbayeva Muslima Buribayevna
Toshkent viloyati O'rtachirchiq tumani XTBga qarashli
65-umumiy o'rta ta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada ota-onalar uchun farzandidagi matematik zaiflikni yo'qotishda e'tibor qilish kerak bo'lgan jihatlar hamda qo'llash kerak bo'lgan usullar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Matematika, arifmetika, taqqoslash

Raqam bilan bog'liq muammolar u yoki bu bolaga xos emas. Yuzaga kelgan har qanday qiyinchiliklarni maqsadli hamda bolaga individual yondashish yo'li bilan sezilarli darajada hal qilish mumkin. Hisoblash muammosining mumkin bo'lgan alomatlarini erta aniqlash kerak. Ushbu maqolada bu boradagi muammolarni hal qilishda sizga maslahatlar va metodik tavsiyalar berilgan.

Agar siz juda tez fikr bildirsangiz, bolaning sog'lig'ida muammo bor degan xulosaga kelishingiz mumkin. Baxtga qarshi, bunday bo'lmashligi mumkin, chunki bu kasallik emas balki qobiliyatdir. Qobiliyat esa yoki tug'ma yoki hayotiy tajribalar evaziga hosil bo'ladi va sayqallanadi. Bolada hisoblashni o'rganishda qiyinchiliklarga olib keladigan bir qator narsalar mavjud. "Arifmetikaning zaifligi" - bu bolaning fikrlash darajasida "oddiy" matematik asoslar bilan noto'g'ri tushunchalar, noto'g'ri fikrlash usullari va oxir-oqibat muvaffaqiyatsiz yechimlar o'rtasidagi aniq tavsiflanadigan bog'liqlikdir. Bolaga hisoblash masalasida yordam bera olish ushbu "zaiflik" ni yo'qotadi. Aftidan, har qanday bola haddan tashqari katta sonlar ustida amallar bajarish, tushunchalarning xususiy alomatlar va belgilar dunyosini mantiqan ochishni istamaydi. Matematik tuzilmalarning mantiqiy tuzilishiga bu yo'sinda kirish imkoni yo'q. Ko'pincha bunday holatlarda bolaga faqat sof "yodlash" qoladi va bu jarayon oila tomonidan mustahkamlanadi. Bir muncha vaqtdan keyin bu usul o'zini oqlamayotganini ko'rishganida esa bolaning barcha urinishlari puchga chiqishini, matematik bilimlarni yodlash masalalar yechishni hal qila olmasligini tushunishadi. Bu o'zlari va ularning qobiliyatlari haqida shubhalarga olib kelishi mumkin. Ilgari baxtli va sergak bola tobora jim bo'lib yoki haddan tashqari baland ovozda gapirishni boshlashi mumkin.

Bu yerda faqat eng keng tarqalgan hodisalarni aytib o'tish mumkin. Shuning uchun to'liq bo'lish, barcha holatni yoritishga da'vo qiyin. Ya'ni, arifmetik zaiflik bo'lsa, individual jihatlar har doim ham aniq va ravshan bo'lavermaydi. Ko'pincha ular bir-biri bilan birlashtiriladi. Bundan tashqari, agar siz raqamlarni hisoblashda muammolarga duch kelsangiz, ko'pincha bolani qo'shish – ayirishda katta qiyinchiliklarga duch kelayotganini ko'rishingiz mumkin. Agar u matematikada zaif tomoni bo'lsa, u miqdorlarning tasavvuriga ega bo'lmaydi.

Ota-onalar va oilalarning nazorati "xotirjam bo'lish" bilan bir qatorda, raqamli zaiflik holatlarida amalga oshiriladigan eng muhim choralardan biridir. Ularning iste'dodlari, sovg'alari yoki qobiliyatlarini ta'kidlab, bolangizga kuch bering. O'zingizning yoshingizdagi odamlar bilan iloji boricha kamroq solishtiring.

Hisoblashning zaifligini ko'rsatadigan narsani sezsangiz, bolangizning o'qituvchisi bilan maxfiy munozarani izlashingiz kerak. Agar sizda matematik zaiflik bo'lsa, raqamlar miqdor (raqam) sifatida deyarli tushunilmaydi. Bundan tashqari, "teng", "ko'proq" yoki "kamroq" munosabatlarni yozishda muammolarini hal qiling. Bunda mumkin bo'lgan chora: Miqdorlarni har xil narsalardan foydalanib taqqoslang (masalan: toshlar, mevalar, qushlar, geometrik shakllar, ...). Farzandingizni barmoq bilan "sanash" amalidan uzoqlashtirishga va mental ishlash ko'nikmalarini rag'batlantirishga harakat qiling.

Adabiyotlar:

1. Jumayev M.E. Bolalarda matematik tushunchalarni rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. (KHK uchun) Toshkent. "Ilm Ziy" 2005.

2. Baykul, Y. "Boshlang'ich ta'limda matematikani o'qitish". Anqara. Ani Kitobevi 2000.



KIMYOVIY TEXNOLOGIYALAR

Nurmanova Roza Berdibayevna
Xorazm viloyati Yangibozor tumanidagi
16-sonli maktab kimyo fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada kimyoviy texnologiyalar, ularga bo'lgan zamonaviy yondashuvlar va ta'lim tizimida kimyoviy texnologiyalarni o'qitish haqida mulohazalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Kimyoviy texnologiya, subektor, gidromekanik, diffuziya, mexanik.

Ilm-fan va ishlab chiqarishning doimiy rivojlanishi bilan kimyo va kimyoviy texnologiya dunyoga doimiy yangilik taklif qiladi. Odatda, ularning mohiyati xomashyoni iste'mol tovarlari yoki ishlab chiqarish vositalariga qayta ishlash usullarini takomillashtirishda yotadi. Bu bir qator jarayonlar tufayli sodir bo'ladi.

Yangi kimyoviy texnologiyalar quyidagilarga imkon beradi:

- yangi turdagi xom ashyo va materiallarni iqtisodiy faoliyatga joriy etish;
- xom ashyoning mutlaqo barcha turlarini qayta ishlash;
- qimmat komponentlarni arzonroq analoglari bilan almashtirish;
- materiallardan murakkab usulda foydalaning: bitta turdagi xomashyodan turli xil mahsulotlar olish va aksincha;
- oqilona xarajatlar, qayta ishlash.

Aytishimiz mumkinki, umumiy kimyoviy texnologiya asosan ishlab chiqarish jarayonlarini qayta taqsimlaydi va tartibga soladi, bu bugungi kunda sanoat bilan bog'liq bo'lgan odamlar uchun muhim bo'lgan ko'plab ijobiy omillar tufayli juda muhimdir.

Kimyoviy texnologiyaning zamonaviy vazifalari

Dunyoda ekologik vaziyatga qiziqishning ortishi munosabati bilan ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish va xom ashyo hajmini kamaytirishga qodir bo'lgan yangiliklarga talab oshdi. Bu energiya xarajatlariga ham tegishli. Ushbu turdagi resurslar ishlab chiqarish doirasida juda qadrlidir, shuning uchun uning iste'molini kuzatish va iloji bo'lsa, minimallashtirish kerak. Shu maqsadda bugungi kunda kimyoviy texnologiyada energiya va resurslarni tejash jarayonlari faol ravishda ishlab chiqilmoqda va amalga oshirilmoqda. Ularning yordami bilan ishlab chiqarish ratsionalizatsiya qilinib, turli toifadagi sarf materiallarining ortiqcha iste'mol qilinishiga yo'l qo'yilmaydi. Shunday qilib, kimyoviy ishlab chiqarish texnologiyalari va antropogen omillarning tabiatga zararli ta'siri kamayadi.

Sanoatda kimyoviy texnologiya bugungi kunda yakuniy mahsulotni ishlab chiqarish jarayonlarining ajralmas qismiga aylandi. Aynan inson faoliyati sohasi umuman sayyora holatiga eng zararli ta'sir ko'rsatayotgani haqida bahslashish qiyin. Shuning uchun olimlar ekologik falokatni oldini olish uchun barcha imkoniyatlarni ishga solmoqdalar, garchi bunday ishlanmalarni ommalashtirish va amalga oshirish sur'ati hali ham etarli emas.

Zamonaviy kimyoviy texnologiyalardan foydalanish tabiatning holatini yaxshilashga, ishlab chiqarishda ishlatiladigan materiallar miqdorini minimallashtirishga, toksik moddalarni xavfsiz moddalarga almashtirishni va ishlab chiqarishga yangi birikmalarni kiritishni va hokazolarni o'z ichiga oladi. Vazifa atrof-muhitga etkazilgan zararni tiklash: sayyora boyliklarining kamayishi, atmosferaning ifloslanishi. So'nggi yillarda ekologiya va ishlab chiqarishning atrof-muhitga ta'sirini ratsionalizatsiya qilish sohasida turli xil tadqiqotlar ayniqsa faol olib borilmoqda. Korxonaning samarali ishlashini tayyor mahsulotning xavfsizligi va toksik bo'lmaganligi bilan birlashtirish majburiy holga aylanib bormoqda.

Mahalliy ta'limdagi kimyoviy texnologiya asoslari

Malakali mutaxassislarni ishlab chiqaradigan yuqori sifatli ta'lim muassasalari mavjud bo'lmaganda, ma'lum bir sanoatning muvaffaqiyatli rivojlanishi mumkin emas. Kimyo sanoati mamlakat iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismi bo'lganligi sababli, ushbu sohada qimmatli kadrlarni tayyorlash uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratish zarur. Shunday ekan, kimyo fanini chuqur o'rgatishni ayni maktab ta'limidan boshlash hozirgi kunning asosiy ta'limiy talablaridan biri deyishimiz mumkin. Shuningdek, bugungi kunda kimyo muhandisligi asoslari dunyoning ko'plab oliy o'quv yurtlarida turdosh mutaxassisliklar uchun majburiy o'quv dasturining bir qismidir.

Afsuski, mamlakatimizda va MDH davlatlarida texnik yo'nalishlarni o'qitish tamoyillari Ev-



ropa va Amerikada qabul qilingan uslublardan tubdan farq qiladi. Bu oliy ta'lim sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatishga moyildir. Masalan, asosiy e'tibor hali ham tor muhandislik mutaxassisliklariga qaratilgan, shuningdek, mexanikaning dizayn va texnik xizmat ko'rsatish sohalariga katta e'tibor qaratilmoqda. Oliy ta'limning bunday tor doirasi mahsulot sifati, resurs zichligi, ekologik toza va boshqalar jihatidan mahalliy sanoatning chet el ishlab chiqaruvchilaridan orqada qolishining asosiy sababi bo'ldi.

Asosiy xato - bu tizimni shakllantiruvchi va har tomonlama qo'llaniladigan intizom sifatida texnologik muhandislikni qadrlamasligidir va hozirgi paytda mahalliy sanoatning asosiy vazifasi uning rivojlanishi va rivojlanishiga ko'proq e'tibor berishdir. Bugungi kunda malakali kadrlar tayyorlash, shuningdek, ishlab chiqarishni tashkil etish va optimallashtirish masalalari, xususan, MDH davlatlari va xatto Rossiya Federatsiyasida ham eng dolzarb muammo hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. B.Umarov, T.N.Niyazxonov "Kimyo tarixi" Toshkent, "Nazro'z" 2015.
2. Ibrohim Asqarov, Kamoliddin G'opirov, Shahobiddin Qirg'izov, "Kimyoviy bilimlar sarchashmasi" Toshkent, "O'zbekiston", 2013.



BOSHLANG'ICH TA'LIMDA ROTATSIYA(AYLANMA) METODIDAN FOYDALANISH

Nasibaxon Ortiqova Murodillayevna
Namangan viloyati Namangan tumanidagi
12-sonli maktabning boshlang'ich
ta'lim o'qituvchisi
+99897 721- 27-05

Annotatsiya: Ushbu maqolada rotatsiya(aylanma) metodidan foydalanish, ularning ahamiyati va boshlang'ich ta'limda undan qanday foydalanish haqida so'z ketadi.

Kalit so'zlar: rotatsiya(aylanma) metodi, kichik guruh, muhokama qilish, tartib raqamlari, muhokama qilish, javob varianti, o'quvchilarning ishtiroki.

Rotatsiya(aylanma) metodi mashg'ulot mavzusini har bir kichik guruh alohida-alohida muhokama qilib chiqish va yozganlarini butun guruh tahlil qilib ko'rish uchun qo'llaniladi.

Har bir kichik guruh 30 daqiqa davomida 3 ta topshiriqni muhokama qiladi, keyin 15 daqiqa davomida esa, muhokama birgalikda o'tkaziladi.

Sinfga tartib raqamlari bilan birgalikda bir nechta topshiriq osib qo'yiladi. Har bir kichik guruh (2-3 kishi) 10 daqiqa davomida muhokama qilib, o'z variantini yozib oladi-da , so'ngra keyingi topshiriqqa o'tadi va oxirigacha shunday bajarib boriladi.

Har bir guruh rangli flomaster oladi: 1-guruhda ko'k, 2-guruhda qizil, 3-guruhda yashil flomaster bo'lishi mumkin. So'zlarni har kim har varaqqa o'zining rangli flomasteri bilan yozib boradi, shunda uchala guruhdan har birining ishtiroki yaqqol ko'rinib turadi.

Topshiriqni 10 daqiqadan keyin almashtiriladi, 1-guruh 2-topshiriqqa, 2-guruh 3-topshiriqqa, 3-guruh esa 1-topshiriqqa o'tadi.

Guruh a'zolari o'zlaridan oldingi guruh a'zolari tomonidan yozib qo'ygan javoblarni o'qiydi va o'z javoblarini ham yozishadi. Bunda variantning takrorlanishiga yo'l qo'yilmaydi ya'ni guruh a'zolari o'zlaridan oldingi guruh a'zolarining javobini takrorlab yozmasliklari kerak.

Keyingi 10 daqiqada yana guruh a'zolari navbatdagi topshiriqni bajargani boshqa guruh a'zolari bilan joy almashishadi.

Masalan, boshlang'ich sinflarda ona tili darsida guruh a'zolariga ot so'z turkumining so'roqlariga misol yozish topshiriq qilib berilishi va o'quvchilar qo'llaridagi rangli flomaster bilan uni quyidagicha bajarishlari mumkin.

Kim?	1-guruh	3-guruh	2-guruh
	ona	o'quvchi	aka
	bola	shifokor	bobo
	buvi	bemor	ustoz

Nima?	2-guruh	1-guruh	3-guruh
	daftar	tuz	kiyim
	qalam	non	tovuq
	kitob	sumka	jo'ja

Qayer?	3-guruh	2-guruh	1-guruh
	oshxona	Namangan	shifoxona
	gulzor	Beshkapa	kutubxona
	O'zbekiston	maktab	Toshkent

Uchta topshiriq guruh a'zolari tomonidan bajarib bo'lingach, keyin 15 daqiqa davomida javoblar tahlil qilinadi.

So'ngra eng ma'qul va to'g'ri javoblar tanlab olinib, daftarga yoziladi.

Bu metodda jamoa bo'lib ishlash va muhokama qilish orqali tahlil qilishga alohida ahamiyat qaratiladi.

Har xil rangdagi flomasterlardan foydalanishning ahamiyatli tomoni shundaki, qaysi guruh a'zolari qaysi javoblarni yozganliklari yaqqol ko'rinib turishi, ularning javobini tahlil qilish va baholash uchun juda qulay usul hisoblanadi.



Javoblari hammadan ko‘ra ko‘p sonda va to‘g‘ri yozgan guruh a‘zolari eng yuqori ball bilan darsning g‘olibi sanalishadi.

Ushbu metodni dars jarayonida qo‘llashdan asosiy maqsad shuki, bu metod orqali o‘quvchilarda jamoa bo‘lib birgalikda ishlash, ahillik tuyg‘ulari yanada shakllanadi.

Undan tashqari har bir o‘quvchida mustaqil va erkin fikrlash, tezkorlik, topqirlik ko‘nikmalari ham shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://shuhratbek.uz>.



BOSHLANG'ICH SINFLARDA ZAMONAVIY METODLARDAN FOYDALANISH

*Po'latova Xurshida Komilovna
Navoiy viloyati, Qiziltepa tumani
13-umumiy o'rta ta'lim maktab
boshlang'ich ta'lim fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga sifatli ta'lim berishda zamonaviy metodlardan foydalanish to'g'risida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Vazifalar ro'yxatlari, Xulq-atvorni boshqarish, Bilimli bo'lib qolish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini fanlarga bo'lgan qiziqishini oshirishda quyidagi metodlardan foydalanishimiz mumkin. Metodlardan foydalanishning samarali tomonlari shundaki yangicha o'qitish orqali o'quvchilar berilayotgan bilimlarni ham oson, ham tez o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladi.

1. Vazifalar ro'yxatlari. Birgalikda ishlash ko'pincha bolalar o'rtasida ta'lim olish va jamiyat qurilishini rag'batlantiradi. Sinf ro'yxatlari yoki ish jadvallarini yaratish bu bajarilishi kerak bo'lgan kunlik vazifalarni ro'yxatlash va kuzatish vositasidir. Boshlang'ich maktab o'quvchisiga kun uchun kim javobgarligini va aytib o'tilgan aniq vazifalarni kim bajarishini tanlashiga ruxsat berilishi kerak. Birgalikda ishlash sinfdagi uyg'unlikni rag'batlantiradi va bolalarga vazifani bajarish uchun navbatma-navbat turishga imkon beradi. Bu o'z-o'zini qadrlashni rivojlantirishga imkon beradi va muloqotni rag'batlantiradi.

2. Xulq-atvorni boshqarish. Xulq-atvorni boshqarish bo'yicha samarali strategiyani amalga oshirish, o'quvchilarning hurmatini qozonish va ularning o'z salohiyatlariga erishish uchun teng imkoniyatlarga ega bo'lishlari uchun boshlang'ich o'qitishda juda muhimdir. Shovqinli, tartibsiz sinf xonasi samarali o'quv muhitini rag'batlantirmaydi, shuning uchun mukofot va intizom kombinatsiyasi orqali o'zaro hurmat muhitini yaratish o'qituvchi uchun ham, o'quvchilar uchun ham foydali bo'lishi mumkin.

3. Bilimli bo'lib qolish. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari kursi sifatida tez-tez ta'kidlanadigan asosiy jihat - bu sohadagi o'zgarishlardan xabardor bo'lib turishdir. Boshlang'ich o'qitishning ko'p jihatlari asosan o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlarga yo'naltirilgan bo'lsa, o'qituvchilar shaxsiy bilimlarini rivojlantirish uchun kasbiy rivojlanish vositalaridan va o'quvdan tashqari variantlardan foydalanishlari mumkin. Boshlang'ich ta'limning tendentsiyalari va g'oyalari to'g'risida doimo xabardor bo'lish orqali o'qituvchilar o'zlarining ko'rsatmalarini yanada samarali yetkazish uchun ushbu yangi g'oyalarni va o'qitish usullarini sinfga kiritishlari mumkin, shu bilan sinfdagi o'rganishni yanada konstruktiv qilishga yordam beradi.

O'zini samarali boshlang'ich o'qituvchisi sifatida isbotlash qiyin bo'lishi mumkin, chunki har bir o'quvchi o'ziga xosdir. Shu bilan birga, o'qitish strategiyasining to'g'ri kombinatsiyasi bilan ularning har xil o'quv uslublari va akademik imkoniyatlarini ko'rib chiqish mumkin, shu bilan birga sinf o'quvchilarining rivojlanishi uchun dinamik va motivatsion muhitga aylanadi.

O'quvchilar ta'lim olish jarayonida aqliy faoliyatini ham rivojlantirib boradi. Buning uchun faqat fanlardan beriladigan doimiy qolipga solingan bilimlarga nisbatan yangicha ko'rinishdagi bilimlarni berish o'rinlidir. O'quvchilar uchun ma'lumotlar ba'zasini shakllantirish kerak deb hisoblayman. Ya'ni ba'za ma'lumotlari ensiklopedik kerakli ma'lumotlar bo'lishi mumkin, bu ham o'quvchini zerikishidan chalg'itadi, ham yangi bilimlarni egallashga turtki bo'ladi.

Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak, zamonaviy texnologiyalar zamoni oldinga olib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Learn the best teaching methods for primary teaching 2018



О‘QUVCHI YOSHLARNI KASBGA YO‘NALTIRISH MUAMMOSI, YECHIMLAR.

*Polvonova Saodat Jobborovna
Xorazm viloyati Bog‘ot tumani
8-sonli maktabning amaliyotchi psixologi.
saodatpolvonova61@gmail.com
Tel: +99 899 968 28 09*

Annotatsiya: maqolada o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirishga ularni turli qobiliyatlariga e‘tibor berish, muammolar va yechimlar haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: kompleks yondashuv, ijtimoiy iqtisodiy yondashuv, psixologik- fiziologik yondashuv, asosiy tushunchalar, tavsiya berish, qobiliyat.

Hozirgi vaqtda kasbga yo‘naltirish muammosini ilmiy asosda hal qilish uchun unga kompleks yondashuvni taqoza etmoqda. Shunga ko‘ra kasbga yo‘naltirish muammosi kompleks tarzda ijtimoiy-iqtisodiy, psixologik-fiziologik va psixologik-pedagogik yondashuvlarning birligi asosida hal qilinishi kerak. Ijtimoiy-iqtisodiy yondashuv: jamiyatning turli kasblari, mehnat resurslariga bo‘lgan ehtiyoj va mehnat resurslariga bo‘lgan istiqbolli talablarni namoyon qilish bilan bog‘liq masalalarni muhokama qilishni ko‘zda tutadi, biroq bu yetarli emas. Har bir shaxs o‘z qobiliyati bo‘yicha ishlagandagina jamiyatning taraqqiyotiga munosib hissa qo‘sha oladi. Har bir o‘quvchi psixologik-fiziologik xususiyatiga moyillik talabiga ega. Noto‘g‘ri kasb tanlash o‘z ishidan ruhiy, ma‘naviy qoniqmaslik, faollikni yo‘qotish, hatto sog‘lig‘ini yomonlashuviga olib kelishi mumkin. To‘g‘ri, ongli kasb tanlash esa kishining nafaqat hayot yo‘lini, balki uning psixologik-fiziologik sifatlarini takomillashuviga ko‘maklashadi. Kasb tanlash vazifasini hal qilishga psixologik-fiziologik yondashuvining mohiyati shundan iborat. Kasbga yo‘naltirilgan psixologik-fiziologik yondashuv mazmuniga maktabda, o‘qish davrida bolalarda mehnatga muhabbatni tarbiyalash, ularda bo‘lajak kasblarga qiziqishni shakllantirish kiradi. Kasbga yo‘naltirishning asosiy tushunchalari: qiziqish, moyillik, kayfiyat, kasbiy mo‘ljal, shaxsining kasbiy yo‘nalganligi, kasb tanlash vajlari, kasb tanlash prinsiplari. Kasbni asosli ravishda tanlashga tavsiya berish darajasi: Moyillik deganda o‘quvchining tanlayotgan sohasiga munosabatini o‘zgarmasligi, aniq amaliy faoliyatga intilishi “o‘z kuchini sinab ko‘rish” tushuniladi. O‘quvchi o‘z tashabbusi bilan o‘quv faoliyatida, sinfdan tashqari ishlarda hammadan ko‘ra ko‘proq qiziqib shug‘ullanishiga qarab moyillik to‘g‘risida hukm chiqariladi. Professional (kasbiy) niyat deganda shaxsning aniq kasbni egallash va tegishli ma‘lumot olishga qat‘iy intilishlari tushuniladi. Qobiliyat shaxsning individual-psixologik xususiyati sifatida ta‘riflanib, ancha samarali mehnat faoliyatining sharti hisoblanadi. Faoliyat muvaffaqiyatli va o‘ziga xos tarzda olib borilayotgan bo‘lsa, yangi bilim va ko‘nikmalar tez o‘zlashtirilayotgan bo‘lsa, qobiliyat bor ekan deyiladi. Qobiliyat mehnatda shakllanib boradi. O‘quvchilar qobiliyatlarini namoyon qilishi, o‘quvchi uchun muhim ro‘l o‘ynaydi. Ayniqsa bu mehnat ta‘limi fizika, biologiya, kimyo oquvchilariga taalluqlidir, chunki, ular o‘quvchilar mehnat faoliyatini kuzatadilar, ish joyini tashkil etish, amaliy ishlarni bajarish, ustidan nazorat olibboradilar, o‘quvchilar bajargan va tayyorlagan buyumlarni kuzatadi. Bularni barchasi o‘quvchilarning ma‘lum kasblarga moyilligi va qobiliyat borligi yoki yo‘qligini aniqlashda asqotadi. Bu ona tili va adabiyot o‘qituvchisiga, tarix, geografiya va boshqa o‘qituvchilarga ham tegishlidir. Odamlarda umumiy va maxsus qobiliyatlar mavjud bo‘lib, ularsiz har qanday ishda qiyinchiliklarni uchratish mumkin. Bu faollik, tashabbuskorlik, ishlash qobiliyati, irodani rivojlantirilganligi, xotira, diqqat va hokazo.

Maxsus qobiliyatlar alohida kasblar uchun zarurdir. Ularni birga qo‘shib olib borish yaxshi natijalarni ta‘minlaydi. 1. Adabiy-lingvistik qobiliyat 2. Matematik qobiliyatlar 3. Texnik qobiliyat 4. Pedagogik qobiliyat 5. Biror ishni tashkil etish, o‘z atrofiga odamlarni to‘plash bo‘yicha tashkilotchilik qobiliyati 6. San‘atga qobiliyat Odamlarning barqaror psixik xususiyatlarini jami, atrofda hayotga psixik reaksining individual tipi harakter hisoblanadi. Harakter odam o‘ziga, boshqa kishilarga topshirilgan ishga, buyumlarga qanday munosabatda bo‘lishda namoyon bo‘ladi. Harakter shaxsning tug‘ma xislati emas-u odamlarning faoliyati sharoitida shakllanadi va tarbiyaga bog‘liq bo‘ladi. Temperament odam psixik jarayonlarining kechishi dinamikasini bildiradi. Uning fiziologik asosi- qo‘zg‘alish va tormozlanish jarayonlarining kuchliligiga yoki zaifligiga, vazminligi, harakatchanligi yoki sustligi bilan xarakterlanadi. Temperament tug‘ma



xislatlar bilan belgilangan bo'lsada, individning butun hayoti davomida o'zgarimas bo'lib qolmaydi. Kasb tanlash prinsiplari: kasb tanlashda g'oyaviy-siyosiy yo'nalganlik; nazariyani amaliyot bilan bog'liqligi; kasb tanlashning tarbiyalovchi prinsipi; politexnik prinsip; tizimlilik va uzviylik; maktab, oila, ishlab chiqarishni va keng jamoatchiligini o'zaro hamkorligi. Kasb tanlashda o'quvchi o'smirlar duch keladigan qiyinchiliklarni o'rganib, individual ish olib borishning tipik o'ziga xos xususiyatlarini aytish mumkin: - bilimga doir qiziqishlarning barqaror emasligi, kasbga oid mo'ljallarni tez-tez o'zgarib borishi; - kasb yo'lini tanlashda va kolleжда turli ta'lim yo'nalishlari to'g'risidagi tasavvurni yo'qligi; - akademik litsey, kasb-hunar kolleji, oily o'quv yurtini tasodifan tanlash; - o'z kuchiga ishonmaslik yoki ortiqcha baho berish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Baratov Sh. O'quvchi shaxsini o'rganish usullara. -T.: O'qituvchi, 1986.2. Boltaboyev S. va b.q. Kasb tanlashga yo'llash. Ma'ruzalar matni. ToshDPU. -T., 2000.
3. Davlatov K.D. Mehnat va kasb ta'limi tarbiyasi hamda kasb tanlash nazariyasi va metodikasi. -T.: O'qituvchi, 1992



THE EFFECT OF WARM UP ACTIVITIES ON STUDENTS IN ENGLISH TEACHING CLASS

Qazaqova Shahnoza
Xorazm viloyati Hazorasp tumani,
17 – son maktab o‘qituvchisi.
Telefon +99894 656 70 41.

Annotation: They have many advantages that can play a clear and meaningful role in teaching. Different types of warm ups help provide variety and interest at the lesson.

Keywords: warm ups, whatever, effective way, monotony, Increasing, to take part in.

To begin with I want to say that warm up activities have essential role for the students who want to learn the English language. They have many advantages that can play a clear and meaningful role in teaching. Different types of warm ups help provide variety and interest at the lesson. Warm up activities are designed to attract students' attention, to help them put aside distracting thoughts, and to get them ready to focus individually and as groups on whatever activities that follow. They will cause people to stop whatever they are doing or thinking and refocus their attention. I could say a warming up activity is a motivating starting point that will lead students to become animated to work efficiently in the language class. It is an effective way to help the students begin to think in English and to review previously introduced material. A warm up to prepare students for a period of concentration may involve physical movement with activities that keep them active by standing up, walking, jumping, matching pictures with sentences or vocabulary, writing personal experiences or stories, and singing or listening to familiar songs and chants. These are, among others, enjoyable and motivating warm ups.

There are some of the principles that a teacher must consider when preparing a warm up activity. It should:

- ✓ go at the beginning of the class
- ✓ be short
- ✓ be related to the topic
- ✓ be useful to continue the class
- ✓ be an interesting and enjoyable activity
- ✓ prepare students for a period of concentration
- ✓ help students begin to work
- ✓ focus students' attention

The principles contained in this diagram make us realize that warm up activities are not only processes to begin the class, but tools that help us catch students' attention. If you start with an exciting and interesting activity you can be sure the other steps can be developed easily.

Let us highlight some useful strategies when implementing warming up activities. We considered some specific aspects related to warm up activities which many teachers thought could make students' learning more stimulating. They were as follows:

- Breaking the monotony of learning: About this one, Dornyei (2001) highlights the importance of the "motivational flow" when talking about the general rhythm and sequence of events in class and suggests starting it with a warmer, which can be a short stimulating game to set the tone.

- Making the tasks more interesting: The author claims that humans are able to produce concentrated effort if they want to. Generating this interest involves a set of characteristics. Most of them can be adaptable; thus, they become challenging for students since they have interesting content, novelty, and intriguing, exotic, fantasy and personal elements; they stimulate competition and humor.

- Increasing the involvement of the students: He considers that it is important to make students active participants and suggests selecting tasks which require mental or bodily involvement of each participant and creating specific rules and personalized assignments for everybody.

Here is the list of different interesting and enjoyable activities and games

- Taboo
- The Expert Game



- Continue from the last word (last and begin)
- Hot Seat
- Jeopardy
- Who am I?
- Chain Fairytale
- Fact and Fiction
- Can't Say Yes or No
- 20 Questions

In conclusion, I can say that warm up activities is an effective way of helping students to begin the English class daily. In regards to this, I completely agree with Allwright (1984) who concluded, based on her own experience, that “with warm ups students paid closer attention, asked better questions and seemed a bit more excited

than before.” This author also claims that “the proper presentation of warm ups will cause people to stop whatever they are doing or thinking and refocus their attention.”! 34] The role of warm ups is one of being an attention injector for students. That facilitates their involvement in the class work by sharing answers, trying to participate, paying attention, giving the answers, encouraging to take part in the lesson, participating as volunteers, working on the exercises and writing them. Being a student and a future teacher I can say that warm up activities allow both teacher and student to remember each lessons, every theme in English, so I will advise to use them as much as possible in order to make the lesson more interesting and memorable.

The list of used literature:

1. Allwright, R. The importance of interaction in classroom language learning. Applied Linguistics, 1984
2. Dornyei, Z. Motivational strategies in the English classroom. Cambridge: Cambridge University Press, 2001



BOSHLANG'ICH TA'LIMDA O'YIN TURLARIDAN FOYDALANISH

Qirg'izboyeva Nigora Abdulhakimovna
Namangan viloyati Namangan tumanidagi
12-sonli maktabning boshlang'ich ta'lim
o'qituvchisi.
+99894 272-45-06

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich ta'limda o'yinlardan foydalanish, ularning o'quvchilarga ijobiy ta'siri hamda ayrim o'yin turlari haqida gap ketadi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, o'yin, darsga qiziqtirish, aqliy rivojlanish, atrof-muhitni anglash, "Tez javob ber" o'yini, "Pochtachi" o'yini, o'yinlarning ahamiyati.

Barchamizga ma'lumki, boshlang'ich ta'lim qolgan fanlarga qaraganda murakkabroq va mas'uliyatliroqdir. Sababi, boshlang'ich ta'lim o'quvchilari yoshi kichikligiga hamda ularda hali bolalarcha injiqlik va erkaliklarning borligi-yu ularning diqqatini bir joyga jalb qilolmasliklari ya'ni diqqatlarining beqarorligidir. Ushbu jihatdan olib qaraganda didaktik o'yinlar (ta'lim va tarbiyaga qaratilgan o'yin) ning ahamiyati va o'rni beqiyos.

Boshlang'ich ta'limda turli o'yin turlaridan foydalanish o'quvchilarning diqqatini jalb qilish, ularni darsga qiziqtirish bilan birga, ularda aqliy rivojlanishning o'sishini ham orttiradi.

O'yin orqali har bir o'quvchida borliq va atrof-muhitni anglay bilish va atrofidagi insonlar bilan munosabatga kirishishga oid xususiyatlari ham shakllanadi.

Biz quyida boshlang'ich sinflar uchun shu kabi o'yinlardan ayrimlari haqida to'xtalmoqchimiz.

"Tez javob ber" o'yini. O'qituvchi yoki boshlovchi o'quvchilar qatori oralab yurib, o'quvchilardan birini turg'izadi. Ushbu o'quvchi biron bir tur nomini aytadi.

Qolgan o'quvchilar esa shu turga mansub so'zlarga misollar aytishadi. Har bir so'z uchgacha sanalguncha aytilishi lozim. Shuning uchun ham bu o'yin turi "Tez javob ber" deb nomlanadi.

Uchgacha sanalguncha biron bir misol ayta olmagan yoki sherigi aytgan misolni qaytarib aytgan o'quvchi o'yindan chiqadi. O'yin toki bitta o'quvchi qolguncha davom etadi. Oxirida qolgan o'quvchi g'olib sanaladi.

Masalan, yuqoridagi o'quvchi "Harakatlar" degan turni tanladi deylik, qolgan o'quvchilar unga quyidagi kabi misollarni keltirishadi.

Yugurdi- yeldi- yozdi- chopdi- sakradi-turdi-baqirdi-kuldi-yig'ladi-supurdi-tozaladi-yopildi-tikdi-tayyorladi-bichdi-qirqdi-hatladi va hokozo.

Ushbu o'yin o'quvchilarni hozirjavoblikka o'rgatish bilan birga ularda mustaqil fikrlash ko'nikmalarini ham shakllantiradi, atrof- muhitni kuzatish orqali atrofida sodir bo'layotgan voqea va hodisalarga bo'lgan qiziqishni ham orttiradi.

Bu o'yindan "Mustahkamlash, " Takrorlash" mavzularida hamda dam olish daqiqalarida foydalanish mumkin.

2- o'yinimiz **"Pochtachi"** deb nomlanadi, bu o'yin shartiga ko'ra bir o'quvchi sinf xonasiga "pochtachi " qiyofasida kirib keladi va ayrim o'quvchiga surat solingan xatjild topshiradi. O'quvchilar xatjildni ochib, undagi suratda nimalar tasvirlanganini og'zaki hikoya qilib berishlari kerak. Qolgan o'quvchilar esa, og'zaki matn tuzgan sinfdoshlarining hikoya davomida nechta gapdan, nechta so'zdan foydalanganliklarini sanab beradilar.

Ushbu o'yin shartiga ko'ra eng ko'p gap tuza olgan, so'zdan to'g'ri va oqilona foydalana olgan o'quvchilar g'olib sanalishadi.

Bu o'yin ham o'quvchilarning mustaqil va erkin fikrlash hamda o'zgaralar oldida o'zini tuta bilish va tortinmay so'zlay olish ko'nikmalarini rivojlantiradi, ularda darsga bo'lgan qiziqishni orttiradi, eng muhimi og'zaki nutq konikmalarini yanada shakllantiradi.

Har bir darsdan maqsad o'quvchiga nimanidir o'rgatish, o'rgatganda ham oson, tushunarli, qiziqarli va esda qolarli tarzda o'rgatishdir. Xuddi shu muammoni yechishda o'yinlar juda qo'l keladi. Har qanday o'yin tarzida o'tkazilgan o'quv darsi qolgan darslarga qaraganda, o'quvchi xotirasida uzoq vaqt saqlanib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.<https://shuhratbek.uz>.



АКАДЕМИК ЛИТСЕYLARDA ONA TILI O'QITISH METODIKASI TAMOYILLARI.

Raximova Sanobar Karimovna
O'zbekiston Respublikasi
IIB Navoiy akademik litseyi
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
Telefon raqami: 90 646 78 81

Annotatsiya. Ona tili o'qitish metodikasi-pedagogik fan, amaliy fan. Chunki u nazariyaga asoslanib o'quvchilarni o'qitish, tarbiyalash, o'stirishning amaliy vazifalarini bajaradi. Ona tili o'qitish metodikasining predmeti ta'lim berish sharoitida ona tilini egallash, ya'ni o'qish va yozishni, fonetika, grammatika kabilarni bilib olish jarayoni hisoblanadi.

Kalit so'zlar. Tamoyil, fonetika, grammatika, pedagogik, ta'lim, umumdidaktik, Til, morfemik, sintaktik, morfema, orfografiya, uslubiyat.

Tamoyil lotincha so'z bo'lib asos, qoida, talab singari ma'nolarni anglatadi. O'qitish tamoyili deganda dars samaradorligini ta'minlashga qaratilgan, ta'lim jarayonini tashkil etish, uyushtirishga qo'yilgan asosiy talablar, qoidalar tushuniladi. O'qituvchi ta'lim ishini tashkil etar ekan, ana shu qoidalar va talablardan kelib chiqadi va ular o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlagan holda amalda tatbiq etish orqali ko'zlangan maqsadga erisha oladi. Ona tili darslarida bir. tomondan umumdidaktik tamoyillar, ikkinchi tomondan shu fanni o'qitishning o'ziga xos tamoyillarini hisobga olishga to'g'ri keladi. O'quvchilarga ona tilini o'rgatish, ularni tarbiyalash va har tomonlama rivojlantirish vazifasidan kelib chiqib, bilish nazariyasiga asoslanib, barcha yaqin, o'zaro bog'liq fanlar tavsiyalariga asoslanib, ona tili o'qitish metodikasi o'z tamoyillarini ishlab chiqadi. Bu tamoyillar umumdidaktik tamoyillardan o'zgacha bo'lib, o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi o'quv mehnatining yo'nalishlarini belgilab beradi. Ona tili o'qitish tamoyillari quyidagilar: 1. Til materialiga, nutq organlarining o'sishiga, nutq malakalarining to'g'ri rivojlanishiga e'tibor berish tamoyili. Nutq, til qonuniyatlariga, oz bo'lsa-da, e'tibor bermaslik amaliy nutq faoliyatini egalashga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, fonetik ko'nikmalarga yetarli e'tibor berilmasa, imloviy savodxonlikka putur yetadi. Bu ta'lim tamoyili tildan olib boriladigan mashg'ulotlarda eshituv va ko'ruv ko'rsatmaliligini ta'minlashni ya nutq organlarini mashq qildirishni (gapirib berish, ifodali o'qishni, ichida gapirishni) talab etadi. 2. Til ma'nolarini (leksik, grammatik, morfemik, sintaktik ma'nolarini) tushunish tamoyili. So'zni, morfemani, so'z birikmasini, gapni tushunish borliqdagi ma'lum voqea-hodisalar o'rtasidagi bog'lanishni aniqlash demakdir. Til ma'nolarini tushunish tamoyiliga amal qilishning sharti tilning hamma tomonlarini, tilga oid barcha fanlar (grammatika, leksika, fonetika, orfografiya, uslubiyat)ni o'zaro bog'langan holda o'rganish hisoblanadi. Masalan, morfologiyani sintaksisga tayangan holdagina o'rganish, o'zlashtirish mumkin. Sintaksisni o'rganishda esa morfologiyaga suyaniladi, orfografiya fonetika, grammatika, so'z yasalishiga suyanadi va hokazo. So'zni morfemik tahlil qilish lining ma'nosini tushunishga yordam beradi. Tilning hamma tomonlari bir-biri bilan o'zaro bog'langan bo'lib, o'qitishda buni albatta hisobga olish kerak. 3. Tilga sezgirlikni o'stirish tamoyili. Til - juda murakkab hodisa, uning tuzilishini, izchil tizimini fahmlab olmay turib, sal bo'lsada, lining qonuniyatlarini, o'xshashliklarini o'zlashtirmay turib, uni yodda saqlab bo'lmaydi. Bola gaplashish, o'qish, eshitish bilan til materiallarini yig'adi, uning qonunlarini o'zlashtiradi. Natijada kishida tilga sezgirlik (til hodisalarini tushunish) xususiyati shakllanadi. 4. Nutqning ifodaliligiga baho berish tamoyili. Bu tamoyil til hodisalarini tushunmay turib savodli yozish, nutq madaniyati vositalarining xabar berish vazifasini tushunish bilan bir qatorda, lining ifodaliligini (uslubga oid) tushunishni, mazmuninigina emas, balki so'z va nutq birliklarining, tilning boshqa badiiy-tasviriy vositalarining hissiy bo'yoqdorligini ham tushunishni ko'zda tutadi. 5. Og'zaki nutqni yozma nutqdan oldin o'zlashtirish tamoyili. Bu tamoyil ham kishi nutqining rivojlanishiga ta'sir etadi va til o'qitish metodikasini tuzishda xizmat qiladi. Metodika tamoyillari, didaktika tamoyillari kabi, o'qituvchi bilan o'quvchining maqsadga muvofiq faoliyatini belgilashga, ularning birgalikdagi ishlarida qulay yo'nalishni tanlashga yordam beradi, metodikaning fan sifatida nazariy asoslash elementlaridan biri bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Roziqov O, Mahmudov M, Adizov B, Hamroyev A. Ona tili didaktikasi. - Toshkent: Yangi asr avlod, 2005
2. Roziqov O, Mahmudov M, Adizov B, Hamroyev A. Ona tili didaktikasi. – Toshkent: Yangi asr avlod, 2005.
3. www.google.com



О‘QUVCHILARNI MASALA YECHISH MALAKALARINI OSHIRISH

*Urgut tumani 65-maktab
oliy toifali o‘qituvchi
To‘raqulova Hilola Axtamovna
126-maktab o‘qituvchisi
Oblaqulova Farida Odilovna*

Annotatsiya: Masalani yechish — bu masalada bevosita yoki bilvosita mavjud bo‘lgan sonlar, miqdorlar, munosabatlar ustida amallarning mantiqan to‘g‘ri ketma-ketligi orqali masalalarning talabini bajarish (uning savoliga javob berish) demakdir.

Matematikada masalalarni yechishning asosiy usullari sifatida arifmetik va algebraik usullar farq qilinadi. Arifmetik usulda masalani savoliga javob sonlar ustida arifmetik amallarni bajarish natijasida topiladi.

Kalit so‘zlar: masala yechish, innovatsiya, arifmetik amallar

Har qanday matnli masala shart va talabdan iborat.

Masalaning shartida obyektlar va berilgan obyektlarni xarakterlovchi ba’zi miqdorlar haqida, bu obyektlarning ma’lum va noma’lum qiymatlari haqida, ular orasidagi munosabatlar haqida ma’lumotlar beriladi.

Masalaning talabi nimani topish kerakligini ko‘rsatishdir. Masalan, buyruq (To‘g‘ri to‘rtburchakning yuzini toping) yoki so‘roq (To‘g‘ri to‘rtburchakning yuzi nimaga teng?) shaklidagi jumla bilan ifodalanishi mumkin.

Matnli masalalarni arifmetik usulda yechish murakkab faoliyat bo‘lib, uning mazmuni berilgan masalaga ham, masala yechuvchining malakasiga ham bog‘liq. Shunday bo‘lsada, unda bir necha bosqichni ajratish mumkin.

1. Masalaning mazmunini tushuntirib yechish va tahlil qilish.
2. Masalani yechish rejasini izlash va tuzish.
3. Yechish rejasini bajarish. Masalaning talabini bajarish haqidagi xulosani ifodalash (masalaning savoliga javob berish).
4. Yechimni tekshirish va agar xato bo‘lsa, uni tuzatish. Masalaning talabini bajarish yoki masalaning savoliga javob berish haqidagi uzil-kesil xulosani ifodalash.

Shuni ta’kidlash kerakki, masala yechish jarayonida aytib o‘tilgan bosqichlar qat’iy chegaraga ega emas va har doim ham birday to‘la bajarilmaydi.

Agar matn bo‘yicha maxsus savollar berib va ularga javob berilsa, bu masalaning mazmunini tushunib yetish, uning sharti va talabini ajratib olish mumkinmi?

1. Bu masala nima haqida?
2. Masalada nimani topish talab etiladi?
3. «Shu butun vaqt mobaynida» so‘zlari nimani anglatadi?
4. Masalada uning har bir qatnashchisining harakati haqida nima ma’lum?
5. Masalada nima noma’lum?
6. Nima izlanuvchi: sonmi, kattalikning qiymatimi, muno- sabatning turimi?

Masalaning mazmunini tushunib yetishda va masala yechimini izlash uchun asos yaratishda masala matnini qayta ifodalash vaziyatlarning berilgan ifodasini, barcha munosabatlarni ularni boshqa ifodasi bilan almashtirish katta yordam beradi. Bu vositadan matnni ma’noli qismlarga ajratish maqsadlarida foydalanish ayniqsa samaralidir.

Qayta ifodalanish muhim bo‘lmagan, ortiqcha ma’lumotlarni chiqarib tashlash, ayrim tushunchalar ifodasini mos atamalar bilan almashtirish va, aksincha, ayrim atamalarni ularga mos tushunchalar ma’nosining ifodasi bilan almashtirish, masala matnini yechimni izlash uchun qulay bo‘ladigan shaklda qayta tuzishdan iborat.

Arifmetik usullar bilan masalani yechish rejasini izlashning ancha ko‘p tarqalgan usullaridan bin, matn bo‘yicha masalani tahlil qilishdir.

Matn bo‘yicha masalani tahlil qilish masala shartidan ham, uning savollaridan ham boshlanishi mumkin bo‘lgan mulo- hazalar zanjiri ko‘rinishida o‘tkazilishi mumkin.

Masalaning shartidan savolga tamon tahlil qilishda berilganlar bo‘yicha qanday noma’lum va arifmetik amal yordamida topilishi mumkinligini aniqlash kerak. Bu noma’lumni berilgan



ma'lumot deb hisoblab, yana o'zaro bog'langan ikkita ma'lumotni ajratish, uning yordamida topilishi mumkin bo'lgan noma'lumni va, shuningdek, mos arifmetik amalni aniqlash kerak va hokazo. Bu jarayonning bajarilishi noma'lumni hosil qilishga olib keluvchi amalni aniqlaguncha davom ettiriladi.

Shuning uchun ham boshlang'ich sinf matematika darslarida quyidagi o'yinlardan foydalanishimiz maqsadga muvofiqdir.

O'yin — musobaqa darsi o'quvchilarni yanada faollashtirishga yordam beradi. Albatta, o'yin musobaqa darslarini yil fasllariga moslab tashkil etish katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Qanchalik ko'p va har xil o'yinlardan foydalanilsa, o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishlari va faolliklari shunchalik ortib boradi.

Masalan, 4-sinf matematika darslarida masala yechish jarayonida quyidagi o'yindan foydalanishimiz dars jarayonining qiziqarli, samarali o'tishiga olib keladi.

“Amal ishoralarini to'g'ri tanla o'yini”

Didaktik topshiriq: O'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini o'stirish.

O'yin topshirig'i: O'yin jarayonida masala yechish yordamida amallar bajarishni mustahkamlash.

O'yin bayoni: Bu o'yin uchun magnitli doska, bozor rasmi aks ettirilgan ko'rgazma, kartochkalarga sonlar yozilgan bo'lishi talab etiladi. Xaridor va sotuvchi rasmi. O'qituvchi o'yinning sharti bilan tanishtiradi. Magnitli doskaga yuqorida aytilgan rasm, xaridor va sotuvchi rasmi, kartochka yopishtirib qo'yiladi. So'ng o'qituvchi: «Yaxshilab e'tibor bering, rasmga qarab masala tuzing» — deydi.

Masala. 201-masala (48-bet.)

Xaridor 400 so'mdan 2kg kartoshka va 160 so'mga lavlagi sotib oldi. U sotuvchiga 1000 so'm berdi. Xaridor qancha qaytim olishi kerak?

Yechish: $1000 - (400 \cdot 2 + 160) = 40$

Javob: Xaridor 40 so'm qaytim olishi kerak.

Kartochka namunasi

$1000 ? (400 ? 2 ? 160) = ?$

$1000 - (400 \cdot 2 + 160) = 40$

Bu o'yinda sonlar orasiga amal ishoralarini to'g'ri qo'yilsa masalaning yechimi topilishi aytiladi. Qaysi biringiz birinchi bo'lib yechsangiz, g'olib deb topilasiz, deydi o'qituvchi. Bunday o'yinlar o'quvchilarning qiziqishini yanada orttiradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan muommolardan biri masala yechishda sonlarni to'g'ri topa olmaslik, amal ishoralarini to'g'ri qo'llay olmaslik muammolarini bartaraf etishga yordam beradi.

O'yin o'quvchilarning bilimini oshirish va fikrini charxlashning eng qulay usullaridan biri hisoblanadi. O'qituvchilar yuqoridagi o'yinlardan o'rinli foydalanib borsa, o'ylaymizki, farzandlarimiz davrimizning eng yetuk, komil insonlari bo'lib yetishib chiqadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ahmedov M., Abdurahmonova N., Jumayev M., Ibragimov R. O'qituvchi kitobi. Birinchi sinf matematika darsligi uchun metodik qo'llanma. — T.: «Turon-Iqbol», 2008.
2. Bikboyeva N. va boshqalar. 4-sinf matematika darsligi. — T.: «O'qituvchi», 2017.
3. Jumayev M. Bolalarda matematik tushinchalarni rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. — T.: «Ilm-Ziyo», 2009.
4. Jumayev M. va boshqalar. Matematika o'qitish metodikasi. — T.: «Ilm-Ziyosi», 2003.
5. Jumayev M. Matematika o'qitish metodikasidan praktikum. — T.: «O'qituvchi», 2004.
6. Jumayev M. Boshlang'ich sinflarda matematikadan laboratoriya mashg'ulotlari. — T.: «Yangi asr avlodi», 2006.



БОЛАЛАР ХОТИРАСИНИ МУСТАҲКАМЛОВЧИ МАШҚЛАР

*Кургонова Нигора Турсунпулатовна
Тошкент шаҳар Чилонзор тумани
101-мактабнинг бошланғич синф ўқитувчиси
тел: (97) 707-54-01
e-mail: anvarjon74_74@mail.ru*

Аннотация: Мақолада мактаб ёшидаги болалар хотирасини мустаҳкамлашга кўмаклашувчи турли хил машқлар, болаларда диққатни жамлаш қобилиятини ривожлантириш усуллари ҳамда бола хотирасига кун тартибининг таъсири ҳақида сўз юритилган.

Калит сўзлар: ўсмирлик, ўткир зеҳнлилик, машқ ва ўйинлар, хотира, диққатни жамлаш, жисмоний машқлар.

Кўпчилик ота-оналар фарзандининг хотираси кучли эмаслигидан нолийди. Келажакда боланинг ақл-идрокли бўлиб камол топишида эса ўткир зеҳнли бўлиш муҳим аҳамиятга эга. Бола хотираси мустаҳкам бўлиши учун ота-она фарзанди билан ҳар куни маълум вақт давомида шуғулланиши лозим. Кичкинтойнинг зеҳни турли машқ ва ўйинлар орқали ривожланиб боради. Яна шуниси аҳамиятлики, унинг овқатланиши, кун тартиби ҳам бола хотирасининг ривожланишига ўз таъсирини кўрсатмай қолмайди. Хотира билан боғлиқ ҳамма хусусиятлар бола дунёга келиб нутқи ривож топганидан бошлаб, то ўсмирлик (12-14 ёшлар) даврига қадар яхши ривожланади. Айниқса, зеҳннинг қай даражада мустаҳкам эканлиги бола илк мактабга бориш даврида билинади. Табиийки, эслаб қолиш қобилияти яхши ривожланган ўқувчи дарсларни бошқаларга қараганда тез ўзлаштиради. Мактаб ёшидаги болалар учун хотирани мустаҳкамлашга кўмаклашувчи машқлар билан таништирамиз.

Расмлар

Фарзандингизга бирор бир расмни кўрсатиб, унда нима тасвирланганини чизиб беришини сўранг. Шунингдек, ундан расм ҳақидаги фикрларини кўпроқ гапириб беришини илтимос қилинг.

10 та фарқни топ

Суратга қараб ўйналадиган “10 та фарқни топ” машқи хотирани мустаҳкамловчи асосий ўйинлардан биридир. Бунинг учун болага ярим дақиқа суратни томоша қилишига қўйиб беринг. Сўнгра иккинчи суратни кўрсатинг. У расмлар ўртасидаги тафовутни хотирасига суянган ҳолда аниқлай бошлайди.

Ҳайвонот боғини эсла

Фарзандингизга бир нечта юмшоқ ўйинчоқлар (мактаб ёшидаги болалар учун ўйинчоқлар сони 7 тадан ошмагани маъқул) беринг. Уларни бир қаторга териб, болага ярим дақиқа вақт ажратинг. У ўйинчоқлар ўрнини эслаб қолсин. Сўнг орқасига ўгирилиб туришини айтиб, ўйинчоқлар жойини алмаштиринг. Кейин эса боладан дастлаб улар қандай жойлашгани ҳақида сўранг. Бу ўйин орқали нафақат эслаб қолиш, балки диққатни жамлаш қобилияти ҳам яхшиланади.

Тасвирлаб бериш

Фарзандингиз билан ҳайвонот боғини сайр қилиб, уйга келганингизда у ердаги қизиқарли воқеа ёки чиройли объект ҳақида сўранг. Уларни кенгроқ тасвирлаши учун саволлар беринг.

Рақс тўгараги

Қувноқ мусиқа ёрдамида фарзандингизга бирор бир рақс ҳаракатини ўргатинг. Бу ўйин боланинг ҳаракат хотирасини ривожланишига кўмак беради. У рақсни такрорлаш орқали зеҳнида ҳаракат кетма-кетлиги сақланади.



Кўриб, эшитиб, эслаб қолиш

Фарзандингизга бирор ҳайвонни тасвирлаб беринг. Сўнг эшитганлари ҳақида сўзлаб беришини сўранг. Бу машқ у учун бироз қийинчилик туғдирса, ҳайвонлар расмини кўрсатиб, уларнинг товуши, ҳаракатлари тўғрисида маълумот беринг. Болажонингиздан сўзлаганларингиз ҳақида сўраб олишни унутманг.

Диққатни жамлашга кўмаклашувчи машқлар

Болага қоғоз билан қалам беринг. Бирор бир расмни ярим дақиқа давомида кўрсатинг ва уни қоғозга тасвирлаб беришини сўранг. Бошланишида ундан оддий шакл (масалан квадрат)ни қора қаламда (бўямасдан) чизиб беришини сўранг. Кейинчалик бироз мураккаб бўлган суратлар (масалан, табиат тасвири)ни турли рангли қаламлар билан тасвирлашни сўранг. Бу ўйин диққатни жамлашга кўмак беради.

Болажон кун тартиби

Даставвал болага тўғри кун тартиби белгилаш керак. Бунда спорт муҳим ўрин тутди. Турли жисмоний машқлар унинг мияси ривожланиши ва хотирасининг мустаҳкамланиши учун алоҳида аҳамиятга эга. Уйқу давомийлиги (мактаб ёшидаги болалар учун кундалик 9 соат)га ҳам эътибор беринг. Кун давомида 5 маҳал овқатланиш жараёнини ташкил этиш, мия таранглигининг ривожланишига ўзининг ижобий таъсирини кўрсатади. Бўтқалар, сут ва сут маҳсулотлари, ёнғоқ, ёғли балиқ, дуккакли маҳсулотлар, мевалар ва сабзавотлар болажон рационидан муҳим ўрин эгаллаши лозим. Шуни унутмаслик керакки, хотира туғма истездод эмас, уни фақатгина машқлари орқали мустаҳкамлаш ва ривожлантириш мумкин.

Фойдаланилган адабиёт:

1. “Соғлом ҳаёт сирлари” журнали саҳифасидан олинди.



ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ СИСТЕМЫ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ.

*Мухамедбаева Гульчехра Аллаходжаевна
Логопед-дефектолог,
ДОУ 342 Шайхантахурского района*

В статье рассматривается многоаспектная воспитательная работа педагога-воспитателя, акцентируется зависимость развитие маленьких детей от окружающей среды.

Ключевые слова: Защита детства, забота, внимание, любовь, опека, память, мелкая моторика, устная речь, окружающая среда, игровые технологии.

Детский сад оказывает семье ребенка огромную поддержку – родители могут работать и учиться, не испытывая при этом чувство вины, что ребенок в это время заброшен, они могут быть уверены, что ребенок находится в комфортных условиях, нормально питаться, с ним занимаются педагоги. Защита детства – приоритет любого государства, не только с гуманитарной точки зрения, но и с точки зрения инвестиций в будущее: рано или поздно сегодняшние дети станут опорой этого экономического роста, основой поднятия духовности, национальных традиций. Дети в раннем возрасте беззащитны, восприимчивы и невинны. В этом возрасте они как никогда нуждаются в заботе, внимании, любви, опеке. Окружение ребенка сильно влияет на его будущее. Он запоминает, а в последующем копирует модели поведения взрослых. Поэтому так важно, чтобы дома у ребенка были любящие родители, в детском саду – профессионалы своего дела, а государство в свою очередь должно дать возможность для достойного развития детей.

Труд педагога в детском саду, отвечающую за жизнь и здоровье детей, имеет ведущую многоаспектную воспитательную работу, требует огромных затрат и физических сил. И только такие педагоги смогут достойно воспитать детей. Не случайно говорят, что воспитатель – это не профессия, а состояние души, поэтому иначе очень сложно понять, как люди выкладываются, и получают удовольствие от работы.

Развитие маленьких детей во многом **зависит от окружающей среды**. Среда должна учитывать возрастные особенности детей дошкольного образовательного учреждения, так же должна обеспечить комфортность и безопасность обстановки, соответствие образовательной программе. Дошкольное образование связано с идеями Л.С.Выгодского, о роли значения детского развития. Обучение может вести за собой развитие, а может идти за ним и даже тормозить. Поэтому, **нельзя переносить школьные методы обучения в детский сад**. В нашей педагогике сильный акцент нужно делать именно на игровых формах и методах обучения детей. А что происходит в детских садах – отсутствует согласованность программ дошкольных учреждений и школ. Сегодня происходит фактический перенос программы 1 класса в дошкольное учреждение. Отсутствие единых правил подготовки детей к школе приводит к тому, что дети приходят с навыками чтения, счета, а при этом **у 35-40% из них не развита мелкая моторика, а у 60% - устная речь**. При подготовке дошкольников к школьному обучению внимание родителей и воспитателей обращено на знаневую подготовку, на формирование определенных навыков учебных действий. Это приводит к «зашколиванию» в работе с дошкольниками, что негативно сказывается как на физическом, так и на психическом самочувствии детей. Современные программы дошкольного обучения подразумевают раннюю интеллектуализацию детей, что не всегда благотворно сказывается на состоянии их здоровья. Остается без внимания социальная сторона образования, связанная с приобретением навыков эффективной коммуникации, сотрудничества, способность к решению доступных жизненных задач. Главное преимущество детского сада наличие детского общества, благодаря которому создается пространство социального опыта ребенка.

Игровые технологии в дошкольном образовании стоят на первом плане, поскольку именно игровая деятельность доминирует у детей от 2 до 6 лет. Методика направлена на развитие памяти, воображения, внимания. Игровые технологии развивают у дошкольников любознательность, коммуникабельность и творческое мышление. Пробуждают дошкольников к самостоятельному решению проблем, что в дальнейшем помогает им достигать успеха в той или иной сфере. И тут мы сталкиваемся с проблемой – неумения педагога



отобрать нужную литературу и технологию, вести эксперимент, диагностировать изменения. Одни педагоги не готовы к инновациям психологически, другие – методически, третьи – технологически. Снижается мотивация к обучению, дети перестают задавать вопросы, нет признаков интереса, любопытства, удивления.

Особенное беспокойство вызывает и тот факт, что взрослые не играют с детьми, у них нет на это времени. Игра исчезает из жизни дошкольника, а вместе с ней исчезает само детство, исчезают из семьи – семейные традиции, уважение к взрослым, братьям, сестрам и к окружающим. Большинство современных родителей не желают сотрудничать с детским садом, ссылаясь на занятость. Кроме того, базовая система знаний перестала сегодня играть прежнюю роль. Для человека 21 столетия гораздо большее значение имеет не знания полученные в школе, семье, а, то, что он услышит по радио, увидит по телевизору, прочитает в газете, узнает из разговора окружающих людей. Большинство родителей рано отдают ребенка в школу, обращая внимание лишь на физиологическую готовность к школе и совсем забывая о психологической готовности к школе. Это приводит к исчезновению учебной мотивации в дальнейшем. **Наличие знаний у ребенка не определяет успешность его обучения, намного важнее, чтобы ребенок самостоятельно их добывал и применял.**

Главная задача государства в сфере дошкольного образования – обеспечение его общедоступности – до сих пор остается не решенной в полной мере. Причин, порождающих таких ситуаций много: дефицит свободных мест в дошкольных учреждениях, желание родителей воспитывать ребенка дома, отсутствие у родителей возможности вносить плату за детский сад, наличие неблагополучных семей и педагогически запущенных детей, наличие детей с ослабленным здоровьем, с хроническими заболеваниями. Вследствие этого дети приходят в школу с разным уровнем развития качеств личности, необходимых для успешной адаптации к школе.

Использованная литература

1. Зверева О.Л., Кротова Т.В. «Общение педагога с родителями в ДОУ»
2. Асаева И.Н. «Основные проблемы и направления развития воспитателей ДОУ»
3. Газета «Правда Востока» «Образование Узбекистана: на пути к прогрессу»



PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA – O‘QITUVCHINING INTELLEKTUAL SALOHİYATI

*Abdullayeva Umida Abduraimovna
Navoiy viloyat Xatirchi tuman
73-umumta’lim maktab
Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi*

Kishi ma’naviyati va butun ijtimoiy mohiyatining birlamchi asosini bilim tashkil etadi. Bilim o‘zi nima? Bilim – bu bir butunlikni, ya’ni majmuani tashkil qiluvchi qismlar orasidagi zaruriy aloqadorlikdir.

Yangi yuz yillik taraqqiyotida butun insoniyat tarixida yangi davr boshlangan bir paytda sivilizatsiyaning muhim omili sifatida, bilim, aql–idrok, boy tafakkur, teran fikr, ma’naviy-axloqiy poklik va ruhiy xotirjamlik katta ahamiyat kasb etayotganligi hammaga ayon. Shunday ekan, taraqqiyot sivilizatsiyasini eng yuqori bosqichga ko‘tarish uchun 85 kelajak avlodga boy tafakkur, teran fikr, aql-idrok, ma’naviy-axloqiy poklik, eng avvalo, bilim tuganmas darajada bo‘lishi shart. Bu uchun, albatda, ”Ustoz-shogird”ning o‘rni beqiyosdir. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 16-fevraldagi 25- sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ustoz-shogird” usulida uzluksiz malaka oshirishni tashkil etish buning yorqin dalilidir.

“Avesto”da ta’kidlanganidek, odamlar qalbidagi ezgulik va yovuzlik, yaxshilik va yomonlik tuyg‘ularining o‘zaro kurashida yaxshilik tantanasi va ezgulik g‘olibligini ta’minlashda odamlarga ma’naviy qudrat, ijobiy rag‘bat va ruhiy narsa - bu bilim, ya’ni haqiqatdir deyilgan.

Yangi yuz yillikning va yangi ming yillikning dastlabki paytlarida yashayotgan bir vaqtimizda hayot, kelajak bizda komillikni, inson sifatidagi yutuqlarini, odamiy barkamollikni, shu bilan birga, mukammal bilimni talab etmoqda. Mustaqillikka erishgan

O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini shakllantirish hamda huquqiy demokratik davlat qurish uchun ta’lim-tarbiya ustuvorligi ta’minlanibgina qolmay, balki ijtimoiy buyurtma sifatida butun jamiyatni pedagoglashtirish yuzaga keldi. Bu jamiyatimizning har bir, fuqarosini tarbiyashunoslik asoslari bilan qurollantirish, yosh avlodni barkamol inson qilib voyaga yetkazish jarayonini yangi pedagogik tadbirlar bilan ta’minlash zarur, deganidir.

O‘qituvchi-o‘qitish vositalari yordamida o‘quvchi yoki talabalarga, muayyan bir dastur asosida maqsadga yo‘naltirilgan tizimli ta’siri natijasida, ularda jamiyat uchun zarur va oldindan belgilangan ijtimoiy sifatlarni shakllantiruvchi ma’rifiy shaxs. Pedagogik texnologiya shunday pedagogik tadbirki, agar uni pedagogik amaliyotga savodli tadbir qilinsa, XXI asrda davlatimizda ta’lim sohasida tub o‘zgarishlar yuz berib, o‘quvchi faoliyati yangilanadi, uning yordamida talaba yoshlarda bilimga chanqoqlik, bilimlilik, hurfikrlilik, axloqiylik, milliy g‘urur, vatanga muhabbat, baynalmilallik, insonparvarlik tuyg‘ulari pog‘onama-pog‘ona shakllanadi.

O‘qituvchilarning pedagogik texnologiyasi mamlakatimizning ta’lim-tarbiya sohasiga to‘g‘ri joriy qilinishi jamiyat hayotining barcha jabhalarida “portlash effekti”ni berishi aniq, ya’ni:

- jamiyatimiz intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarishda katta ahamiyat kasb etadi;
- jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsning shakllanishiga olib keladi;
- insonni kamolot sari yetaklaydi, hayotda o‘z o‘rnini topish jarayoni tezlashadi;
- fuqarolik jamiyati shakllanishini hamda huquqiy demokratik davlat qurishni ta’minlaydi;
- ijtimoiy – siyosiy iqlimga ijobiy ta’sir etib, mamlakatimizda mavjud ijtimoiy muhit butunlay yaxshi tomonga o‘zgaradi.

Xullas, hozirda pedagoglarning kasbiy mahoratini oshirish, mustaqil ta’lim olishga o‘rgatish, ta’lim jarayoniga ilg‘or pedagogik texnologiyalarni tadbir etish zamon talablari darajasida yetuk mutaxassislar tayyorlash kabi asosiy vazifalar ijrosini ta’minlashni taqozo etmoqda.



INNOVATION TA'LIM TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA FIZIKA FANINI O'QITISH

*Abdumalikova Hamidaxon Sharipovna, o'qituvchi
Farg'ona viloyati Beshariq tumani 1-IDUM*

Annotatsiya: Ushbu maqolada innovatsion ta'lim texnologiyalari yordamida fizika fanini o'qitish masalasi haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: innovatsion ta'lim, fizika, o'quvchi, multimedia, o'yin.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning markazida, o'quvchi shaxsining mustaqil tafakkurlay olishga o'rgatish masalasi turadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar o'quvchilarning darsga bo'lgan munosabati va ilm olishga bo'lgan havasini oshiruvchi muhim turtki bo'ladi, desak xato bo'lmaydi.

Fizika darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish katta ahamiyatga ega. Ayni vaqtda ta'limni tashkil etishda rolli hamda ishbop oyinlardan samarali foydalanishga e'tibor berilmoqda. O'yin chog'ida mahsuldor emas, balki jarayonli faoliyat tashkil etilganligi bois o'quvchilar tasviriy vaziyatlarni yaratish asosida o'zlarini atrof muhitga bo'lgan munosabatlarini tabiiy namoyon eta oladilar. O'quvchining nazariy bilimlarini amaliy ko'nikma va malakalarga aylantirish, ularda ta'limiy faollikni yuzaga keltirish, ularni ijtimoiy munosabatlar jarayoniga keng jalb etishda o'yinlar o'ziga xos o'rin tutadi.

Ko'rgazmalilikni ta'minlash maqsadida taqdimotli texnologiyalarni qo'llashda ko'rish va eshitish imkoniyatlaridan optimal foydalanish zarur. Shuning uchun ham axborotning bir qismini izohlovchi namoyish slaydlariga o'tkazish, axborotning bir qismini esa o'qituvchi bayon qilishi maqsadga muvofiq.

Ta'limda multimedia texnologiyalarining oxirgi yutuqlaridan foydalanish fizika o'qituvchisining mashaqqatli mehnatini yengillashtirib, o'quvchilarning ta'lim olishga bo'lgan qiziqishlprini oshiradi. Natijada ta'limning sifat va samaradorligi yanada ortadi.

Fizika fanini o'qitish jarayonida taqdimotli texnoliyalardan foydalansak quyidagi imkoniyatlar paydo bo'lib dars samaradorligini oshirishda qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi:

- mavzuni tushuntirishga ko'p vaqt ketmaydi;
- ko'proq axborot beriladi ;
- o'quvchi diqqati doskada bo'ladi ;
- hamma o'quvchini nazorat qilish osonlashadi;
- tejalgan vaqt hisobida boshqa axborotni olish imkoni tug'iladi;
- o'quvchilarning fizika faniga bo'lgan qiziqishi ortadi;
- zarur o'rinlarni takrorlash va mustahkamlash imkoni paydo bo'ladi..

Umuman olganda fizika faning maqsadi tahsil oluvchilarning bilimlarini chuqurlashtirish, ularda idrok va zehnni shakllantirishdir. Darslarni o'yin va bellashuv tarzida ham uyushtirilishi mumkin. Unda ikki yoki to'rtta guruh ishtirok etib, bir qator shartlarni bajaradilar.

Shuni ta'kidlash lozimki, ilg'or pedagogik texnologiya asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarni bilimlarini yaxlit o'zlashtirilishiga yordam beradi. O'quvchi tafakkurini o'stiradi, mustaqil fikrlashga o'rgatadi. Zero, barkamol avlod tarbiyasi jamiyat madaniy- ma'rifiy taraqqiyotining, millat ma'naviy kamolotining muhim belgisidir.

Adabiyotlar:

1. Ishmuxammedov R., Abdukodirov A., Pardaev A. Ta'limda innovasion texnologiyalar. – Toshkent: Iste'dod, 2008. – 180 b.
2. Yo'ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. T.: O'qituvchi, 2004.



THE ROLE OF ICT IN TEACHING OF ENGLISH AS A FOREIGN LANGUAGE

*Amanova Kunduz Abdusalomovna,
English teacher, Khatirchi*

The association of ICT and English in last few years had made rapid changes in the presentation of curriculum in various aspects. Life is no static change is the law of nature and every educational organization has to keep pace with changing environment which is beyond human control. Technology has played vital role in revolutionizing our world in many aspects. Nowadays, as usual, we couldn't imagine our life without mass media. It makes our life easier than our ancestors. Computers not only help us in all fields but also our helpmate how to learn any foreign language. In language teaching and learning, we have a lot of opportunity from technology; Radio, TV, CD player, computers, the internet, electronic dictionary, audio cassettes, and etcetera.

Students learn faster and easier than before because of using technology. Internet and software have heralded a new era in many aspects of our lives, to which education is no exception computer based effective teaching offers powerful interesting and new way of providing knowledge to students. Today step by step all university and institute are passing the system of computerizing. Imagine when learning is mixed with technology we can get good results. In every step our lives ,the significance technology is seen and enjoyed.

Among languages English is the one that has attracted many people around the world. It is necessary to learn English because our president is paying more attention to teenagers and their knowledge. As a student we should improve both studying all subjects and technical knowledge. Everyone who wants to learn English easy she or he would better listen to English music and conversation,learn words by heart and read fictional books in English language. A variety of basic language skills can be developed with the help of web-based language learning activities. It is known that ; there are four basic skill in English; listening, speaking, writing and reading. These skills can be put on the web and made interactive in a variety of ways. One of the best way is internet communication implements such as e-mail, blogs and chat. These implements provide integrated environment for teachers and students. Students mostly think irrefutable about web-based learning means when they are;

- well-designed
- easy to learn
- user friendly
- short to remember
- fits nowadays topics.

21st century is an age of technology. The importance of technology in our everyday life is increasing. As all of you know today, technology is what we use to help us teach. As a result if we neglect or ignore technological developments, they will continue and we couldn't catch up with what is going on in the world. For this reason, it is important for language teachers to be aware of the latest and best equipment which help them and their pupil work together. So multimedia technology teaching has uniquely inspired students 'positive thinking and communication among students and between teachers and students. A major feature of multimedia teaching is to improve and develop leaners' ability to listen and speak. During the process of multimedia English teaching, sounds and picture can be set together, which enhances the initiative of both teachers and pupil. We should improve our knowledge because of needing advanced, perfect people for our country.

There are many methods that you can use them computer;

- communication
- exchange of opinion
- multimedia teaching creates a context for language teaching
- tasks, homework and any electronic way you may engage your own students.
- the Direct method
- the Grammar-translation
- The Audio-lingual
- The natural approach
- The silent way



- Communicative language teaching

The direct method

The direct method is also known as the Oral or Natural method. It's based on the active involvement of the student in both speaking and listening to the new language in realistic everyday situations. The process consists of a gradual acquisition of grammatical structure and vocabulary. The learner is encouraged to think in the target language rather than translate. He or she hears and uses the language before seeing it written. The Direct method gives the student the ability to communicate quickly because she is encouraged to be creative during practice. It gives the widest range of capability to understand what another person says to you and developing your capability to speak. This is the methods of choice for instruction with a live trainer and where speaking and listening are most important.

The grammar- translation method.

The method is based on analysis of the written language using translation exercise, reading comprehension and written imitation of text. Learning mainly involves the mastery of grammatical rules and memorization of vocabulary lists. This method requires the learners a lot of time understanding the language structure. Understanding the structure helpful in Reading and particularly in writing. This is the method of choice when the student's goal is to

achieve a high level of writing and reading ability in a foreign language ,versus speaking and listening.

The audio-lingual method.

This self-teaching method is also known as the Aural-Oral method. The learning is based on repetition of dialogues and phrases about everyday situation. These phrases are imitated, repeated, and drilled to make the response reinforcements of what the learner practices. It improves comprehension only if the speaker uses phrases that the learner has studied. This is used when a live trainer is not available.

The natural approach.

- This method emphasized development of basic personal communication skills.
- Learners don't say anything until they are ready to do so.
- Learners should be as relaxed as possible.
- Comprehensible input is essential for acquisition to take place.

The silent way.

- This method begins by using a set of colored wooden rods and verbal commands in order to achieve the following;
- To avoid the use of the vernacular.
- To create simple linguistic situations that remain under the complete control of the teacher.
- To pass on to the learners the responsibility for the utterance of the descriptions of the objects shown or the action performed.

Communicative language teaching .

- There is negotiation of meaning.
- A variety of language skills are involved.
- Material is presented in context.
- It pays attention to registers and styles in terms of situation and participants.

If we use these tools and methods wisely teaching of English Language will become interesting and boost student's motivation, commitment and engagement. In order to prepare students to function in the digital age ,We must ensure that language curriculum incorporates the necessary technological literacy skills.

Bibliography

1. Davi U.K..Ltd.es, B,Dan Ellison, L. (1992).School Development Planning. Essex: Longman Group
2. Victoria L. Tonio, (1999).Modificating teaching through ICT. The American journal



BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA MUSTAQIL FIKRLASHGA O‘RGATUVCHI INNOVATSION MASHQLAR

Axmedova Dilrabo Raxmatovna
Farg‘ona shahar 7-o‘rta ta‘lim
maktabi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
tel: +998 916814420

Annotatsiya: maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda innovatsion mashqlar ahamiyatini yoritish.

Kalit so‘zlar: o‘quvchi shaxsi, fikrlashga o‘rgatuvchi mashqlar, mantiqiy fikrlash, ona tili, savodga o‘rgatish jarayoni.

Boshlang‘ich ta‘limda ona tili fanini o‘qitishning asosiy vazifasi - o‘quvchi shaxsini fikrlashga, o‘zgaralar fikrini anglashga, o‘z fikrini og‘zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga qaratilgan nutqiy kompetensiyani rivojlantirish; o‘quvchilarda grammatikaga oid o‘zlashtiriladigan bilimlarni (fonetika, leksikologiya, so‘zning tarkibi, so‘z yasalishi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublari, stilistikaga oid tushunchalarni) rivojlantirish hamda ona tilining keng imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda to‘g‘ri va ravon bayon eta olishni rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat. Ma‘lumki, boshlang‘ich ta‘lim mazmunini savod o‘rgatish va nutq o‘stirish, amaliy fonetika va grammatika, imlo va nutq o‘stirish kabi bo‘limlar tashkil etadi.

Savodga o‘rgatish jarayoni ikki davrni: alifbegacha tayyorlov va alifbe davriga ajratiladi. Tayyorgarlik va alifbe davrida ta‘lim savodga o‘rgatishning tahlil-tarkib tovush usulida amalga oshiriladi. Bunda o‘quvchilar nutqini yangi so‘zlar hisobiga boyitishga alohida e‘tibor qaratiladi.

Boshlang‘ich sinflarda ona tili ta‘limi o‘quvchilarda nutqiy faoliyatning asosiy turlarini rivojlantirishni ko‘zda tutadi. Shuning uchun Ona tili o‘quv fani mazmunini nutq tovushlari, yozma nutqda tovushlarning ifodalanishi, so‘z turkumlari, ularning o‘zgarishi va gapda so‘zlarning bog‘lanishi, so‘zlarning morfemik tarkibi va so‘z yasalishi, so‘zlarning leksik-semantik guruhleri, imlo qoidalari va tinish belgilarining ishlatilishiga doir bilimlar tashkil etadi.

Boshlang‘ich sinflarda mustaqil fikrlashga o‘rgatuvchi mashqlar bolalarning narsa va atrof-muhit haqidagi bilimlarini tartibga soladi va ularga to‘g‘ri fikrlash usullarini o‘rgatadi. O‘quvchi maktabga kelganda, keng lug‘at boyligiga ega bo‘lsa ham, odatda, tafakkurning taqqoslash, qarshi qo‘yish, umumlashtirish, guruhlash usullaridan foydalanishni bilmaydi (ayniqsa, bilish faoliyatining ob‘ekti aniq predmet emas, uni ifodalovchi so‘zlar bo‘lsa). Mustaqil fikrlashga o‘rgatuvchi mashqlarning vazifasi u yoki bu narsa va hodisalar bilan tanishish asosida bolalarni predmet va hodisalardan muhimini, umumiyini ajratishga, so‘z bilan aniq ifodalashga o‘rgatish, bolalarga mantiqiy usullar tizimini o‘rgatish bilan bilimini material tomondan boyitish va uni aqliy tomondan o‘stirish hisoblanadi.

Mustaqil fikrlashga o‘rgatuvchi mashqlar bolalarning so‘z boyligi va tilining umumiy o‘shishida katta ahamiyatga ega bo‘lib, lug‘at ishi va tilga oid boshqa ishlar bilan bog‘lab olib boriladi. Masalan:

1. Narsalarning mavzuga tegishli guruhini tuzish: ust kiyimlar (*ko‘ylak, kostyum*) va oyoq kiyimlar (*botinka, tufli*); uy hayvonlari va yovvoyi hayvonlar kabi. Bunda bolalar «*Bu nima?*» so‘rog‘iga javob berishga o‘rgatiladi: *Bu n i m a? - Mushuk. Mushuk nima? Uy hayvoni.*

Mazkur mashqni “Toifalash jadvali” usulida ham amala oshirish mumkin:

<i>Uy hayvonlari</i>	<i>Yovvoyi hayvonlar</i>	<i>Parrandalar</i>	<i>Qushlar</i>	<i>Hasharotlar</i>
Sigir	Bo‘ri	O‘rdak	Qaldirg‘och	Chumoli
Ot	Ayiq	G‘oz	Burgut	Ari
Qo‘y	Yo‘lbars	Tovuq	Bulbul	Kapalak

2. Bir turdagi narsalarni sanab krsatish va umumlashtiruvchi bir so‘z bilan nomlash. Masalan, *stol, stul, shkaf* larni bir so‘z bilan qanday nomlash mumkin? (*Mebel*)

3. Berilgan narsalardan bir guruhga kirmaydiganlarini ajratish. Masalan, *qalam, pero, chizg‘ich, o‘chirg‘ich, stul* ko‘rsatiladi, o‘quvchilar o‘quv qurollarini ajratadilar, *stul* o‘quv quroliga kirmasligini, mebel ekanini aytadilar.



Bunday mashq o‘yin tariqasida o‘tkazilishi ham mumkin: ma’lum so‘zlar berilib, ortiqchasini topish va nima uchun ortiqcha ekanini tushuntirish talab etiladi: *qaldirg‘och, chumchuq, mushuk, musicha*.

4. Narsa-buyum nomlari va belgi bildirgan so‘zlarni guruhlariga ajratish. Bunda so‘zlar *choynak, tasha, bolta, piyola, arra, tarelka* kabi aralash beriladi. O‘quvchilar guruhlab, *idishlar nomi: choynak, piyola, ... ; ish qurollari nomi: tasha, bolta, ...* kabi yozadilar. Narsa belgisini bildirgan so‘zlar ham aralash beriladi, bolalar to‘rt guruhga ajratadilar:

- 1-guruh rang -
- 2-guruh maza -
- 3-guruh shakl -
- 4-guruh xususiyat -

5. Qarama-qarshi qo‘yish bilan umumlashtirish: *qaldirg‘och, chumchuq, bulbul* – qushlar, *tovuq, xo‘roz, kurkalar-chi?* (*Parrandalar.*)

Mazkur mashqlar sermazmun bo‘lishi, o‘quvchilarning tajribasi bilan bog‘lanishi, ularni to‘g‘ri fikrlashga o‘rgatishi, bilimlariga aniqlik kiritishi va tartibga solishiga xizmat qilishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinflarda mustaqil fikrlashga o‘rgatuvchi mashqlar bolalarning narsa va atrof-muhit haqidagi bilimlarini tartibga soladi va ularga to‘g‘ri fikrlash usullarini o‘rgatadi. Mustaqil fikrlashga o‘rgatuvchi mashqlar bolalarning so‘z boyligi va tilining umumiy o‘shida katta ahamiyatga ega bo‘lib, lug‘at ishi va tilga oid boshqa ishlar bilan bog‘lab olib borilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Baratov Sh. O‘quvchi shaxsini o‘rganish usullari. Toshkent “O‘qituvchi” nashriyoti 1995.
2. Matchonov S., G‘ulomova X. Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish. Toshkent, “Yangiyul” nashriyoti, 2008.
3. Qosimova K., Matchonov S. Ona tili o‘qitish metodikasi. Toshkent “Noshir” nashriyoti, 2009.



BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINI O‘QISH, ONA TILI VA MATEMATIKA DARSLARIDA IJODIY FIKRLASHGA O‘RGATISH

Ayupova Nodira Astanqulova
Andijon viloyati Buloqboshi tumani
18-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annatsiya: Ushbu maqolamda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘qish darsida ijodiy fikrlash qobiliyatlarini interfaol usullar yordamida fikrlashga o‘rgatish haqida yozilgan.

Kalit so‘zlar: O‘qituvchi, o‘quvchi, interaktiv metodlar, mustaqil, ijodiy, fikr.

Ma’lumki, mustaqil fikrlashga o‘rgatuvchi, ijodiy tafakkurini rivojlantiruvchi usullarni qo‘llab, o‘quvchilarga chuqur bilim berish boshlang‘ich ta’limning asosiy vazifasidir. Mazkur vazifani amalga oshirish uchun yangi pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayoniga olib kirdi. Yangi pedagogik texnologiyalar boshlang‘ich sinf o‘quvchisining aqlan rivojlanishi va kamol topishida muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogik texnologiyalarni bugungi kunda eng ommalashgan turlaridan biri bu interaktiv metodlardir. Interaktiv metodlar o‘quvchi va o‘qituvchining birgalikda faoliyati bo‘lib, o‘quvchilarni ijodiy fikrlashga zarur xulosalarga kelishga, tahlil qilish va olingan bilimlarni amaliyotda qo‘llashga o‘rgatadi. O‘qituvchining asosiy vazifasi esa, o‘quvchilarga aniq yo‘nalish berish, to‘g‘ri xulosalarni aytishdan iborat. Interaktiv metodlar yana shunisi bilan ahamiyatliki, o‘qituvchi o‘quvchining fikrini hech qachon keskin rad etmaydi, faqatgina to‘g‘ri xulosani aytadi, natijada o‘quvchi o‘z xatosini tushunib, fikrlashdan to‘xtamaydi va ular o‘rtasidagi doimiy faollik ta’minlanadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining topqirligini, harflarni eslab qolish qobiliyatini o‘stirishda quyidagi metodlar samarali natijalar beradi:

Kungaboqar metodi.

Kungaboqar rasmi o‘rtasida unli harflar, uning atrofida esa, undosh harflar yozilgan bo‘ladi. O‘quvchilar undosh va bitta unli harfni qo‘shib, bir necha so‘zlar tuzishadi. O‘yin davomida unli harflarni ham almashtirish mumkin.

“Tovush va harf” bo‘limining dastlabki mashqlari ham o‘quvchilarning og‘zaki nutqini shakllantirish uchun berilgan. Yuqoridagi metod orqali darsni mustahkamlash mumkin. Bu usul ona tili darslarini qiziqarli tashkil etish, darslarda o‘quvchilarning toliqib qolishlarining oldini olish va qisqa vaqt davomida ko‘proq o‘quvchilarni baholashga xizmat qiladi.

Boshlang‘ich ta’limda ona tili o‘quvchilarda mantiqiy fikrlash, lug‘at boyligini oshirish, og‘zaki va yozma nutqni rivojlantirish (ya’ni to‘g‘ri o‘qish va yozish) ga, fonetika, leksika, so‘z yasalishi va grammatikaga oid bilimlarni o‘rganish uchun notanish bo‘lgan so‘zni izohi haqida qiziqish paydo bo‘ladi. Bu so‘zlarning izohini topishda o‘quvchining o‘zi mustaqil izlanishi maqsadga muvofiqdir. Bunda quyidagi metod o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish bilan bir qatorda lug‘at bilan ishlashga ham o‘rgatadi. Darslarda interaktiv usullar qo‘llashni shunday tashkil etish kerakki, bunda sinfdagi barcha o‘quvchilar faollashishi zarur, ya’ni dars o‘tish jarayonida o‘quvchilarning materiallarining ma’lum bir qismi o‘quvchilar tomonidan mustaqil o‘rganiladi. O‘qituvchi o‘quv jarayoni tashkilotchisi, rahbari, nazoratchisi hamdir. O‘quvchilarning sinfda o‘zini erkin his qilishi va o‘quv faoliyati uni emotsional jihatdan qoniqtirishi lozim, ana shundagina u o‘zining fikrlarini erkin bayon qila oladi.

Xulosa qilib aytganda, o‘qituvchi bunday texnologiyalarni puxta bilishi, hamda uni amaliyotda o‘rganiladigan til materiallarining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda uni to‘g‘ri qo‘llay olishi lozim. Darsning samarali shakllari qanchalik ko‘p qo‘llansa, o‘quvchilarning ona tili faniga qiziqish darajasi ham shunchalik yuqori bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G‘afforova T., Shodmonova E., Eshturdiyeva T. Ona tili. 1-sif uchun darslik
2. Qosimova K., Fuzailov S., Ne/matova A. Ona tili



BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA KO'RGAZMALILIK VA TARQATMA MATERIALLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Bekmurodova Sanobar Ubaydulloyevna
Buxoro viloyati G'ijduvon tumani
23-umumiy o'rta ta'lim maktabi Boshlang'ich
sinf o'qituvchisi (+99899-074-75-22)
To'xtayeva Gulandom Hoshimovna
Buxoro viloyati G'ijduvon tumani
23-umumiy o'rta ta'lim maktabi Boshlang'ich
sinf o'qituvchisi (+99890-712-94-92)

Annotatsiya: Ona tili darslarida ko'rgazmalilikning ahamiyati va tarqatmali materiallardan foydalanishning o'quvchilarning mavzuni tushunishi va mustahkamlashidagi ahamiyati.

Kalit so'z: Ko'rgazmalilik, tarqatma material, ko'rgazmali metodlar, didaktik prinsip, fikrlash faoliyati, nutqiy muomala, topshiriq, uy vazifasi, mustahkamlash va takrorlash

Kichik yoshdagi o'quvchilarga ona tilini samarali o'rgatish uchun ularni tilni o'rgatishga qiziqtirish, ularning o'quv faoliyatini faollashtirish va aqliy faoliyatlariga maqsadga muvofiq rahbarlik qilish, xususan o'quvchilarga materialni o'zlashtirish usullarini o'rgatish zarur. Ona tili darslarini tashkil etishda o'quvchini fikrlashga, mulohaza yuritishga undovchi, taqqoslash va kuzatishga asoslangan holda xulosa chiqarishga yo'llovchi, tahlilni muayyan izchillikda amalga oshirishni ta'minlovchi topshiriqlar beriladi.

Har bir mavzu bo'yicha beriladigan topshiriqlar sistemasi shunday tuzish kerakki, ular grammatika, imlo va o'quvchilarning bog'lanishli nutqini o'zaro bog'liqlikda, muayyan izchillikda o'rgatishni ta'minlashi kerak. Buning uchun o'qituvchi darslarida ko'rgazmali qurollardan foydalanishi muhimdir.

O'qitishning ko'rgazmali metodlarini qo'llash Ya. A. Komenskiyning "Buyuk didaktika" asarida o'z ifodasini topgan ko'rgazmalilikning didaktik prinsipidan kelib chiqadi. o'quvchilar sezib idrok etishi mumkin bo'lgan narsalarni, albatta, sezgilar vositasi bilan, ya'ni ko'rish mumkin bo'lgan narsalarni ko'z bilan ko'rib, eshitish mumkin bo'lgan narsalarni quloq bilan eshitib, hidi bor narsalarni hidlab ko'rib, ta'mini sezish mumkin bo'lgan narsalarni tatib ko'rib, ushlab sezish mumkin bo'lgan narsalarni bilib olishlari kerak",- deb yozgan edi.

Darslarda ko'rgazma vositalardan, tarqatma materiallar o'quvchilarning fikrlash faoliyatlarini, nutqiy muomalasini oshiradi. Ya'ni o'quvchi chuqur va mustahkam eslab hamda xotirada saqlab qolishi shart bo'lgan narsalar, uning saviyasi, dunyoqarashining bir qismiga aylanadigani - u mustahkam eslab qoladigan obyektidir. O'qituvchi, bir tomondan, ona tili darsligi materiallarni (ham nazariy, ham amaliy materailarni) puxta bilishi, ikkinchi tomondan, shu sinf uchun tuzilgan tarqatma materiallarni ham yaxshi o'rgangan bo'lishi kerak.

Tarqatma materiallarining topshiriqlari xilma-xil bo'lib, ular o'quvchilarning mustaqil ishini uyushtirishda va shu orqali ularda mustaqil fikr yuritish, izlanish, tahlil qilish, xilosalar chiqarish kabi malakalarni hosil qilishda muhim ahamiyatga ega.

Tarqatma materiallar bilan to'g'ri, tizimli, maqsadga mos ishlashni uyushtirgan o'qituvchi mustaqil ishlarni uyushtirish va uni tadrijiy takomillashtirib borish, o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini tekshirish, bo'sh o'zlashtiradigan o'quvchilarni aniqlab, ular bilan yakkama-yakka ishlash, o'quvchilarning mavzular yuzasidan olgan bilimlarini kengaytirish, mustahkamlash, o'quvchilarda mustaqillik, javobgarlik, o'z-o'zini tekshirish, umuman, ularda bilimga, o'qish-o'rganishga, mustaqil ishlashga qiziqish uyg'otish, izlanuvchanlik, topqirlik, ijodiy va ongli yondashish, grammatik qoidalarini, to'g'ri yozuv va to'g'ri talaffuz normalarini o'zlashtirishlariga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qosimova K., Matchonov S. Ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent "Noshir" nashriyoti, 2009
2. Roziqov O., Maxmudov M. Ona tili didaktikasi. Toshkent "Yangi asr avlodi", 2005
3. Internet ma'lumotlari



BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHISI-POYDEVOR YARATUVCHISI

*Bobokalonova Nargiza Urunovna
Samarqand shahar 59- umumta’lim maktab
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi. Tel:979173127*

Annotatsiya: ushbu maqolada boshlang‘ich sinf darslarini samarali tashkil etishda o‘qituvchining roli haqida bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, o‘quvchilar, bilim, pedagogic texnologiya.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ta’lim jarayonida milliy ma’naviy qadriyatlarga asoslangan xolda insoniy fazilatlarini singdirish Boshlang‘ich ta’limda tahsil olayotgan har bir o‘quvchi o‘z ustozini, ota-onasini va uni qurshab turgan muhitdan ma’naviy ozuqa oladi. Ana shular zamirida ularda ma’naviyatga doir bilimlar, ko‘nikmalar, malakalar shakllanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga insonga xos bo‘lgan fazilatlarini singdirishda biz birinchi o‘rinda ma’naviyat nima degan savolga javob berishimiz kerak bo‘ladi. Ma’naviyatning inson tarbiyasidagi o‘rnini yoritish, yoritganda ham butun pedagogik, insoniy maxorat bilan taxlil qilish yosh avlodni hayratlantiradi. Misol uchun bu tushunchaga I. Karimov ta’rif berganidek, Ma’naviyat insonni ruhan poklanish, qalban ulg‘ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e’tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg‘otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir. Anashu ta’riflarga amal qilgan har bir insonda ma’naviy jasorat yuzaga keladi.

Pedagogik texnologiya o‘qitishga o‘ziga xos bo‘lgan yangicha yondashuv (innovatsiya) dan iborat bo‘lib, o‘yin usullarini ta’lim tizimi, dars jarayonida tadbiiq etilishi muhim va samarali natija beradi. Yangi pedagogik texnologiyalarni maxsus maktab ta’limi tizimiga kiritish, tadbiiq etish, qiziqarli usullardan foydalanish o‘zining samarasini bermoqda. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar hozirgi maxsus maktab uchun o‘quv jarayonining zaruriy va asosiy komponentiga aylanib bormoqda. Chunki pedagogik texnologiya o‘qitishga o‘ziga xos yangicha yondashuvdan iborat bo‘lib, uning yangicha, ilg‘or, shu bilan birga samarali usullarini ta’lim tizimiga dars jarayonida tadbiiq etilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘yin o‘quvchilarning tabiiy va sevimli faoliyatidir. Shuning uchun ta’lim tarbiya berish, ularni amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalarini hosil qilishda mashg‘ulotlarni yosh xususiyatlariga muvofiq o‘yin tariqasida uyishtirishga e’tibor berilmoqda. Haqiqatdan ham, bola har qanday mashg‘ulotga qaraganda, o‘yinga tez intiladi va qiziqadi.

Rollarga asoslangan ta’lim usuli sifatida o‘quvchilarni uyushtiradi va bilim imkoniyatlarini kengaytirib, shaxs sifatida shakllantiradi. Rolli o‘yinlar bolaning erkin fikrlashi, suhbatdoshiga nimanidir aytishi, so‘rashi, isbod qilishi, tushuntirishiga imkoniyat yaratadi. Diologdan farqli ravishda, rolli o‘yinlar nimaga (mativ) va nima uchun (maqsad, sabab) kabi savollarga javob beradi. Shunday qilib, o‘yinda qatnashayotgan o‘quvchilarning asosiy diqqatini suhbat mazmuniga qaratadi. O‘quvchilar o‘yin jarayonida suhbatni boshlash, suhbatdoshi nutqini labidan, imo-ishorasidan o‘qish, savollar berish, savollarga javob berish kabi malakalarni egallaydilar.

O‘quvchilar o‘yinni aniq maqsadga yo‘naltirgan holda amalga oshirsa, kutilgan natijaga erishishi mumkin.

Rolli o‘yin o‘quvchilar guruhi tomonidan qiziqib qabul qilingan, ularga tanish bo‘lishi kerak. Oldindan har bir obrazni izohlab berish lozim. O‘quvchi o‘yin jarayonida ikkilamchi darajali rollarda ishtirok etishi mumkin, lekin bosh rolda emas. Chunki bu holda rolli – o‘yin ta’limning an’anaviy usullaridan biriga aylanib qoladi. Muloqotda yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni o‘yin jarayonida emas, balki undan muhokama qilish maqsadga muvofiqdir. Bolalar nutqini rivojlantirish davomida mustaqil fikrlashga, izlanuvchanlikga va umumlashtirishga undovchi usullarni qo‘llash muhim ahamiyatga ega. O‘quvchilarni yangi material bilan tanishtirishda, oldin o‘zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlashda, ularning so‘z boyligini oshirish va tafakkurini rivojlantirishda didaktik o‘yinlardan foydalanish mumkin. O‘quvchilarga individual yondashib, mos topshiriq berish ularning qobiliyatini o‘stirishni ta’minlaydi. O‘quvchilar diqqatini topshiriqning eng muhim va murakkabroq jihatlariga qaratish, ularni belgilariga qiziqishlarini oshirish joiz. Bu ulardagi ijodkorlik xususiyatlarini rivojlantiradi. Ta’kidlash joizki, soddalik, bir xillik, hoxishsiz takrorlashlar bollarni toliqtirib, befarq qilib qo‘yadi.

O‘yin davomida “Kim tez bajaradi?” – deb faolliklarini oshirish ularda qiziqish uyg‘otadi.



Shuningdek, topshiriqlarni bajarishda bolalar go‘lib chiqish, boshqalardan orqada qolmaslik, ularni bajarishga qodir ekanini ko‘rsatish hissi bilan harakat qiladilar.

Quyida shu maqsadga yo‘naltirilgan bir necha usullarni keltirib o‘tamiz.

- O‘quvchilarning og‘zaki nutqini o‘stirish;
- Erkin fikrlashga, yuzma-yuz o‘tirishga imkoniyat yaratish;
- Qo‘l barmoqlarining harakatlanishini rivojlantirish;
- Bir-birini tinglashga va o‘zaro suhbatlashishga o‘rgatish;

Mazmuni: Bu strategiyada rasmlar, ertaklar yoki matnlar bo‘laklarga bo‘linib, o‘quvchilar guruhi tomonidan bir butun ko‘rinishga keltiriladi. Buning uchun o‘quvchilar kichik guruhlariga bo‘linadilar:

Qo‘llanishi: Ona tili fanidan 1-sinf “Alifbo” –mavzusi.

Buning alifbodagi harflar alohida qilib kesib olindi va konvertga solib har bir guruhga beriladi. Guruh qatnashchilari konvert ichidagi harflarni yoyib, so‘ng bir chekkadan tartib bilan yigi‘shlari kerak.

Boshqa guruhlariga nisbatan ishni oldinroq tamomlagan guruhga quyidagi qo‘shimcha vazifalarni berish mumkin.

Qo‘shimcha topshiriqlar:

1. Unli tovishlarni alohida yig‘ing;
2. Undosh tovushlarni alohida yig‘ing;
3. Ismlarni yig‘ishga harakat qiling;
4. Yig‘ilgan so‘zlarni bo‘g‘inga ajrating.

Hamma vazifani bajarib bo‘lgandan so‘ng, guruhlar nima ish bilan shug‘ullanganliklari va nimalarni bilib bo‘lganliklari so‘raladi va umumlashtiriladi.

Bosqichda qo‘llanishi:

Bu strategiya darsni mustahkamlash bosqichida qo‘llaniladi.

Tez yordam usuli.

Maqsad:

- O‘quvchilarni muammoli vaziyatga tushirish;
- O‘zaro muomala qilish malakasini oshirish;
- Ko‘rish, eshitish, tahlil qilish, fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish;
- Ma‘lum bir vaziyatlardan xulosa chiqarishga o‘rgatish;
- Hamkorlikda ishlash ko‘nikmalarini hosil qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Boshlang‘ich ta‘lim o‘qitish metodikasi.T-2009
2. www.ziyonet.uz



ИНФОРМАТИКА ВА АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ ФАНИНИ ЎҚИТИШДА ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ

*Ботиров Дўстқул Ботирович,
Жиззах давлат педагогика институти доценти
(+998911931955, botirov1955@mail.ru)
Маматқулова Умида Эшмирзаевна,
Жиззах давлат педагогика институти катта ўқитувчиси
(+998915923076, xurram_t@mail.ru)
Тангиров Хуррам Эргашевич,
Жиззах давлат педагогика институти катта ўқитувчиси
(+998936502580, xurram_t@mail.ru)
Улугмуродова Лазиза Дўстқуловна,
Жиззах давлат педагогика институти 1-босқич магистранти
(+998911931955, botirov1955@mail.ru)*

Аннотация: ушбу мақолада умумий ўрта таълим мактабларида информатика ва ахборот технологиялари фанини ўқитишда педагогик технологиялардан фойдаланиш, фанни ўқитишда муаммоли вазият ҳосил қилиш орқали мавзунини тушунтириш жиҳатлари келтириб ўтилган.

Калит сўзлар: информатика, ахборот технологиялари, муаммоли вазият, педагогик технологиялар, умумий ўрта таълим.

Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясида “халқ таълими соҳасига замонавий ахборот-коммуникация технологиялари ва инновацион лойиҳаларни жорий этиш” каби бир қатор муҳим вазифалар белгилаб берилган.

Таълимни модернизациялашнинг асосий йўналишларини эътиборга олиб, ишлаб чиқилган давлат стандарти талаблари, нафақат таълимнинг билимли компонентига, балки биринчи навбатда фаолиятли компонентига мўлжалланган, бу ўз навбатида таълим сифатини ошириш, боланинг қобилияти, имкониятлари, эҳтиёжлари ва қизиқишларини юқори даражада амалга ошириш имконини беради. Шунинг учун “Информатика ва ахборот технологиялари” фанини умумтаълимда ўқитишнинг асосий мақсадларидан бири ўқувчиларнинг билиш қизиқишини ривожлантиришдан иборат. Маълумки, ўқувчиларнинг фанга қизиқиши ўқитувчининг бевосита таъсири остида шаклланади ва кўп жиҳатдан, унинг педагогик тажрибасига боғлиқ бўлади. Ўқитувчи ихтиёрида мавжуд бўлган ўқитиш воситалари, шакллари ва усулларини қўллаш фаолият тизимини яратишга имкон беради. Фанни ўрганишда ўқувчиларда асосни шакллантиришда тўғри ташкил этилган билимлар мураккаблик даражасининг оптималлигини яратиш ва уларни турли хил ақлий ижодий амалий топшириқларни бажаришда янги билимларни қидиришга фаол жалб этишга асосланади. У ўз ечимини ўқитувчи томонидан фанни ўрганиш билан боғлиқ бўлган дарс сценариясини ишлаб чиқиш, ўқувчилар учун топшириқларни тузишда, синфдан ташқари тадбирларни ташкил этишда топади. Информатика ва АТ дарсларини моделлаштириш куйидаги тамойилларга асосланади: ҳамкорликда ишлаш, субъектли-субъектив, шахслараро муносабатда ўқитиш. Бу ўқувчиларга уларнинг ёши, индивидуал, психологик хусусиятлар ва ўқув имкониятларини ҳисобга олган ҳолда ёндашиш амалга оширилади.

Е.Л. Бережковская, А.В. Козлин каби психологларнинг ўқитишни ташкил этиш бўйича кўрсатмалари асосида таълим жараёни мазмуни куйидагилардан иборат, агар ўқувчи бирор нарсага эга бўлаётган бўлса, у бу жараённинг 3 та асосий босқичлардан ўтади: кириш босқичи; эга бўлиш босқичи; қўллаш босқичи.

Кириш босқичи. Биз бу босқични “ахборот майдонининг шаклланиши” деб номлаймиз. Бунда ўқувчи янги материал ва билимларни ўрганиш дарсларини ўқийди. Бу ўқувчига ўз тасаввурини шакллантириш, ўз тажрибасига эга бўлиш, ўз образини яратиш имконини беради.

Эга бўлиш босқичи. Амалнинг зарур усулини ўзлаштирган. Бу босқич ўқув билимларини қайта ишлаш деб номланиб, унда амалий ва семинар машғулотлари, умумлаштирувчи



дарслар ўтказилади.

Қўллаш босқичи. Шахсий фаолиятида восита сифатида олинган билимларни “қўллаш”. Ўқув материаллар тўпламини, фанлараро дарсларни, тақдимотлар, ижодий ҳисоботларни тайёрлаш.

Ҳамкорлик педагогикаси асосида бир жараённинг икки субъекти бўлган болалар ва катталарнинг ҳамкорлигини назарда тутати. Улар “ҳамкорлик” - “биргаликдаги меҳнат” сўзидан келиб чиқиб, биргаликда ҳаракат қилишади. Шу сабабли ўқитишнинг ташкил этишнинг янги шакллари ўзлаштирилмоқда - умумгуруҳ ҳамкорлик, турли ёшдаги ҳамкорлик, ўз-ўзини ўқитиш, “ўқувчи ўқитувчи ўрнида”. Ўзини ўқитишни ўрганишни учун, яъни, ўқиш фаолиятига эга бўлиш учун ўқувчи бошқа ўқувчига нисбатан ўқитувчи ўрнида ишлаб кўриши (“бошқаларни ўқитишга ҳаракат қилиши”, “ўзини-ўзи ўқитиши”) керак.

Кўпинча дарсларда муаммоли ҳолатни яратиш усулини қўллаймиз. Шубҳасиз, кўпчилигимизга бу усул универсал усул сифатида қаралади. У шундан иборатки, уни ҳал этишда ўқувчилар олдида бирор муаммо кўйилади, уни ҳал этишда ўқувчи дастурга асосан ўзлаштириши зарур бўлган билим ва кўникмаларга эга бўлади. Аммо, бу ҳар доим ҳам муаммоли ҳосил қилавермайди, деб ўйлаймиз. Ва бу ерда таърифлаётган ҳолатда қандайдир парадоксал вазиятларни қўллаш мумкин.

Мисол учун файллар ва папкалар билан амаллар ўқувчилар учун ҳам, ўқитувчилар учун ҳам мураккаб ҳисобланмайди. Аммо кейинги вақтдаги тажрибалар шуни кўрсатадики, ўқувчилар реал ҳаётда “Файлни қидириш” амалини умуман қўллай олмайди. Ушбу фикрни ўқувчиларни қизиқтириш учун “Сиз файлни йўқотдингизми?!” муаммоли вазият шаклида баён қиламиз ва “Хазинани топиш” ўйинини ўтказамиз. Ҳар ўқувчи ўз компютерида мотали редакторда хазина қайси файлда яширилганлиги ҳақида маълумотли – хат ёзади, шундан сўнг уни ихтиёрий папкага яширади. Файлга олиб борувчи йўлни (айнан шу долзарблаштиришни ҳам информатика курсида учратиш қийин) дафтарга ёзишади. Алоҳида қоғоз вароғида файлни топиш атрибутлари кўрсатилган хат ёзишади. Шундан сўнг ўқувчилар айлана бўйича ҳаракатланиб жойлашади. Қолдирилган хатни ўқиб қидирувчи тизим ёрдамида файлни топиш амалини бажаради. Файлни топган ўқувчилар уни топиш йўлини ёзади, хатни ўқийди.

Худди шундай турли номдаги дарс мавзусида ҳам олдиндан муаммоли ҳолатни яратиш самарали натижа беради. “Ахборот ўлчаш бирликлари” мавзуси ўрнига “Ахборот миқдори қандай ўлчанади”, “Алгоритм тушунчаси” мавзуси ўрнига “Алгоритм нима?”, “Электрон жадваллар” мавзуси ўрнига “Компютерда ҳисоблашни ўрганамиз” ва ҳақозо. Ўрганиш фаолиятини ўзи бошқариш, ўз-ўзини назорат қилиш ҳозирги замон мактаб битирувчисининг муҳим компетенциялари бўлади. Шунинг учун информатика ўқитиш жараёнида ўқитишнинг ҳар бир босқичида мактаб ўқувчиларининг мустақил ўрганиш фаолияти жараёнини бошқаришга ёрдам берувчи ўқувчиларнинг билимларини назорат қилишга муҳим эътибор қаратиш лозим.

Адабиётлар:

1. Botirovich, B.D., Ergashevich, T.K., Eshmirzayevna, M.U., Kholboyevich, A.S., Fayzullayevna, K.N., & Mukhiddinova, A.U. (2020). The importance of teaching algorithms and programming languages in the creation of electronic education resources. *Journal of Critical Reviews*, 7(11), 365-368.

2. Зиятдинова Т.Л. Современные технологии в преподавании информатики // Эксперимент и инновации в школе. 2011/2. – С. 31-35.

3. Тангиров Х. Э., Маматкулова У. Э. Принципы комплексного использования электронных средств учебного назначения по математике // Педагогическое мастерство. – 2017. – С. 137-139.

4. Тангиров Х.Э., Маматкулова У.Э. Использование электронных образовательных ресурсов в индивидуализации учебного процессе // «Инновационные подходы в современной науке» сб. материалам междунар. науч.-практ. конф. – № 24 (60). – М., Изд. «Интернаука», 2019. – С. 72-76 с.

5. Tangirov H.E., Mamatkulova U.E., Bazarboeva Ch.A., Egamkulov Sh.A. The use of electronic educational resources in teaching algebra in secondary schools // *Young scientist. Monthly scientific journal*. - Russia, Chita: - 2018. - No. 6 (192). -198-201-p.



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARNI DARS JARAYONIDA KREATIV FIKRLASHINI OSHIRISH

Elova Shahnoza Bahodirovna
Buxoro viloyati Peshko' tumani 34-umumiy
o'rta ta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi
Telefon:+998(91)4155735

Annotatsiya: Ushbu yozgan maqolamda boshlang'ich sinf oquvchilarining dars jarayonida kreativ fikrlashini oshirishda qo'llanidagan muammoli savollar hamda dars jarayonida qo'llanidagina interfaol usullarning qo'llanilishi haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: kreativ, ijodiy, shaxs, talim, tarbiya, barkamol inson, voqea-hodisalar, muloqot.

Respublikamizda "Uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish yo'lini davom ettirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlarni tayyorlash" shu bilan birgalikda boshlang'ich ta'lim sifatini tubdan oshirish, bolalarni kichikligidan oq

kitob o'qishga qiziqtirish masalasi yuzasidan keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Hozirgi kun ta'lim tizimining bosh va asosiy maqsadi ham ijodiy fikrlaydigan va yuksak darajadagi fikr yurituvchi shaxsni tarbiyalash va tayyorlashdan iborat.

Bugungi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy tasavvurlarini rivojlantirishning asosiy maqsadi – yosh avlodni har tomonlama yetuk, jamiyatimiz taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan barkamol insonlar etib shakllantirishdir. Ijtimoiy faollik, ijodkorlik barkamol shaxs tarbiyasining tarkibiy qismi hisoblanadi. Barkamol inson o'zida ma'naviy va jismoniy yetuklikni mujassam etadi. Maktab esa, o'quvchilarni ijtimoiy hayotga yo'naltiruvchi sahna vazifasini o'taydi. Chunki har bir ezgulik, yaxshilik, diyonat va mehribonlikning boshlanish nuqtasi maktabdir. O'quvchilarning ijodiy tasavvurlarini rivojlantirish uchun birinchi galda xalq og'zaki ijodi, xalq ertaklari, hikoyalar, afsonalar, bolalar ensiklopediyasi hamda xalq rassomlarining asarlari, tasviriy ifodani aks ettiruvchi bolalar kitoblari asosiy o'rin tutadi.

Ta'limda kreativlik - bugungi zamon talab qilayotgan ta'limdir. Biz ta'lim va tarbiya berayotgan yosh avlod hayot ostonasida qoqilmay, uchragan muammolarni o'zi mustaqil hal qila oladigan, zamonaviy texnika vositalaridan hech ikkilanmay bimalol foydalana oladigan, kishilar bilan muloqotga qiynalmay, tortinmay kirishadigan, erkin va ijodiy fikrlaydigan, shaxs sifatida jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lgan komil insonlar bo'lib kamol topishi zarur. Bugungi ta'lim sohasida bo'layotgan islohotlar ana shunday dolzarb vazifalarni hal qilishga qaratilganligi bejiz emas, albatta.

Har bir fanning xususiyatidan kelib chiqib, darsda o'quvchilarning ijodiy fikrlashga o'rgatib borish muhim o'rin tutadi. Erkin va ijodiy fikrlash kishining muloqotga kirishishida, o'z fikrini erkin bayon qilishida, o'zganing fikrini to'ldirib, qo'shimchalar qila olishida, voqelikni idrok etib o'z qarashlarini ifoda eta olishida namoyon bo'ladi. Lekin ko'pchilik o'quvchilar o'zlari o'qigan, ko'rgan, eshitgan voqealarini o'zgalarga gapirib berish tugul, bu voqealarga ijodiy, erkin va mustaqil fikr bildira olmaydilar.

O'quvchilarda ijodiy mustaqil fikrlashni shakllantirishda darslarda ko'proq suhbat, muloqot qilish, "Voqeaga sizning fikringiz qanday?", "Siz shunday vaziyatda qanday yo'l tutar edingiz?", "Siz qahramonning tutgan ishini qanday baholaysiz?", "Bu paytda nima bo'lgan bo'lishi mumkin?", "Nega qahramon shunday yo'l tutdi deb o'ylaysiz?" kabi shunga o'xshash savollar bilan o'quvchilarni baxs-munozaraga jalb etish juda muhim.

Bitta dars misolida ko'rib chiqadigan bo'lsak; navbatchi axborot topshirishi shu kundagi voqea-hodisalar, vaziyatni to'liq ochib berishi bilan belgilanadi. Agar o'qituvchi juftlikda yoki guruhda bajariladigan topshiriqlar bersa, o'quvchi o'zining to'g'ri deb bilgan fikrini o'z sherigiga yoki guruhidagi boshqa o'quvchilarga yetkaza bilishi ham muloqot orqali namoyon bo'ladi. Agarda guruhlar taqdim etgan taqdimotlar ichidan eng ma'qulini tanlash kerak bo'lsa, har bir guruh o'z qarashlarini boshqa guruhlariga ta'riflab berish orqali bir – birlari bilan muloqot qiladilar. Tortishib, o'zlarining tayyorlagan ishlarini ma'qullaydilar yoki boshqa guruhlarining ishlariga o'z munosabatlarini bildiradi lar. Agar o'qish darsi bo'lsa, matnni rollargabo'lib o'qish orqali o'quvchilarga qahramonlarga o'z munosabatlarini bildirish ko'nikmalarini shakllanadi. Voqealar



ketma-ketligini izchil bayon qiladilar. Har bir o'quvchining fikrini to'la eshitish, fikrlarning eng ma'qulini namuna qilib ko'rsatish o'qituvchining mahoratiga bog'liq. Bu orqali o'quvchilar voqeani adekvat baholay olishni o'rganadilar, o'z fikrlarini erkin bildira olish ko'nikmalari shakllanadi. Erkin bildirilgan fikr qanday bo'lmasin o'qituvchi uni oxirigacha eshitishi va boshqa o'quvchilarni ham bu fikrni eshitishlari va o'z munosabatlarini bildirishlariga jalb qilishi juda katta ahamiyat kasb etadi. Chunki boshqalar fikrini tinglashga o'rgatish o'qituvchidan e'tibor va mas'uliyat talab etadi. Boshqalar fikrini tinglagan o'quvchi voqeani to'la idrok etadi, o'z munosabatini bildiradi va eng muhimi, boshqaning fikrini takrorlamaydi. Bu bilan to'g'ri va noto'g'ri fikrlarni barini qabul qilish degani emas. Noto'g'ri fikr bildirgan o'quvchining fikrini to'g'ri emasligini tushuntira bilish, uni to'g'ri fikrlashga yo'naltirish eng muhimidir.

Masalan: 3-sinf o'qish darsligidagi "Qizcha va qarg'alar" hikoyasini olaylik.

Hikoya asosida o'quvchilarning ijodiy fikrlashini oshirish uchun ularga muammoli savol beriladi 1) Nima uchun qarg'alar yong'oqni dalaga emas qizchanning hovlisiga olib keldi?

2) Nima uchun yong'oqqa "Qaysar meva" deb ta'rif berilgan??

3) Yong'oqning foydali tomonlarini ayting. Uning mag'zi nimaga o'xshaydi?

O'quvchilar o'z fikrlari yuzasidan bir-birlari bilan bahsga kirishib ketdilar.

Guruhlarda islash uchun topshiriqlar berilganida o'quvchilar o'z fikrlarini o'rtoqlariga yetkazishga harakat qiladilar. Hamkorlikda ishlash jarayonida bir birlarining fikrlarini eshitadilar va to'ldiradilar, eng maqbulini ajratishga erishadilar. Fikrni bayon qilish natijasida nutq malakalari shakllanadi, ko'pchilik oldida fikr bildirishga, o'z munosabatlarini bildirishga o'rganadilar. Voqeani turli usullarda erkin va mustaqil bayon qilish imkoni tug'iladi. So'z boyliklari sayqallashadi.

Insonning tafakkuri qanchalik mustaqil bo'lsa, u shunchalik tashabbuskor bo'ladi. Odamning fikrlashi qancha erkin bo'lsa, u shuncha izlanuvchan, ijodkor bo'ladi. Shakllanib kelayotgan yosh avlodning ruhiy, aqliy, jismoniy imkoniyatlariga qarab ish tutilsa, bolada o'z xatti-harakati uchun javobgarlik hissi paydo bo'ladi. U o'z fikri, qarashiga ega bo'ladi. Fikr kishisi hamisha o'z qarashlarini asoslaydi, kerak bo'lganda himoya qiladi. Shuning uchun yurtimizda mustaqil, ijodiy fikrlovchi shaxslardan iborat barkamol avlod tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xalq ta'limi jurnali 2018-y 3-son T 55-bet
2. O'qish kitobi 3-sinf "O'qituvchi" nashriyoti T-2019 y 34-b
3. www.google.uz qidiruv tizimi



FARZAND TARBIYASIDA O‘YINCHOQNING EMAS, O‘TANING O‘RNI

*Esanova Dilafro‘z Abdusalomovna
Qashqadaryo viloyati Shahrizabz tumani
4-maktabni amaliyotchi psixologi*

Annotatsiya :Quyidagi havola etmoqchi bo‘lgan farzand tarbiyasida o‘yinchoqning emas, o‘taning o‘rni mavzusidagi tezisda biz pedagogika va psixologiya amaliy treninglarda foydalanish mumkin. Ushbu dolzarb mavzu ota-onalarga o‘rnak vazifasini o‘taydi deb o‘ylayman.

Kalit so‘zlar: Farzand, o‘yinchoq, ota-ona, borliq, ruhiyat.

Ma‘lumki oilada ota –onaning o‘rni nechog‘lik beqiyosdir. Shunday ekan har bir oilani mustahkam bo‘lishi farzandlarining tarbiyasi ekanligiga bog‘liq. Shundan kelib chiqqan holda oilada farzand tarbiyasida o‘yinchoqlarning emas ota –onalarning o‘rni nechog‘lik beqiyos sanaladi deb o‘ylayman. Chunki aksariyat oilalarda ota –onalarning farzandlar tarbiyasiga yuzaga keladigan muammolarning ko‘pchiligida farzandlarini tarbiyasida kerakli vaqtni ajrata olmaslik kunning 90% ish bilan mashg‘ul bo‘lish tarbiyadan ko‘ra o‘yinchoq yoki boshqa ishlarga jalb qilib qo‘yish natijasida kelajakda noqobil farzandlar voyaga yetmoqda. Shu muammolarni oldini olish va bartaraf etish maqsadida ushbu loyihani amalga oshirish choralarini ko‘rib chiqish va keng jamoatchilik o‘rtasida muhokama qilish mumkin deb o‘ylayman . Farzand bu ulug‘ nemat . Ona qornida nishona bergan kundan boshlab farzandimizga yaxshi orzu niyatlar qilamiz . Misol uchun uni qiz yoki o‘g‘illigiga qiziqamiz , sog‘lom bo‘lib tug‘ilishini xohlaymiz , maktabda yaxshi o‘qishini , kelajakda yaxshi inson bo‘lib shakllanishini istaymiz .

Xo‘sh u tug‘ilgandan keyin unga kerakli vaqt ajratyabmizmi ?Afsuski yo‘q .

Chunki 1-3 yoshlarda oldiga to u yurib mustaqil bo‘lib olguncha oldiga bo‘larmiz lekin undan keyinchi ?Ayrim ota- onalar har doim ham farzandini oldiga bo‘lishni uni eshitishni uni uy hayollari bilan yashashni , yoki bo‘lmasa o‘z ishlarini onalarimiz uy-ro‘zg‘or yumushlarini ustun quyishar farzandimga kelajakda hamma qo‘layliklarni yaratib qo‘yibman o‘zi xoxlagan barcha o‘yinchoqlar olib berganman , nima bo‘lsa muhayyo qilganman deyishadiyu ammo farzandiga kerakli vaqtni ajrata olishmaydi .

Ammo farzandlarimiz bundan mustasno kun bo‘yi ota –onasini kutib yashaydi qandaydir chizgan rasmini yasagan narsasini ota-onasiga ko‘rsatishni xoxlaydi lekin ota –onalar farzandlariga etibor berishmaydi . Ishlari ko‘pligini bahona qilishadi.

Ish tajribamda o‘quvchilar bilan trening mashg‘ulotlari suhbatlar o‘tkazganimda shuni guvohi bo‘ldim .

Bir o‘quvchimni hatti harakatlari meni jalb qildi u o‘zini juda ham yolg‘iz his qilar o‘rtoqlaridan qandaydir tortinar va ishonchsizlikka tushgandi .Bir kuni men o‘yinchoqlarni oldimda o‘quvchilarimga tarqatib chiqib sizlar har biringiz agar iloji bo‘lsa qaysi o‘yinchoq hayvon bo‘lib qolishni xoxlar ediz deb savol berdim o‘quvchilarim shunda birma bir javob berishni boshlashdi . Men quyoncha bo‘lishni xoxlayman , men oqqush bo‘lishni xoxlayman men ot bo‘lishni xoxlayman , men kenguru bo‘lishni xoxlayman deb birma bir o‘quvchilar javob berdi. O‘rtaroqda o‘tirgan Akromjondan so‘raganimda men yirtqich bo‘ri bo‘lishni xoxlayman deb javob berdi nima uchunligini so‘radim u bulsa faqat yirtqichligi uchun boshqalar undan qo‘rqishi uchun , hammani etiborida bo‘lish uchun deb javob berdi .Ko‘rdizmi ana shunday qo‘rqoqgina boshqalarga qo‘shilmaydigan bola qalbida qanday yomon niyatlarni saqlab yuribdi . Men ham bu o‘quvchimga qiziqib uni oldimga chaqarib Akromjon men senga ishonaman sening kelajaging porloq sen kelajakda vatan himoyachisi bo‘lasan deb ishonch bildirdim .Shunda Akromjon ko‘zlarida yosh bilan yig‘lab yubordi ,bu ko‘zyoshlarni sababini so‘radim ,shunda u ota –onasi uni barcha narsalar kiyim bosht, o‘yinchoqlar xullas barcha kerakli narsalar bilan taminlab qo‘ygan lekin, o‘z yakkayu yakka o‘g‘illariga vaqt ajratishmas ekan . Ustoz ota –onam meni eshitishsa menga ozgina bo‘lsa ham vaqt ajratishsa men bilan olib bergan o‘yinchoqlarini o‘ynashsa deb o‘kinch bilan so‘zlardi .Akromjonni ota-onasini qanday insonlar ekanligiga qiziqib xonadonlariga bordim ular bilan suhbatlashdim ota-onalariga sizni farzandingiz juda yaxshi a‘lo baholarga o‘qimoqda ota -onam meni boru -yug‘im menga doim vaqt ajratishadi men bilan olib bergan o‘yinchoqlarini dadam bilan mazza qilib uynaymiz xatto kelajakda dadajonim meni zo‘r uchuvchi bo‘lishimni xoxlaydilar deb takidlaydi Akromjon dedim shunda o‘z farzandlariga vaqt ajratolmagan ota –ona yuzlariga qizar-



ish bilan farzandlarini chaqirib bag‘riga bosgancha men senga ishonaman sening kelajging porloq albatta uylagan orzu niyatlariga erishasan deb takidladilar . Mazkur oila bilan olib borilgan suhbatlar yakunida ota- ona sifatida farzandiga vaqt ajratish , vaqtida va o‘rnida mehr ko‘rsatish , bolaning har bir harakati , ruhiyatidagi o‘zgarishlarni etiborga olish lozimligini takidladim.

Kundan kunga Akromjon yaxshi tarafga o‘zgarayotganini payqadim o‘rtoqlari bilan yaxshi munosabatga kirishadigan tortinish jahldorlik hissi kamayotganini payqadim. Keyin suhbatlashib ko‘rsam ota-onasi unga vaqt ajratayotganini ularni juda ham yashi ko‘rishini ta’kidladi. Avvalo oilada ota-ona birinchi ustozdir .Bola ota –onadan ibrat oladi ,ulg‘ayadi . Biror narsa tayyorlayotgan paytiz ozroq etiborsiz bo‘lsangiz yaxshi chiqmasa uni yana boshqa safar yaxshiroq qilishga harakat qilasiz Tarbiyasiz qurs bo‘lib o‘sgan bola ota-onasini hurmatini yuqotadi ,hamda boshqalarga ham etiborsiz bo‘lib voyaga yetadi. Men farzandimni barcha narsalar bilan taminlab qo‘yibman men yaxshi ota-onaman deb o‘zizni oqlamang chunki bolangiz o‘yinchoq uynash yoki bo‘lmasa yaxshi kiyim kiyish bilan yaxshi inson bo‘lib shakllanmaydi balki u sizdan ozginagina vaqtini ajratishingizni s‘oraydi .

Har bir farzand ota –onasidan men seni yaxshi ko‘raman ,men seni eshitaman , sening tanloving yaxshi kel shu haqda suhbatlashaylik , sen kelajakda o‘zing xoxlagan kasb egasi bo‘lasan degan so‘zlarni eshitishni xoxlar ekan . Keling ota-onalar o‘z farzandlarimizga keraklicha vaqt ajrataylik ularni tushinishga bergan savollariga to‘g‘ri javob berishga harakat qilib ko‘raylik .

Meyoridan ortiq qatiqqo‘lik ham bolani ruhiy muvozanatini buzadi .Lekin keragidan ortiq muloyimlik ham oilad bola tarbiyasida salbiy burilish yasashi mumkin . Shunday ekan biz ota- ona sifatida o‘ta qatiqqo‘lik ham ,o‘ta muloyimlik ham qilmasligimiz lozim aks holda yo farzandingiz o‘ta qo‘rqoq yoki bo‘lmasa o‘ta erkatoiy bo‘lib voyaga yetadi. Hamma narsani bir chetga surib quyib bolamizga vaqt ajratishimiz ularni qo‘llab quvvatlovchi so‘zlar aytishimiz kerak vaqtda suhbatlashish, dardlashish , kerak vaqtda olib bergan uyinchog‘imiz bilan uyin uynashimiz mumkin. Muhimi ana shunday fursatlardan foydalanib qolish , hech qachon ana shunday davrlar qaytib kelmasligini farrzandimiz doim yosh bola bo‘lib qolmasligini umr o‘tkinchiligini unitmasligimiz lozim aziz ota – onalar. Farzandlariga borlig‘ini , bilimini bag‘ishlagan ota- onalarga ofarinlar bo‘lsin! !



THE IMPORTANCE OF DIRECT METHOD IN TEACHING ENGLISH AS A FOREIGN LANGUAGE

*Hamidova Gulruksor Amrilloeyvna
Zarafshan 13 English teacher*

On December 10.2012 President of the Republic of Uzbekistan Islam Karimov signed a decree “On measures to further improve foreign language learning system”. According to this resolution, our government is paying more attention to teach foreign languages, especially the English language to youth. The great aim is to develop youth’s knowledge, capability, and power to be able to contend with other countries in learning languages.

Therefore, the English language is being taught from nursery schools to higher education. It means that every child, teenager, student should be able to speak, communicate in the English language. Thus, in communication, a range of fluency of the language deals with great many ways in language sphere. Mostly, these characteristics of features of language are up to the subject methodology, which we are studying now. As we can guess methodology of teaching English is such kind of subject in which we could observe and gain all well-broaden methods, styles of learning the second language and teaching them to our students at school. Nowadays most learners are facing with difficulties in learning the language. The main problems related with their learning can be a lack of vocabulary, not to be fluency in speaking, not to be skillful in skimming reading tasks and not to be able to write a good essay. To solve these methodological problems and to get students learn English with ways that are more effective in learning. According to this subject, we can divide skills into parts such as writing, reading, speaking and listening. The article has its own rules and methods that we can develop them with our ideas.. Clearly, there are traditional and non-traditional ways of teaching the English language. We can mention that knowledgeable teachers are using both traditional and non-traditional ways to achieve their main target. Moreover, the methods of teaching the language such as grammar translation, direct method, total physical response, suggest topic, audio-lingual and audio-visual methods are being considered to be the best helpers to the teachers in communicating with learners. Each method has its own aim, principles and of course expected effects. And all these methods coincide with one another that it will be more effective if teachers use them step by step in their procedure. The direct method is considered to be the one of the effective ways of teaching the language. First of all, let us have general idea about this method. It came out as a reaction to the grammar translation method and its failure to produce learners who could use the foreign language and therefore happened to be in the past. While the new methods are concerned with the spoken language, the former methods are concerned with the grammatical structures in general. Since the importance of spoken language has been understood, traditional concepts of teaching grammar are not applied any more. Lessons begin with dialogues and anecdotes in modern conversational style. Actions and pictures are used to make meanings clear. Grammar is learned inductively. Literary texts are read for pleasure and are not analyzed grammatically. The target culture is also taught in inductively.

In Direct Method, chunks of language are taught in the target language. If you have a superb teacher who can use the method in its real spirit, the method can be useful and students can learn. However to many learners, especially older ones, the excessive pre-occupation with pronunciation and intonation, the time often spend in getting a meaning across, and the tension caused by the exclusive use of a target language were frustrating.

The Direct Method is the only feasible approach in countries like the United States, Great Britain and Israel, where the learners come from numerous linguistic backgrounds. It’s clear that, there are many characteristic features of the direct method are:

- * teaching concepts and vocabulary through pantomiming, real-life objects and other visual materials;
- * teaching grammar by using an inductive approach (i.e. having learners find out rules through the presentation of adequate linguistic forms in the target language);
- * centrality of spoken language (including a native-like pronunciation);
- * focus on question-answer patterns;
- * lessons are in the target language;



- * there is a focus on everyday vocabulary;
- * visual aids are used to teach vocabulary;
- * particular attention is placed on the accuracy of pronunciation and grammar;
- * a systematic approach is developed for comprehension and oral expression.

The direct method of teaching, which is sometimes called the natural method, and is often used in teaching foreign languages, refrains from using the learners' native language and uses only the target language. In the use of the Direct Method in language teaching, the teachers are to undertake a great effort since they are not allowed to talk mother tongue. They are to find meaningful teaching materials to study along with the texts in the book. They try to make the students understand the general rules and structures through the stretches of the target language studied in classroom. Such an effort fits the

inductive spirit of the Direct Method. A native teacher or one who has proficiency like a native teacher can better carry out the role of the teacher along with the Direct Method. The teacher and the students are more like partners in the teaching process. Teacher-student interaction became fuller, guessing of context or content, completing fill-ins, and doing "cloze" exercises were the order of the day. The teacher is as the facilitator of the language and the students is the active learners who are active in learning and exploring the target language.

Bibliography:

1. I. A. Karimov "On measures for further improvement of the system of studying foreign language" , -"Ma'rifat" T.2012
2. Freeman, Diane L. Techniques And Principles In Language Teaching. Oxford University Press, 1986.
3. Graff, W. (1985). Language and Learning Principles. . Longmans Green and Co LTD. London, UK.



МАКТАБ О‘QUVCHILARINI XALQARO TADQIQOTLARGA TAYYORLASH. ULARDA MOTIVATSIYANI SHAKLLANTIRISH

Ilyosova Nigora Fayzullayevna
Buxoro viloyati Peshko‘ tumani 34-umumiy
o‘rta ta‘lim maktabi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
Telefon:+998(91)6483576

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta‘limda o‘quvchilarni xalqaro tadqiqotlarga tayyorlash, ularda kreativ fikrlash va motivatsiyani shallantirish uchun o‘qutuvchilarning vazifasi, O‘quvchilarning ta‘lim jarayoniga qiziqishini shakllantirish, ularning qiziqishlarini oshirishda buyuk mutaffakirlarning fikrlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Harakatlar strategiyasi, xalqaro tadqiqot, innovatsiya, motavatsiya, fokusirovka, kreativ

Mamlakatimiz innovatsion taraqqiyot yo‘lida shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda kelajagimiz davomchilari bo‘lgan yoshlarni ijodiy g‘oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning bilim, ko‘nikma va malakalarini davlat ta‘lim standartlari asosida shakllantirish hamda ilg‘or xorijiy tajribalar, xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish muhim ahamiyatga egadir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risidagi” PF-4947-sonli farmoni bilan tasdiqlangan “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” doirasida O‘zbekistonda ta‘lim sifatini baholashda yangicha monitoring tizimini xalqaro baholash dasturlari yordamida aniqlash va qiyoslashga asoslangan tizim shakllantirilmoqda. Ta‘lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tajribalarni o‘rganish, mavjud tizimni har tomonlama qiyosiy tahlil qilish, tegishli yo‘nalishlardagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, agentliklar, ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish, ta‘lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro loyihalarni amalga oshirish, zamon talablariga javob beradigan munosib milliy baholash tizimini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. O‘z navbatida, “Ta‘lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi” ga ta‘lim tizimida o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini rivojlantirishning innovatsion metodlarini ishlab chiqish hamda joriy etishga yo‘naltirilgan ilmiy izlanishlar olib borish, ta‘lim sifatini baholash sohasida xalqaro aloqalarni o‘rnatish, xalqaro loyihalarni ishlab chiqish, amalga oshirish kabi vazifalar yuklatildi.

Ta‘limda o‘quvchilarni xalqaro tadqiqotlarga tayyorlash uchun avvalo ularda kreativ fikrlash va motivatsiyani shallantirish lozim. Ularni ta‘lim olish jarayonida zeriktirmaslik uchun o‘rganiladigan fanlarni almashtirib turish kerak. O‘quvchi fandan fanga o‘tib tursa, turli bog‘larda yurganga o‘xshaydi. Birini ko‘rib ulgurmay, boshqasi boshlanadi va u “Har bir narsada o‘ziga yarasha lazzat bor” deyilganidek, ularga qiziqadi va o‘qishni istaydi. Bir xil narsaning bayoni bolani charchatadi va xotirasida hech nimani saqlay olmaydi.

Abu Rayhon Beruniy ilm olishda takrorlashga zo‘r berib, yosh o‘quvchilarni toliqtirib va zeriktirib qo‘ymasdan, turli psixologik usullarni qo‘llashni, shu orqali ularning tafakkurini boyitib, bilimlarini chuqurlashtira borishni ilgari surgan buyuk olimdir. Ya‘ni o‘qishga nisbatan bo‘lgan qiziqishni so‘ndirmaslik uchun bolalarning yoshiga xos psixologik xususiyatlar albatta inobatga olinishi kerakligini e‘tirof etadi.

Abu Ali ibn Sino “Tadbir ul manozil” asarining maxsus bo‘limida bolani maktabga jalb qilish haqida to‘xtalgan. Asarda u bola jamoada bolalar bilan o‘qisa, zerikmaydi, ularda fanni egallashga qiziqish yuzaga keladi, bir-biridan qolmaslik uchun harakat, musobaqalashish istagi rivojlanadi, deydi. O‘qitish bolaning mayl va qobiliyatini hisobga olgan holda olib borilishini ta‘kidlaydi. O‘qituvchi bolalarga ta‘lim berishga kirishishdan oldin, o‘quvchining xulq-atvorini o‘rganishi va bilimlarini tekshirib ko‘rish kerak bo‘ladi. Avvalo, u o‘quvchining nimaga e‘tibor berishini tekshirib ko‘rish lozimligini uqtiradi.

Komenskiy o‘z asarlarida o‘quvchilardagi o‘qishga qiziqishni ularning bilimni o‘zlashtirishlari uchun zaruriy shart hisoblanishini ta‘kidlaydi. U barcha vositalar bilan o‘quvchilarda bilim olish ishtiyoqini uyg‘otishni taklif etadi va shu masala yuzasidan ko‘rsatmalar beradi: o‘quvchilarga



o'rganilayotgan materiallarning ahamiyatini, egallagan bilimlarning mohiyatini tushuntirish lozim, ularni rag'batlantirish, mashg'ulotning qiziqarli bo'lishiga harakat qilishi lozim.

Barcha narsalar bolalarning yosh xususiyatiga mos bo'lishi lozim. Shuni nazarda tutish lozimki, bola tabiati quvnoqlik, hazilkashlik, sho'xlikka moyil bo'lib, jiddiylik va rahmsizlikni xush ko'rmaydi. Demak, turmushda qachondir zarur bo'ladigan jiddiy narsalarni o'rganishi, shunda ham oson va mamnuniyat bilan o'rganishi uchun foydali narsalarni qiziqarli shaklda bayon yetish, shu yo'l bilan bola aqlini biz istagan tomonga qaratish lozim.

O'qituvchining asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarning ichki ta'lim motivatsiyalarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi muhim ahamiyatga ega.

Ta'lim mazmuniga hamda bilim olish jarayoniga nisbatan bo'lgan qiziqishlarni o'quvchilarda shakllantirishda ularning bilim olish jarayonida mustaqillik, tashabbuskorlik va ijodkorlikni namoyon etishlariga ahamiyat qaratiladi. Ta'lim metodlari qanchalik faol bo'lsa, o'quvchida bilim olishga bo'lgan qiziqish shunchalik ortib boradi. O'quvchilarda bilim olishga bo'lgan mustahkam va ishonchli qiziqishni shakllantirishning asosiy vositasi - o'quvchilarga beriladigan savol va topshiriqlar mazmuni, murakkablik va qiziqarlilik darajasi bilan belgilanadi. Savol tug'iladi. Nima uchun o'quvchilarda, aynan kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda atrofda real voqe'liklar, hodisa va predmetlardan ko'ra to'qima obrazlar, xayoliy voqealar, mavhum tushunchalar ko'proq qiziqish uyg'otadi? Buning asosiy sababi shundaki, ular real voqea-hodisa va predmetlarning asl mohiyatiga tushunmaydi. Ularni bolalar o'z ongida to'liq aks ettira olmaydi. Bolalar uchun ma'lum hayotiy qonuniyatlarga bo'ysunmaydigan, o'zlari tomonidan yoki ular uchun to'qib chiqarilgan voqea-hodisalar ko'proq tushunarli. Bu esa ularda qiziqishning paydo bo'lishiga olib keladi. Masalan, ertaklarda mavjud "Yalmog'iz kampir" obrazini ular istalgan darajada vahshiy ko'rinishda tasavvur qilishlari mumkin. Ular uchun insonning fiziologik-genetik rivojlanish qonuniyatiga bo'ysunishi umuman yot narsa. Bundan tashqari qachonki o'quvchi ma'lum bir savol va topshiriqni mustaqil izlanish, aktiv faoliyat bilan amalga oshirsa va to'g'ri yechimni topa olsa, ana shundagina bolada bilim olishga bo'lgan chinakam qiziqish shakllanadi.

Bundan tashkari, an'anaviy ta'limda darslarni tashkil etish davomida "fokusirovka" ya'ni, o'quvchilar diqqatini to'plash, da'vat bosqichi ham o'quvchilarni darslarga qiziqtirishda muhim ahamiyatga ega.

O'quvchilarning ta'lim jarayoniga qiziqishini shakllantirishning yana bir yo'li bolada maqsadlar, havas, shaxsni ijtimoiy hayotda o'z munosib o'rnini topishga bo'lgan qiziqishning tayyor "shakl"laridan foydalangan holda amalga oshirish hisoblanadi. Bunda o'quvchining bilim olish jarayonida ta'lim materiallari mazmunidan kelib chiqqan holda jamiyatda o'z o'rnini topishga bo'lgan ongli intilishni tarbiyalaydi.

Bu yo'l ishontirish, ta'sir etish, tushuntirish, axborot berish, namuna metodlariga asoslanadi. Bu jarayonda muhim vazifani bevosita o'quvchi yashayotgan va faoliyat yuritayotgan jamoa, ijtimoiy muhit va ularda yaratilgan qarashlar, an'analar, sharoit va boshqalar o'taydi.

Bola uchun aynan uning diqqat va e'tiborini doimiy tarzda tortib turadigan faoliyat yoki ish turigina qiziqarli ekanligini unutmaslik lozim.

Bundan tashqari xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarni tayyorlash va ularda motivatsiyani shakllanishida

Birinchidan. Har bir o'qituvchi o'z ustida mustaqil ishlashi, doimiy izlanishi;

Ikkinchidan. Xalqaro tadqiqot dasturi, undan ko'zlangan maqsad va vazifalarni o'quvchilarga tushuntirish;

Uchinchidan. O'quvchilarning amaliy ko'nikmalarini, mantiqiy va ijodiy fikrlashini baholashga qaratilgan sinovlarni tizimli ravishda o'tkazib borish

To'rtinchidan. Matematika, o'qish va tabiiy fanlar bo'yicha to'garaklar doirasida o'quvchilarning ijodiy fikrlash ko'nikmalari ularda motivatsiyani rivojlantirishga ularda tanqidiy tahlil, kreativ fikrlash, mustaqil izlanish, yaratuvchanlik qobiliyatlarini shakllantirishga qaratilgan mashg'ulotlar tashkil etish

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Yosh avlod bilimini baholashda xalqaro baholash dasturlarini amaliyotga qo'llash bilan birga milliy baholash tizimini yanada takomillashtirishga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq bo'ladi. Xalqaro dasturlarda ishtirok etish yosh avlodning intellektual salohiyatini qay darajada rivojlanayotganini aniqlash, ularda motivatsiyani shakllantirish shu orqali natija va samaradorlikning yangi yo'nalishlarini belgilab olishga imkoniyat yaratsa milliy baholash tizimining yanada takomillashtirish xalqaro baholash dasturlarida muvaffaqiyatli



ishtirok etishini ta'minlash bilan birga ularning kreativligini va kompetentligini va o'z navbatida ta'lim sifatini yanada rivojlanishiga xizmat qiladi. Zero, ayni davr ta'limi va global taraqqiyot bilimlar universalligini ham talab etmoqda. Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya tizimini mutlaqo yangi bosqichga ko'tarish, pedagogik kadrlar tayyorlash jarayonlari sifat darajasini umume'tirof qilingan xalqaro talablar va standartlarga muvofiq tubdan yaxshilash bo'yicha keng ko'lamli ishlarni amalga oshirishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risidagi” PF-4947-sonli farmoni bilan tasdiqlangan “2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi chora tadbir dasturi

2. K. Hoshimov, S. Ochil. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. –T.: “O'qituvchi” nashriyoti, 2010-yil. 130-bet.

3. K. Hoshimov, S. Ochil. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. 1-jild, -T.: “O'qituvchi” nashriyoti, 1995-yil, 461b

4. O. Hasanboeva, J. Hasanboev, H. Hamidov. Pedagogika tarixi. –T.: “O'qituvchi” nashriyoti, 1997-yil 55-bet

5. www.google.uz qidiruv tizimi. www.Ziyonet.uz. www.arxiv.uz



BOSHLANG'ICH SINIF MATEMATIKA DARSLARIDA GEOMETRIK MATERIALLARNI O'RGATISH

Imomnazarova Feruza Abduraimovna
Marg'ilon shahar 5-umumiy o'rta ta'lim maktabi
boshlang'ich sinf o'qituvchisi
e-mail: imomnazarovaferuza@gmail.com
tel: + 99 8905308145

Annotatsiya: maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga matematika darslarida o'rgatiladigan geometrik materiallarning ahamiyati va uni o'rgatishdagi murakkabliklarni bartaraf etish usullari yoritilgan.

Kalit so'zlar: geometrik figura, shakl, o'lcham, kesma, geometrik sanoq, uchburchak.

Geometrik shakllarni boshlang'ich sinflarda o'rgatish o'quvchilarga boshlang'ich tushunchalarni shakllantirishda asosiy o'rin tutadi. Biroq boshlang'ich sinflarga geometrik shakllarni o'rgatish boshlang'ich sinf o'quvchilariga ham, boshlang'ich sinf o'qituvchisiga ham qiyinchilik tug'diradi. Kichik yoshdagi o'quvchilarning fazoda figuralarni farqlash va idrok qilish munosabatlari, ya'ni obyektlarning shakli, o'lchami, fazoviy yo'nalishlari, fazoda joylashgan o'rni, hajmi, bo'yi, eni, balandliklari kabi masofalarining hammasi har xil fazoviy tushunchalardir, bu tushunchalarni to'g'ri, o'rinli ishlata olishini o'rgatish matematika mashg'ulotlarining asosiy vazifasi sanaladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining geometrik figuralar haqidagi tasavvurlarini shakllantirish metodikasi quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

I bosqich (tayyorlov) - bolalardagi mavjud geometrik figuralar haqidagi umumiy tasavvurlarni aniqlash (bolalarning hayotiy tajribasi, model figuralardan foydalanib, amaliy ishlarni bajarish).

II bosqich – o'quvchilar bilan amaliy ishlar asosida ularda geometrik figuralar haqidagi tasavvurlarni shakllantirish.

III bosqich – o'rganilgan materialni xotirada mustahkam saqlab qolish uchun figuralar yasashga oid maxsus tanlangan mashq va masalalarni bajarish.

Bolalar ko'pincha yuzni o'lchash tushunchasini uni ratsional hisoblash usuli bilan aralashtirib yuboradilar. "To'g'ri to'rtburchakning yuzini o'lchash nimadan iborat?" degan savolga bolalar ko'pincha bunday javob beradilar: "bu uning bo'yini va enini o'lchab, ularni ko'paytirish demakdir. Boshlang'ich sinflarda geometriya elementlarini o'rganishning asosiy maqsadlaridan biri o'quvchilarni fazoviy tasavvurlarini rivojlantirish bo'lib, bu narsa xayolda qayta tiklangan shakllarni ajratib olishga va yana qayta ulardan kombinatsiya qilgan holda tiklashga yordam beradi. Biroq ajratib olingan shakllarni qayta kombinatsiyalashga (birlashtirish) faqat geometrik shakllarni ajratib olishnigina emas, balki ular orasidagi turli-tuman munosabatlarni bilishni ko'zda tutadi. Chunki yangi figuralar hosil qilish ular elementlari orasida ba'zi munosabatlar to'plamining mavjud bo'lishini nazarda tutadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining boshlang'ich geometrik tushunchalarni o'zlashtirish poydevorini yaratish va ularni o'rganish metodikasini o'zlash tirish faoliyatini tashkil etishda o'qituvchining yetakchi rolini, uning shaxsi, bilimi, ishga va o'quvchilarga bo'lgan munosabati, metodik mahorati masalaning muvaffaqiyatli yechilishida katta ahamiyatga ega.

Shunday qilib, o'quvchilar figuralarni teng bo'laklarga bo'lish yo'li bilan ulushlarni taqqoslaydi. Ulushlarni amaliy taqqoslashda turli burchakli paloskalar bilan bir qatorda doiralardan ham, boshqa geometrik figuralardan zarur. Turli ulushlarni faqat qirqish bilangina emas, balki bo'yash orqali ham hosil qilish mumkin. Yoki geometrik masalalarni quyidagicha yechish zarur.

Uchburchakning perimetri 174 sm

a) agar shu uchburchakning uchchala tomoni o'zaro teng bo'lsa, bitta tomonini toping.

Berilgan.

$P=174\text{sm}$, $a=?$

Yechish: $a=b=c$ $P=a+b+c$

$a+b+c=174$, $a+a+a=174$

$3a=174$, $a=174:3=58\text{sm}$

Javob: $a=58\text{sm}$.

b) agar shu uchburchakning ikkita tomoni o'zaro teng va uchinchi tomoni 56 sm bo'lsa, qolgan



tomonini toping.

Berilgan.

$$P=174\text{sm. } a=b, c=56\text{sm.}$$

$$a=? b=?$$

Yechish:

$$P=a+b+c$$

$$a+a+c=174 \quad 2a+56=174$$

$$2a=174-56 \quad 2a=118$$

$$a=118:2=59\text{sm.}$$

Javob:

$$a=b=58\text{sm}$$

Shundan keyin o'quvchilarni har xil ko'pburchaklarning perimetrlarini topish bo'yicha mashq qildirish kerak. Ko'pburchaklar orasida teng yonli va teng tomonli uchburchaklar va boshqa figuralar bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Shu bilan har xil ko'pburchaklar perimetrlarini topishga doir masalalarni hal etishda tegishli amallarni ongli tanlashlariga sharoitlar yaratiladi. O'quvchilar o'lchash malakalari va chizmachilik fanida o'lchash asboblaridan foydalanib, geometrik figuralarni yasash malakalari bilan qurollantirish, ko'z bilan chamalab o'lchashlar, qo'lda chizish va hokazolar; bu malakalar hayotiy va muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar

1. Jumayev M.E, Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasidan praktikum. - Toshkent. "O'qituvchi" 2004 yil.

2. Jumayev M.E, Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasidan laboratoriya mashg'ulotlari. -Toshkent. "Yangi asr avlodi" 2006 yil.



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI HUSNIXATGA TAYYORLASH USULLARINI O'RGATISH.

*Islombekova Dilnoza Bahtiyorovna
Toshkent shahar Sergeli tumani 331-maktab
Boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

Annatsiya: Ushbu ma'ruza matni husnixat o'qitish metodikasining tamoyillari, yozuv turalri, yozuvning jamiyat taraqqiyotiga ahamiyati, hattotlik tarixin ing rivojlanish tarixi, yozuvda o'rgatish jarayoni va uning xususiyati, shuningdek, yozuvga o'rgatishning samarali usullari xususida fikr bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Husnixat, ahloqiy, estetik, didlar, vazifalar, go'zallik, chiroyli.

Boshlang'ich sin o'quvchilarida chiroyli yozuvni o'rgatish savodxonlikning poydevori hisoblanadi. Boshlang'ich sinfdan maqsad o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini ravon qilish hamda ularni go'zallikka intiluvchi, uni yurakdan his qila oladigan go'zallikni yaratishga intiladigan kishilar qilib voyaga yetkazishni nazarda tutadi.

Husnixatga o'rgatish asosiy maqsad kichik yoshdagi o'quvchilarga yozishdek murakkab jarayonni o'rganish orqali, ularning chiroyli yozuv malakalarini rivojlantirishdan iboratdir. O'quv fani sifatida husnixatning oldiga biror qator vazifalar qo'yiladi.

Bu vazifalar ko'p qirrali bo'lib o'quvchilarni aqliy rivojlanishga, ularning atrof-muhit haqida bilimlarni kengaytirishga, ahloqiy va estetik didlarni tarbiyalashga, ongli o'qish va yozish malakalarini hamda yozuv daftar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishdan iboratdir.

Vazifalarning barchasi o'zaro bog'liq holda amalga oshiriladi. Ularni hal qilish zaruriy yozuv malakalarini egallashda berilgan o'quvchilar Saviyasiga mos nazariy va amaliy material uyg'unlashtirib o'zlashtirish ustida ishlashni maqsadga muvofiq uyg'unlashtirish, shuningdek matnlar sifatini, topshiriqlar xususiyatini va bolalar aqliy faoliyatining o'ziga xos tomonlarini belgilaydigan qator uslubiy shart-sharoitlarga bog'liq.

Bola kamolatining shakllanishi ko'p jihatdan chiroyli yozuviga bog'liq. Chiroyli yozuv orqali bolalar boshqa fanlarni muvafaqiyatli o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Inson faoliyatida yozuv muhim o'rin tutadi, chunki u har kuni turli tuman qog'ozlar va xujjatlardan foydalanadi. Bularning hammasi chiroyli va bexato yozishni talab etadi. Chiroyli yozuvga o'rgatish uchun bolalarning maktabga qo'yilganidan kunidan boshlab izchil mashqlar olib borishi zarur.

Husnixat malakasini rivojlantirish uchun birinchi navbatda harfning shaklini to'g'ri tasavvur etishga, bir qiyalikda yozishga, so'zlarda harflarni to'g'ri oylashtirishga o'rgatdi. Daftar chiziqlari birin-ketin almashinuvi davomida qiyaligini va ular orasidagi masofani to'g'ri saqlash, kichik va bosh harflarining nisbatini to'g'ri chamalab yozishga o'rgatish juda muhimdir. Husnixat darslarida ma'lum guruhga oid harflarga o'rgatish o'quvchilarda uchraydigan ayrim tipik xatolarning oldini olish va tuzatish ustida ham ish olib borish lozim. Chiroyli yozuvga o'rgatishda daftardan to'g'ri foydalanishga e'tabor berish lozim. Ikki chiziqli daftardan bir chiziqli daftarga o'tishda o'quvchilar oldiga vazifalar qo'yiladi. Chiroyli yozuvga o'rgatish umumiy didaktik qoidalar bilan birga yozuv malakasini shakllantiruvchi o'ziga xos qoidalarni ham o'z ichiga oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. „ Husnixatga o'rgatish metodikasi” Qosimova
2. Boshlang'ich ta'lim jurnali
3. Internet tarmoqlari



МАКТАБГАЧА ТА’ЛИМ ТИЗИМИДА О‘ЗБЕК ХАЛҚ ЭРТАКЛАРИНИ О‘РГАТИШ ОРҚАЛИ YOSH AVLODDA MILLIY VA MA’NAVIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISH

Ismatullayeva Gulshoda
Farg‘ona viloyati XTXQTMOHM
Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim
metodikalari kafedrasida katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: maqolada maktabgacha ta’lim tizimida o‘zbek xalq ertaklarini o‘rgatish omillari va ertak janri orqali yosh avlodda milliy va ma’naviy qadriyatlarni shakllantirish asoslari tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: xalq og‘zaki ijodi, ma’naviy qadriyatlar, ertak janri, asosiy xususiyatlar, xalq hayoti, kurashi, tarixi, psixologiyasi, dunyoqarashi, urf-odatlar.

Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar millatimiz ertangi kelajagi uchun olg‘a tashlangan qadamlardir. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “Qaysi sohani olmaylik, biz zamonaviy yetuk kadrlarni tarbiyalamasdan turib biron-bir o‘zgarishga, farovon hayotga erisha olmaymiz. Bunday kadrlarni, millatning sog‘lom genofondini tayyorlash, avvalo, maktabgacha ta’lim tizimidan boshlanadi” degan so‘zlari maktabgacha ta’lim sohasini rivojlantirishning konseptual asosi hisoblanadi. Shunday ekan, maktabgacha ta’lim tizimi uzluksiz ta’limning birlamchi, eng asosiy bo‘g‘inidir. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar pedagogikasida bolalarni har tomonlama kamol toptirishda tarbiyaning asosiy xillari: jismoniy tarbiya, aqliy tarbiya, axloqiy tarbiya, mehnat tarbiyasi va estetik tarbiya ekanligi ilmiy asoslab berilgan.

Xalq og‘zaki ijodining ma’naviy qadriyatlarni targ‘ib etishdagi ta’sir kuchi unda xalqning o‘zligi, milliy xarakter xususiyatlarining ochib berilishi bilan xarakterlanadi. Unda xalqning g‘oyaviy-siyosiy, axloqiy, badiiy-estetik, ekologik, iqtisodiy, diniy, axloqiy, jismoniy madaniyati, mazmuni, ma’naviy talab va ehtiyojlari, orzu-umidlari, ta’lim-tarbiyaning shakl, usul va vositalari o‘z ifodasini topgan. Xalq og‘zaki ijodi orqali biz bolalarni ma’naviy rivojlantirar ekanmiz, ular ongiga ilk tushunchalarni - milliy istiqloq g‘oyasi tushunchasini singdiramiz. Bu esa, bolalarda tabiat va jamiyat qonunlarini o‘rganishga ehtiyojini o‘stiradi, dunyoqarashini kengaytiradi, ma’naviy qadriyatlarni paydo bo‘lishi va shakllanishi haqidagi tasavvurlarni boyitdi.

Maktabgacha ta’lim muassasalarida xalq og‘zaki ijodi namunalari, ayniqsa, ertaklarni o‘rgatish orqali bolalarda og‘zaki nutq malakalarini shakllantirib boramiz. Ma’lumki, ertaklar folklorning keng tarqalgan ommaviy janrlaridan biridir. Ertaklar xalq hayoti, ijtimoiy turmushi, ma’naviy dunyosi, dunyoqarashi bilan uzviy bog‘langandir.

«Ming bir kecha» xalq og‘zaki ijodining eng yaxshi va monumental namunasidir. Bu ertaklar mehnatkash xalqning «shirin xayollari zavqiga», erkin o‘yinidan zavqlanishiga ifoda qiladi, sharq xalqlari fantaziyasining jo‘sh urgan kuchini ifoda qiladi. Bu suhandonshunoslik juda qadim zamonlarda vujudga kelgan, uning rang-barang ipaklari butun yer yuziga yoyilib, uni hayron qolarlik darajada go‘zal so‘z san’ati bilan qoplagan...».

A.M.Gorkiyning «Ming bir kecha» ertaklariga bergan bahosi o‘zbek xalq ertaklariga ham taalluqlidir. Chunki ertak janriga xos xususiyat barcha xalqlar ertaklari uchun mushtarakdir. Bu narsani ertaklarning syujeti, kompozitsiyasi, g‘oyaviy mazmunida ko‘rish mumkin.

Ertaklar insonning o‘zini o‘rab olgan muhitdan, tabiiy hodisalar ta’sirlanishi natijasida yuzaga keladi. Rus ertakchisi P.P.Bajev «Ertaklar orqali hayotni ko‘rasan» deganida, qozoq yozuvchisi Muxtor Avezov «Ertaklarda u yoki bu davrning ijtimoiy, hayotiy kurashlari, xalq manfaatlari o‘zining badiiy ifodasini topgan», - deb yozganida ertak fantaziyasining zaminida real haqiqat yotishini nazarda tutgan edilar.

Ertak janrining asosiy xususiyatlaridan biri uning xalq hayoti, kurashi, tarixi, psixologiyasi, dunyoqarashi, urf-odatlari bilan juda yaqin bog‘langanligi va insonlarga axloqiy hamda ma’naviy tarbiya berilishidir. Ertaklarda inson o‘ziga dushman bo‘lgan kuchlarga qarshi doim g‘olib chiqadi.

Ertaklar tuzilishiga ko‘ra sodda va anglashilishi oson bo‘lgani uchun ham barcha bolalar uchun birdek sevimli.



Taniqli folklorshunos olim M.I.Afzalov xalq ertaklarini shartli ravishda ikki qismga ajratadi.

1. Fantastik ertaklar. Bunday ertaklarda fantastik moment kuchli bo'lib, ularga hayvonlar haqidagi va sehrli-fantastik ertaklar kiradi.

2. Realistik ertaklar. Bunday ertaklarda fantastik momentlar kuchsiz bo'lib, ularga hayotiy va satirik ertaklar kiradi.

Hayvonlar haqidagi ertaklar eng qadimgi zamonlarda paydo bo'lib, ibtidoiy odamning tabiat voqea-hodisalariga totemistik va animistik qarashlari bilan izohlanadi. Ibtidoiy odamlar hayvonlar ham odamlar kabi gapiradilar, fikrlaydilar deb tushunganlar. Insonning jonli tabiatga bolalarcha sodda munosabati uning hayvonlar haqidagi ertaklarda ifodalangan.

Umuman, dunyo xalqlari adabiyotida hayvonlar, qushlar, narsa-predmetlar to'g'risida juda ko'p ertaklar vujudga kelgan. Bularda u yoki bu xalqning o'sha hayvonga bo'lgan munosabati, milliy koloriti o'z ifodasini topgandir. Chunki har bir xalq tabiatida hayvon va jonivorlarga, narsa-predmetlarga o'zicha munosabatda bo'ladi. Masalan, «Bo'ri bilan tulki» ertagini olib ko'raylik. Bu ertakda Bo'rining ham, Tulkining ham salbiy xususiyatlari ochiladi.

Hayvonlar haqidagi ertaklar bolalarga kichik yoshidan boshlab o'rgatiladi. Bola badiiy mahorat bilan yaratilgan ertaklardan estetik zavq oladi, rostgo'ylik va yolg'onchilik, mehr-shafqat va g'azab, muhabbat va nafrat, adolat va adolatsizliklarning farqini bilishni boshlaydi. Bu esa, bolalarda umuminsoniy qadriyatlarning mohiyatini ochishga ko'mak beradi. Ertaklar bolaning ma'naviy ongiga, faoliyati mazmuniga, hissiyoti, xarakter xususiyatlariga ijobiy ta'sir etadi.

Xulosa qilib aytganda, xalq og'zaki ijodida ertak janri alohida o'rin tutadi. U o'zining g'oyaviy-badiiy mazmuni, o'tkir badiiy tili, badiiy estetik qimmatini bilan xalqning sevimli, ommaviy janri bo'lib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bolalar bog'chasida estetik tarbiya. Toshkent, 1981. 11-bet.
2. «Ming bir kecha», 1-tom, Toshkent, 1959 yil, 4-bet.
3. Sodiqova Sh. Maktabgacha pedagogika. –T.: «Fan va texnologiya», 2012.



QISH FASLIGA OID MAVZULARNI O‘TISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH YO‘LLARI

Kadirova Manzura Tuxtaniyozovna

Sirdaryo viloyati Guliston tumani

28-umumta’lim maktabi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada qish fasliga oid mavzularni o‘tishda interfaol metodlarni qo‘llash tajribasi yoritilib, har bir interfaol metodga oid namunalar keltirilgan

Kalit so‘zlar: interfaol, qish, “Organayzer” metodi, aqliy hujum, “Assesment”-baholash texnikasi, ijodiy mehnat.

Interfaol usullaridagi darslar o‘quvchini ijodiy fikrlashga, olingan axborotlarni faollikda hal etishga, fikrini erkin bayon qilishga, tashabbuskorlikka, guruhlarda masalalar yechimini topishga, hamkorlikda ish yuritishga, fikrni yozma ravishda bayon etishga chorlaydi. Quyida qish fasliga oid mavzularda interfaol metodlarni qo‘llash tajribasi bilan o‘rtoqlashmoqchimiz.

“Organayzer” metodi tarmoqlashning shunday turiki, unda faqat birlamchi yoki faqat ikkilamchi ma’lumotlar emas, balki, ham birlamchi, ham ikkilamchi ma’lumotlar ochiq qoldirib beriladi. O‘quvchilar qaysi tarmoq ochiq bo‘lsa, shu joyning ma’lumotini topishi kerak. Bunda ularga o‘qituvchi tomonidan yozilgan ma’lumotlar yordam beradi. Masalan:



Topshiriqning bajarilishini slaydlar orqali tekshirish ham mumkin.

“Assesment” –shaxsning o‘zini-o‘z baholashiga yo‘naltirilgan ta’lim texnikasi mashq hisoblanadi. Assesment – o‘z-o‘zini taqdimot qilish, ma’lum sinocdan o‘tish uchun qo‘llanadigan baholash texnikasidir. Undan ma’lum bo‘lim yakunida o‘quvchilarning bo‘limda o‘rganganlarini baholashda yoki darsning mustahkamlash bosqichida foydalanish mumkin.

<p>Test</p> <p>“Qish” mavzusining muallifi?</p> <p>1. Z.Diyor 2. I.Muslim 3. Q.Hikmat</p> <p>1 ball</p> <p>—ball</p>	<p>Savol</p> <p>“Ayrilganni..” ertagini bosh qahramonini ayting</p> <p>_____</p> <p>1 ball</p> <p>_____ball</p>	<p>Test</p> <p>“Qish” mavzusining muallifi?</p> <p>1. Z.Diyor 2. I.Muslim 3. Q.Hikmat</p> <p>1 ball</p> <p>-----</p>	<p>Savol</p> <p>“Ayrilganni..” ertagini bosh qahramonini ayting</p> <p>_____</p> <p>1 ball</p> <p>_____ball</p>
<p>Topishmoqni toping</p> <p>Yumshoq, lekin paxta emas Girchillaydi, taxta emas. Daraxtlarni kiyintirar, Oppoqqina, yaktak emas</p> <p>J: _____</p> <p>1 ball</p> <p>_____ball</p>	<p>Amaliy topshiriq</p> <p>“Qorqiz” she’ridagi aytilishi o‘xshash bo‘lgan so‘zlarni jufti bilan yozing.</p> <p>_____</p> <p>2 ball</p> <p>_____ball</p>	<p>Topishmoqni toping</p> <p>Yumshoq, lekin paxta emas Girchillaydi, taxta emas. Daraxtlarni kiyintirar, Oppoqqina, yaktak emas</p> <p>J: qor _____ball</p> <p>1 ball</p>	<p>Amaliy topshiriq</p> <p>“Qorqiz” she’ridagi aytilishi o‘xshash bo‘lgan so‘zlarni jufti bilan yozing.</p> <p>Yo..laktarin..ke..yaktaklarim Sochlarim..tollarim Oqqiz..qorqiz Yoyman..o..xshatman..g Tilim..ke..nailim</p> <p>2 ball</p> <p>_____ball</p>

“Aqliy hujum” metodidan foydalanib, “Siz qor haqida nima bilasiz?” savoliga javoblar olamiz:

- Oq rangli
- Sovuq.
- Qorbobo yashash mumkin.....

Berilgan rasm asosida qish fasliga oid so‘zlar aytish.



“Ijodiy mehnat” metodi asosida chiqishlar qilish.

1-guruh: Rolli oʻyin



2-guruh: Rasm chizish.



3-guruh: Qoʻshiqlar aytish.

Olcha guli bargiday

Oʻynab, uchib yogʻar qor

Ajib qorga qarayman

Koʻzimda yashnar bahor.

Xulosa qilib aytganda boshlangʻich sinflarda har bir interfaol metodni qoʻllashda koʻrgazmalilik, taqdimot va amaliy ish jarayonini tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boymurodova G. va b.q. Oʻqish “3-sinf oʻqituvchilari uchun ilgʻor pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini amaliyotga joriy etish boʻyicha metodik qoʻllanma T-2016.

2. Umarova M va b. 3-sinf oʻqish darsligi 2019- yil.



MS DISK OPERATSION SISTEMASI VA UNING TASHKIL ETUVCHILARI.

*Kadirova Rayxon Xasanovna
Xorazm viloyati Urganch tumani
5-umumiy o'rta ta'lim maktabi
informatika fani o'qituvchisi
Telefon raqami: 97 203 48 42*

Annotatsiya. 1980-yil oktabrda IBM firmasi menejerlari o'zlarining ishlab chiqarayotgan 16 razryadli shaxsiy kompyuterlar uchun operatsion tizim qidiruvi bilan mashg'ul edi. U vaqtlarda shaxsiy kompyuterlarda Digital Research firmasining CP/M (Control Program for MicroComputers) operatsion tizim keng ishlatilgan.

Kalit so'zlar. IBM, Digital Research, CP/M, Microsoft, Seattle Computer Products, PC/MS, Disk, operatsion tizim, fayl, CONFIG.sys.

Digital Research firmasi bilan kelisha olmagan IBM firmasi Microsoft (Bill Geys) firmasiga murojaat qildi. O'sha vaqtda Microsoft da mos keladigan operatsion tizim yo'q edi, lekin u mos keladigan operatsion tizim ga ega bo'lgan, uncha katta bo'lmagan Seattle Computer Products firmasidan xabardor edi. 50000\$ evaziga Bill Geys shu operatsion tizim ustidan huquqqa ega bo'ldi. Keyinchalik bu operatsion tizim MS DOS

(Microsoft Disk Operating System) ning asosi bo'lib xizmat qildi. 1980 -yilning noyabrida Microsoft va IBM PC uchun operatsion tizim yaratish haqidagi shartnomaga imzo chekishdi. 1981 -yil fevralda IBM PC da ishlaydigan PC/MS DOS ning birinchi versiyasi chiqarildi. 1981- yilning avgustida esa PC DOS 1.0 ishlab chiqarildi. Bu variant IBM PC da ishlatish uchun tasdiqlangan edi.

Diskdagi dasturlarni faqat nomi orqali yuklash imkonini beruvchi operatsion tizim ishlab chiqildi va u disk operatsion sistemasi (DOS) deb nom oldi.

Operatsion tizim nafaqat diskdagi fayllarni yuklash, balki xotiradagi fayllarni diskka yozish, ikkita faylni bitta sektorga tushishining oldini olish, kerak bo'lgan paytda fayllarni o'chirib tashlash, fayllarni bir diskdan ikkinchisiga ko'chirish (nusxa olish) kabi ishlarni ham bajara olardi. Umuman olganda, DOS foydalanuvchini alohida qog'ozlarda ko'plab yozuvlarni saqlashdan xalos etdi, disk yurituvchilar bilan ishlashni soddalashtirdi va xatolar sonini sezilarli darajada kamaytirdi. operatsion tizimlarning keyingi rivojlanishi texnik ta'minoperatsion tizimining rivojlanishi bilan parallel bordi.

Egiluvchan disklar uchun yangi disk yurituvchilar paydo bo'lishi bilan operatsion tizim lar ham o'zgardi. Qattiq disklarning yaratilishi bilan, ularda o'nlab emas, balki yuzlab, hatto minglab fayllarni saqlash imkoniyati yaratildi. Shu sababli fayllar nomida ham anglashilmovchiliklar paydo bo'la boshladi. Ana shunda DOSlar ham ancha murakkablashdi. Ularga disklarni kataloglarga bo'luvchi va ushbu kataloglarga xizmat ko'rsatuvchi vositalar (kataloglar orasida fayllarni ko'chirish va nusxa olish, fayllarni saralash va boshqalar) kiritildi. Shunday qilib, disklarda faylli struktura paydo bo'ldi. Uni tashkil etish va unga xizmat ko'rsatish vazifasi esa operatsion tizimga yuklanadi. Qattiq disklar yanada katta o'lchamlarga ega bo'lishi bilan operatsion tizim ularni bir nechta mantiqiy disklarga bo'lishni ham "o'rganib" oldi. 1981 -yildan 1995 -yilgacha IBM PC kompyuterlarni asosiy operatsion tizim MS DOS edi. Shu yillar ichida u MS DOS 22 variantigacha bo'lgan rivojlanish bosqichlarini bosib o'tdi. MSDOS.sys - bu rezident modul. Amaliy dasturlar uchun yuqori darajadagi interfeysni ta'minlaydi, fayllarni, kiritish-chiqarish qurilmalarini boshqaradigan, kutilmagan vaziyatlarni (xatolarni) qayta ishlaydigan va boshqa dasturiy vositalarga ega.

Buyruqlar properatsion tizimessori (COMMAND.com) - MS DOSning alohida moduli. Bu modul boshqa qulayrog'iga almashtirilishi mumkin. Vazifalari:

- klaviaturadan yoki *.bat fayldan buyruq qabul qilish va uni amalga oshirish;
- Autoexec.bat fayl buyruqlarini MS DOS yuklanganda amalga oshirish;
- MS DOS amaliy dasturlarini tezkor xoperatsion tizimiraga yuklash va amalga oshirilishini ta'minlash. Tashqi buyruqlar (dasturlar) - MS DOS tarkibiga kiradigan alohida funksiyalarni bajaradigan qo'shimcha dasturlar. Qurilma drayverlari - tashqi qurilmalarni boshqaradigan maxsus rezident dasturlar. Drayverlar CONFIG.sys faylida ko'rsatilgan tartibda operativ xoperatsion



tizimiraga yuklanadi. CONFIG.sys - amaliy dasturlar tomonidan bajariladigan, MS DOS ga bevosita aloqador va qo`shimcha yuklanadigan drayverlar haqida ma`lumoperatsion tizimni o`zida mujassamlagan maxsus matnli fayl. COMMAND.com - fayli yuklangandan keyin MS DOS ushbu faylni avtomatik tarzda amalga oshiradi.

AUTOEXEC.bat - qo`shimcha sozlash ma`lumoperatsion tizimlari joylashgan maxsus matn fayli. CONFIG.sys fayli yuklangandan keyin MS DOS ushbu faylni avtomatik tarzda amalga oshiradi. MS DOS operatsion tizimda ishlatiladigan atamalar izohi:MS DOS ichki buyruqlari - MS DOS buyruqlar properatsion tizimssori tomonidan bajariladigan buyruqlar. MS DOS tashqi buyruqlari - bajarish uchun MS DOS buyruqlar properatsion tizimssori tomonidan TX (tezkor xotira) ga yuklanadigan alohida dasturlar.

Rezident dastur - TX ga yuklangandan so`ng unga boshqarish beriladi, TXda doimiy joylashadi va boshqa dasturlar bilan parallel ravishda ishlaydi.

Foydalanilgan adabiyoperatsion tizimlar ro`yxati.

1. Abduqodirov A.A., Hayitov A.G'., Shodiyev R.R. Axboroperatsion tizim texnologiyalari // Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik. -T.:O`qituvchi, 2003.
2. Xaldjigitov A.A., Madraximov Sh.F., Adamboev U.E .Informatika va programmalsh. O`quv qo`llanma. O`zMU, 2005 yil
3. www.ziyo.edu.uz



BOSHLANG'ICH SINIF MATEMATIKA DARSLARINING MAZMUNI

*Karimova Iroda Ismoilovna
Marg'ilon shahar 19-maktab
boshlang'ich sinf o'qituvchisi
e-mail:iroda@inbox.uz*

Annotatsiya: maqolada boshlang'ich sinf matematika darslarining o'quv fanining o'qitilishi va mazmuni, fanga o'quvchilarni qiziqtirish kabi masalalarga e'tibor qaratilgan

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf, matematika, o'quv fani, mazmun

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga matematikani muvaffiqiyat bilan o'qitish uchun mehnat faoliyatini boshlovchi o'qituvchi matematika o'qitishning ishlab chiqilgan tizimini, ya'ni boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasini egallagan bo'lishi va shu asosda mustaqil ravishda ijodiy ishga kirishishi kerak.

Bolalarda matematik bilimlarga nisbatan qiziqish, ulardan foydalanish malakasi va ularni mustaqil egallash malakasi tarbiyalanishi kerak. Bundan tashqari, ularda amaliy malaka va ko'nikmalarning (sodda shakllarni chizish, ularni qog'ozni buklab hosil qilish...) shakllanishiga jiddiy ahamiyat berish kerak.

Bu davrda ular pedagogning topshiriqlarini tinglab, darhol bajarishi, o'qituvchi ko'rsatmalariga amal qilish, muhim narsani nomuhim narsadan ajrata olish, qo'yilgan vazifalar tartibini aniqlash, olingan natijalarini qo'yilgan masalaga mos keltirish, o'z ishini nazorat qila olish hamda boshqa malakalarni egallab olishlari kerak. Mazkur bobda boshlang'ich matematika darslarining mazmuni, beriladigan o'quv materiali haqida ma'lumotlar beriladi.

Maktablarning I-IV sinflarida o'rganiladigan matematika kursi maktab matematika kursining ajralmas tarkibiy qismidir. Shu sababli boshlang'ich matematikani muvaffiqiyatli o'zlashtirish maktabda butun matematik ta'limni to'g'ri yo'lga qo'yishga asos bo'lishi tushunarli bo'lib qoladi.

Boshlang'ich sinf matematika darslarida sonlarni nomerlashga o'rgatish jarayoni o'ziga xos xususiyatlariga ega.

1. Boshlang'ich sinflarning asosiy o'zagi natural sonlar va asosiy miqdorlar arifmetikasidan iborat bo'lib, bu o'zak atrofida algebra va geometriya elementlari birlashadi, bu elementlar arifmetik bilimlar sistemasiga tarkiban qo'shib son, arifmetik amallar va matematik munosabatlar haqidagi tushunchalarning yuqoriroq darajada o'zlashtirishiga imkon beradi.

2. Boshlang'ich sinf matematika fani materiali kontsentrik(atrofficha bog'langan) holda o'rganiladi. Dastlab birinchi o'nlik sonlarini nomerlash o'rganiladi, bu sonlarni yozish uchun raqamlar kiritiladi, qo'shish va ayirish amallari o'rganiladi, so'ngra 100 ichida sonlarni nomerlash qaraladi, xona tushunchasi, o'nli xonalarga ajratish mumkin bo'lgan sonlarni yozishning pozitsion printsipi ochib beriladi, 2 xonali sonlarni qo'shish va ayirish o'rganiladi, ko'paytirish va bo'lish amallari kiritiladi. Keyin, 1000 ichida sonlarni nomerlash o'rganiladi, bu yerda ko'p xonali sonlarni nomerlashning asosi bo'lgan 3 ta xona (birlar, o'nlar, yuzlar) qaraladi, arifmetik amallar to'g'risidagi bilimlar umumlashtiriladi, yozma qo'shish va ayirish usullari kiritiladi va nihoyat, ko'p xonali sonlarni nomerlash o'rganiladi, sinf tushunchasi qaraladi, raqamlarning egallagan o'rniga, ko'ra qiymatini bilish umumlashtiriladi, yozma hisoblash algoritmlari kiritiladi. Tajribalarning ko'rsatishicha, kurs bunday tuzilganda sistematik takrorlanib, ilgari o'rganilgan bilim, ko'nikma va malakalar sonlarning yangi sohasida o'z rivojini topadi. Natijada boshlang'ich sinf matematikasini o'zlashtirishga yaxshi imkoniyat yaratiladi.

3. Nazariy va amaliy xarakterdagi masalalar o'zaro uzviy bog'lanadi. Ko'pgina nazariy masalalar induktiv ravishda kiritiladi, ular asosida esa amaliy xarakterdagi masalalar ochib beriladi. Masalan, ko'paytirishning taqsimot xossasi xususiy faktlarni umumlashtirish asosida kiritiladi, bu xossadan foydalanib, ushbu ko'paytirish usuli ochib beriladi:

$$17 \times 3 = (10 + 7) \times 3 = 10 \times 3 + 7 \times 3 = 30 + 21 = 51$$

4. Boshlang'ich sinfda matematik tushunchalar, qonuniyatlar va xossalari o'zaro bog'lanishda ochib beriladi. Masalan, arifmetik amallarni o'rganishda ularning xossalari orasidagi bog'lanishlar va aloqalar ochib beriladi. Bu ma'lum qonuniyatlarga ega bo'lgan amallar tushunchasini chuqur ochib berishga, bolalarni funktsional tasavvurlar bilan boyitishga imkon beradi.

5. Boshlang'ich sinf matematikasini o'rganish jarayonida har qaysi tushuncha o'z rivojini



topadi. Masalan, arifmetik amallarni o'rganishda, dastlab ularning konkret ma'nosi, so'ngra amallarning xossalari, komponentlar va amallar natijalari orasidagi bog'lanishlar birgalikda ochib beriladi. Tushunchalarni o'rganishga bunday yondashish o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos keladi.

6. Tajribalarning ko'rsatishiga, o'xshash yoki o'zaro bog'liq masalalarni taqqoslab o'rganish maqsadga muvofiqdir. Bu holda muhim o'xshash va muhim farq qiladigan tomonlarni darhol ajratib ko'rsatish mumkin, bu esa o'quvchilarning o'xshash masalalarni aralashtirib yuborishi kabi xatolarini olidin oladi. Shuning uchun dasturda ba'zi masalalar bir vaqtda kiritiladi (masalan, + va - amallari), shuningdek, ilgari o'rganilgan va shunga o'xshash masalalarga taqqoslagan holda yangi masalalarni kiritish ko'zda tutilgan.

Boshlang'ich matematikaning asosini natural son va nol, butun musbat sonlar ustida to'rt arifmetik amal hamda ularning asosiy xossalari haqidagi aniq tasavvurlar va bu bilimlarga asoslangan og'zaki va yozma hisoblash usullarini ongli va puxta o'zlashtirishni tashkil etish, shuningdek jadval hollaridagi hisoblash malakalarini avtomatizm darajasiga yetkazilishini tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. R.Ibrohimov. Matematikadan masalalar to'plami. T.1996.
2. M.Jumayev Matematika o'qitish metodikasidan praktikum. T.2004



THE SIGNIFICANCE OF VISUAL ELEMENTS IN EFL COURSE-BOOKS

*Kurbonova Gulnoza Ne'matovna,
The English teacher of the secondary school №
Navai region Karmana district*

There were many instructors in the traditional learning environment, who transferred knowledge to the learners and even up to this day, nothing can replace this function of them (Roselan, 2003). Based on some researches, undoubtedly, it can be claimed that in most of countries course-books are still considered as a main source of education (Aslan, 2010). Course-book, can be one of the best basis if prepared appropriately in terms of both internal and external structures and visual design, it can be thought as a proficient and effective tool in processes of teaching and learning. Many experts in educational systems accept that visual elements such as illustrations, pictures and drawings etc., can have effective role and impact to instructional course-books. Therefore, this article aims to study the essential key element of the curriculum – course-book which provides with a clear structure for teachers and instructors. The main concern will be about the revision based on the literature and previous research papers to explain the importance of course-books as well as the effect of visual elements in the course-books on students' creativity and the variety of tasks teachers can practice with their learners.

Course-books are deemed as the heart of pedagogical activities. They are able to provide learners a wide choice of new and fascinating facts and to create incredible experience (Mahmood, 2011; Thang et al., 2013).

Moreover, course-books are easily accessible for language learners and teachers and they can use them according to their expectations. So the considerable issue is to choose the suitable course-book which needs a careful attention.

Furthermore, there are many researches which show the significance of course-books and especially various visual illustrations which have great impact on learners' motivation and creativity. The visual design and arrangement of a course-book can give prominence to some elements in the course-book. The learners visualize and next understand world while working with illustrations in the course-book (Hibbing and Rankin-Erickson, 2003). And, of course, if we trace back to history we may witness that a number of EFL course-books have moved on from the picture-free days of E. Frank Candlin in the 1960s, through the early black-and-white line drawings of Broughton and O'Neill in the 1970s, to the current range of materials which are full of stylish colour drawings and state-of-the-art photographs (David A. Hill, 2013).

Images and pictures represent part of our life. They are able to motivate learners to study the attached text, increase attention or encourage more detailed processing of textual data which included in illustrations, also they can explain and make clear content that is not easy to perceive, or they can aid to create nonverbal codes. Through the use of pictures learners make active previous knowledge probably something like imagine what will happen in the future or occur in a remote location, recall past events.

According to Li (1996) there is a strong relationship between intelligence and symbolic systems, he believed that intelligence is the using symbolic systems accidentally which help person to think and learn. Visual elements help learners express themselves using their imagination and they affect their communication and creativity. Moreover, there are many discussions about the role and efficiency of implementing visuals as a facilitator of learning in educational systems and some studies proved that visual elements in learning material are considered as attractive and cheerful factors of reading (Peeck, 1993).

The most advantageous side of using pictures in course-books is a wide range of tasks designed around them. Their implementation can vary according to the level and learning aims of learners. The following activity types can be found in many EFL course-books:

1. Activities dealing with precise elements of the unit language focus (syntax/vocabulary);
2. Finding objects from a written list in the picture.
3. Matching written texts with pictures.
4. Using situations in pictures to work out what people are saying.
5. Using the pictures as cues for written grammar drills.



6. Giving physical descriptions of people or places in the pictures.
7. Recognizing and labelling people/objects on the basis of a listening passage.
8. Spotting differences between details in the picture and information given in the recording.
9. Deciding what people are saying in the pictures based on the recorded dialogues.
10. Illustrations which clarify details in a reading text.
11. Looking for information in the picture.
12. Making judgements and inventing information about people and situations in the pictures.

The article attempted to define importance of course-books and the impact of their visual elements on learner creativity and verification of tasks based on them. Evidently, images can influence the quality of the book. Frequently the unique and creative interpretation of characters and setting in pictures can come up learners very well.

Therefore, illustrations and words together are effective factor to foster impression on to the learners.

Reference

1. Aslan, C. (2010) An analysis of Turkish and French literature textbooks' outer structure and visual elements. *Procedia-Social and Behavioral Sciences*, 2(2) 880-889.
2. Hibbing, A.N., and Rankin-Erickson, J.L. (2003). A picture is worth a thousand words: Using visual images to improve comprehension for middle school struggling readers. *The Reading Teacher*, 56(8), 758-770.
3. Li, R. (1996). *A theory of conceptual intelligence: Thinking, learning, creativity, and giftedness*. Westport, CT: Praeger.
4. Mahmood, K. (2011). Conformity to quality characteristics of textbooks: The illusion of textbook evaluation in Pakistan. *Journal of Research and Reflections in Education*, 5(2), 170-190.
5. Peeck, J. (1993). Increasing picture effects in learning from illustrated text. *Learning and Instruction*, 3(3), 227-238.



SHARQ ALLOMALARINING BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARINI IJODIY FIKRLASH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH BORASIDAGI QARASHLARI ASOSIDA TA'LIM-TARBIYA BERISH YO'LLARI

Latibjonova Nargiza Abdujabborovna

Sirdaryo viloyati Oqoltin tumani

15-umumta'lim maktabi boshlang'ich sinfi o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'quvchilarni ijodiy fikrlashga yo'naltirishda sharq allomalarining qarashlari va ular asosida ta'lim-tarbiya berish imkoniyatlari haqida fikrlar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: ijodiy fikr, ta'lim-tarbiya, sharq allomalari.

Davlatimizning mustaqillikka erishuvi ta'lim va o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarining milliy shakllarini rivojlantirishga keng imkoniyatlar ochib berdi. Bugungi kunda o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarining asosiy maqsadi – yosh avlodni har tomonlama yetuk, jamiyatimiz taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan barkamol insonlar etib shakllantirishdir. O'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun birinchi galda sharq mutafakkirlarining meroslari dasturil amal bo'lib xizmat qiladi. Al-Farobiy, A.Yassaviy, B.Naqshbandiy, Al-Buxoriy, Beruniy, Ibn Sino, al-Xorazmiy, al-Farg'oniy, Firdavsiy, Amir Temur, Alisher Navoiy va Bobur singari jahonga taniqli bir necha aql egalari ijtimoiy-siyosiy, falsafiy qarashlariga tayanib ish ko'rsa o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish ishlari yanada mukammallik kasb etadi. O'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish – bizning burchimizdir. Lekin, bu g'oyada murakkab jarayon bo'lib, u ko'plab, oylab, yillab mehnat qilishni, sabr-toqatni, chidam va qat'iyatlilikni, irodani talab etadi.

Forobiyning fikricha, ta'lim-tarbiya jarayonining har bir bosqichida o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishi o'ziga xos tarzda fikrlash, tasavvur qilish va his etish orqali amalga oshadi. "Bolada katta imkoniyatlarga ega ko'ngil bor," - deydi Forobiy. U his-tuyg'uga, tafakkur orqali anglash xususiyatiga ega. Hissiyot va tafakkur bilan jismlar tushuniladi.

Ibn Sino ta'limda bilimlarni o'zlashtirish his etish yo'li bilan amalga oshirilganda katta samara berishini alohida ta'kidlagan. Bu jarayon daxl qilish, ushlab ko'rish, bevosita ishtirok etish yo'li bilan amalga oshishi zarurligini asoslagan. Alloma ta'lim-tarbiyada erkinlik bo'lishiga e'tibor qaratgan. Erkinlik o'z-o'zidan tafakkur mustaqilligini ta'minlaydi, fikr kishisini tarbiyalaydi, shaxsning ma'naviy kamolotiga sabab bo'ladi. Bilimlarni bolalar tuyg'ulari orqali hissiy o'zlashtirishi uchun o'qituvchining har bir so'zi imo-ishora va yuz harakatlari bilan mos bo'lishi kerakligini ta'kidlagan. Fikrlash xususida so'z yuritib, uning mantiqqa asoslanishi lozimligini aytgan. Uningcha, mantiq fikrlashning qurolidir. Borliqni anglash mantiqqa asoslanishi kerakligini Ibn Sino alohida ta'kidlagan.

Umar Xayyom ham ijodiy fikrlash o'quvchi taraqqiyotining har bir bosqichida o'ziga xos tarzda namoyon bo'lishini alohida ta'kidlagan. U o'zidan avvalgi olimlarning ishlarini o'rganib, ularda o'quvchini bezovta qilish, qiziqtirish uchun ijodiy fikrlash, bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirish bilan bog'liq qarashlarning yo'qligi noma'qul ekanini ta'kidlagan. Umar Xayyom u yoki bu matematik holatlarni tushuntirishda erkin yondashuv zarurligini qayd etgan va o'quvchi ta'lim jarayoni davomida muttasil ravishda ijodiy fikrlashga da'vat qilib, yo'naltirib turilishi kerakligini ko'rsatgan.

O'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonida kishining turli qobiliyatlari rivojlanadi, g'oyaviy, axloqiy, irodaviy, estetik xislatlari shakllanadi, tabiatga, jamiyatga ilmiy qarashlar tizimi tarkib topadi, jismoniy kuch-quvvatlari mustahkamlanadi.

Pedagog olimlar o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarining hayot bilan bog'liqligi, bolaning yoshi, o'ziga xos xususiyatlari, hatto jinsiy tafovutini hisobga olish ham qonun deb hisoblaydilar. Ko'pchilik manbalarda bu xususiyatlar o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarining prinsipi sifatida qaraladi.

- o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishning ma'lum maqsadga qaratilganligi;

- o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishning insonparvarlik va demokratik



prinsipi;

- o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishning hayot va amaliyot bilan bog'liqligi prinsipi;

- o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarining ustuvorligi;

- o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishda ularning yosh va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish prinsipi;

- izchillik, tizimlilik, o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishda tarbiyaviy ta'sirlarning birligi va uzluksizligi prinsipi;

- bola shaxsini o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashda hurmat va talab birligi prinsipi;

- mustaqillik, havaskorlik va tashabbuskorlikni o'stirish prinsipi

O'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarining ma'lum maqsadga qaratilganligi prinsipi bolalar jamoasining rivojlanish istiqbollari ko'ra bilishda muhim o'rin tutadi.

Bunda ko'zlangan asosiy maqsad ma'naviy yetuk, aqliy va axloqiy barkamol shaxsni, komil insonni aniqlashdan iboratdir. Shunga ko'ra o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlari mazmuni, shakli va usullari ham aynan ana shu maqsadga qaratilgandir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. M.Kulaxmetova "Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish imkoniyatlari". "Sano – Standart" T-2012 –yil.

2. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. –T.: A.Qodiriy, 1993.



TEKNOLOGIYA FANI DARSLARIDA O‘QUVCHILARNI KASBGA YO‘NALTIRISHDA FANLARARO ALOQADORLIKNI TA‘MINLASH

*Mirzayeva Saodat Ismoilovna
2- umumiy o‘rta ta‘lim maktabi
texnologiya fani o‘qituvchisi,
Kogon tumani, Buxoro viloyati.
rustmergashev8362@gmail.com*

Annotatsiya: ushbu maqola o‘quvchilarda kasbga doir bilimlar, ko‘nikma, malakalarni va mavjud tushunchalarni, tasavvurlarni boyitishga xizmat qiladi. Maktab o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish muammolari, kasbiy shakllanish jarayonida shaxs taraqqiyoti va shaxsning kamoloti masalalarini hal qilishni ko‘zda tutadi. O‘quvchilar kasb tanlayotganda ta‘sir etuvchi omillar ya‘ni barcha fanlar tanlagan kasblari uchun aloqadorligini va ular haqida tushunchalarga ega bo‘lishlari kerakligini bilib olishlari muhimdir. Shuning uchun maktablarda, bilim yurti va oliy o‘quv dargohlarida fanlarni o‘qitish-o‘rgatish ishlarida fanlararo bog‘lanish va aloqalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Xuddi shu singari texnologiya darslarini ham boshqa fanlarga bog‘lab o‘tish samarali natijalar beradi, dars samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri bo‘lib hisoblanadi.

Kalit so‘zlar : texnologiya fani, kasbga yo‘naltirish, fanlararo aloqadorlik, kasbni to‘g‘ri tanlash, fanlararo uzviy bog‘liqlik, qo‘l mehnati, zamonaviy texnologiyalar.

Kasb tanlash - har bir inson hayotida muhim o‘rin egallaydi. Bu ishga qanchalik erta, maqsadli va mas‘uliyat bilan kirishilsa, shunchalik yaxshi. Kasbni to‘g‘ri tanlash uchun imkon qadar ko‘proq mutaxassisliklar haqida chuqur tushunchalarga ega bo‘lish lozim. Chunki inson tanlagan kasbi bo‘yicha to‘liq va obyektiv ma‘lumotlarga ega bo‘lsa, xato qilish ehtimoli shunchalik kam bo‘ladi.

*Yangi O‘zbekistonni, albatta, yoshlar bilan birga quramiz !
Sh.Mirziyoyev*

Davlatimiz rahbari prezidentlik lavozimini qabul qilib olgan kunlaridanoq yoshlar masalasiga katta e‘tibor bera boshlagan edi. Ya‘ni yoshlarni kreativ fikrlaydigan, vatanparvar va yuksak ma‘naviyatli qilib tarbiyalashga alohida e‘tibor berdi. Qaysi bir rivojlangan xorijiy mamlakatlar tarixiga nazar tashlasak, ularda avvalo ta‘lim tizimi masalasi birinchi navbatda isloh qilinishiga guvoh bo‘lamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 27-dekabr kuni Muhammad al-Xorazmiy nomidagi maktabda yoshlar bilan uchrashuv o‘tkazib ushbu fikrlarni ilgari surgan edi. Darhaqiqat o‘zib kelayotgan yoshlarga ta‘lim – tarbiya berish bilan bir qatorda, ularni ma‘lum bir kasblarga yo‘naltirish har doim davlatimiz, xususan xalq ta‘limi vazirligi oldida turgan asosiy vazifalardan biri bo‘lib kelmoqda. Bu muammolarni yechishda birinchi o‘rinda o‘quvchilarning ota – onalari va pedagog – xodimlarning o‘rni beqiyosdir. O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirayotganda har bir fan bir – biri bilan uzviy bog‘liqligini o‘quvchilarga tushuntirib ongiga singdirish kerak. Masalan texnologiya sohasida o‘quvchi biror bir yangilik yaratmoqchi bo‘lsa albatta uning o‘lchamlari, shakli va chizmasini chizib bilishi, chizma asosida modelini yasashi, modelini chiroyli ko‘rinishga keltirira olishi kerak bo‘ladi. Buning uchun o‘quvchilardan tanlagan yo‘nalishiga oid fanlardan chuqur bilim talab etiladi. O‘zbekistonimizda buning uchun ulkan imkoniyatlar mavjud. Mamlakatimizda qabul qilingan “**Ta‘lim to‘g‘risida**”, “**Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida**”gi qonunlardan ko‘zlangan asosiy maqsad bu bilamizki, ta‘lim-tarbiya ishlarini tubdan yaxshilash, jahon andozalari talablariga javob beradigan mutaxassis-kadrlarni tayyorlashdan iborat. Sog‘lom - barkamol avlodga zamonaviy texnologiyalar asosini o‘rgatish, ularni ishlab chiqarish sohalariga tayyorlash umumiy o‘rta ta‘lim, maktablarining asosiy vazifasi hisoblanadi. Bu vazifalarni bajarishda o‘ylamanki, texnologiya darslarining alohida o‘rni va ahamiyati bor. Texnologiya fani (mehnat) umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida uzoq vaqt o‘qitilib kelingan fanlardan biridir. Texnologiya fanidan yangi tahrirdagi davlat ta‘lim standartlarida, umumiy o‘rta maktablari o‘quv rejasida texnologiya fanining o‘rni belgilab qo‘yilgan.

Ma‘lumki, fanlarni o‘qitish - o‘rgatish ishlarida fanlararo bog‘lanish va aloqalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Xuddi shu singari texnologiya darslarini ham (boshqa fanlarga bog‘lab



o'tish samarali natijalar beradi, dars samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri bo'lib hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni asosida mamlakatimizdagi ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya ishlari tubdan yaxshilanmoqda. Bunda ta'lim-tarbiya berish usullarini takomillashtirish, yangilarini izlab topish va ulardan samarali foydalanish masalalariga katta e'tibor qaratilmoqda. Jumladan ta'limda fanlararo bog'lanishlardan foydalanish ham katta ahamiyatga ega. Malumki, har qanday fan o'ziga yaqin bo'lgan boshqa fanlarning ta'sirida yuzaga keladi va ular bilan birgalikda rivojlanadi. Shuning uchun maktablarda, bilim yurti va oliy o'quv dargohlarida fanlarni o'qitish-o'rgatish ishlarida fanlararo bog'lanish va aloqalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Xuddi shu singari texnologiya darslarini ham boshqa fanlarga bog'lab o'tish samarali natijalar beradi, dars samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri bo'lib hisoblanadi. Texnologiyada fanlararo bog'lanishlarni ikki xil ko'rinishga bo'lish hamda ularni shartli ravishda ichki va tashqi fanlararo bog'lanishlar deb atash mumkin. Texnologiya darslarida ichki bog'lanish deganda shu sohaga oid fanlardagi mavzularning o'zaro bog'lanishi, aloqadorliklari tushuniladi. Tashqi bog'lanish esa texnologiya darslarini (boshqa fanlar bilan bo'ladigan bog'lanishlarini bildiradi.

"Ta'lim to'g'risida" gi qonunning 9 - moddasida belgilab qo'yilganidek: "Tayanch o'rta ta'lim dasturiga muvofiq ta'lim oluvchilarga bilim, malaka va ko'nikmalarning zaruruy hajmini beradi, ularda fikrlash va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi".

"Tayanch o'rta ta'lim doirasida (VII – sinfdan so'ng) ta'lim oluvchilarga kasblar bo'yicha birlamchi bilim va ko'nikmalarni shakllantirish uchun ularni professional tashxislash va kasb – hunarga yo'naltirish bo'yicha choralar amalga oshiriladi".

"O'rta ta'lim o'quv dasturiga muvofiq ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalar o'zlashtirilishini, shuningdek ta'limning keying turi tanlanishini hamda yuqori malaka talab qilinmaydigan kasblar egallanishini ta'minlaydi"

Texnologiya darslari umumiy o'rta ta'lim maktablarida uch bosqichda olib boriladi:

I. I-IV sinflardagi texnologiya darslari. Bunda boshlang'ich sinf o'quvchilariga dastlabki mehnat bilimi va ko'nikmalari singdiriladi.

Bu mashg'ulotlarda bolalar qog'oz, yelim, mato, plastilin singari materiallar va pichoq, qaychi, igna kabi mehnat qurollaridan foydalanishga oid dastlabki saboqlarni oladilar. Boshlang'ich sinflardagi bu mashg'ulotlar bolalarda mehnat malakasi va ko'nikmalarning shakllanish xususiyatiga ko'ra oddiylikdan murakkabga, osondan qiyinga qarab borish tamoyili asosida tashkil qilinadi. Boshlang'ich sinflarda texnologiya fani ko'proq tasviriy san'at, tabiat fanlari bilan bog'liq ravishda olib boriladi. Bolalar tabiatdagi barglar, mevalar, gullar va boshqa shu kabi narsalarning rasmlarini chizib, ularni qaychi yordamida qirqib olib, ularni qog'ozga yelim bilan yopishtiradilar. Shunday ishlar orqali o'quvchilarda mehnat jarayonlarida material va ish asboblaridan tartibli, oqilona foydalanish bo'yicha dastlabki ko'nikmalar yuzaga keltiriladi, boshlang'ich harakat elementlari shakllantiriladi. Mana shu qo'l mehnatidagi ishlar bevosita tabiat va rasm fani bilan bog'lanadi. Shu bilan birga bunday mashg'ulotlar bolalarga dastlabki nafasat, iqtisodiyot tarbiyasi berishga ham xizmat qiladi. Bu esa o'quvchilarning kelgusi sinflardagi texnologiyada darslarini oson va puxta o'zlashtirishlariga asos bo'ladi.

II.V-VII sinflardagi texnologiya darslari.

Bu darslar 2 yo'nalishda amalga oshiriladi:

1) texnologiya va dizayn

2) servis xizmati

Texnologiya va dizayn - yo'nalishi bo'yicha olib boriladigan darslarda o'quvchilarga yog'och va metallar bilan ishlash, elektrotexnik va turmushda ta'mirlash ishlari bo'yicha umumiy ma'lumotlar beriladi, shu ishlarga oid materiallar, asbob-uskuna va dastgohlardan foydalanish usullari o'rgatiladi.

Servis xizmati - yo'nalishida asosan, qizlarga bichish-tikish va pazandachilikka oid dastlabki nazariy va amaliy bilimlar beriladi.

III.VIII-IX sinflarda ishlab chiqarish asoslari va kasb tanlashga yo'llash bo'yicha mashg'ulotlar olib boriladi. Bunda o'quvchilarga turli kasblar, jumladan, duradgorlik, chilangarlik, tokarlik, mexanizatorlik, shofyorlik, elektrotexnik, radiotexnik, tikuvchilik, pazandachilik, to'quvchilik kabilar bo'yicha dastlabki tushunchalar beriladi. Mazkur bosqichning vazifasi, o'quvchilarni kasb tanlashga yo'llash ishlarida yakunlovchi ahamiyatga ega. Binobarin bular



o'quvchilarning kelgusida kasb-hunar kollejlariidagi, faoliyatlariga asos sifatida xizmat qiladi. Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, texnologiya fanining bunday ketma-ketlikda o'qitilishi bir-biri bilan uzviy bog'langan bo'lib, ular bir-birlarini mustahkamlab va to'ldirib boradi. Agar boshlang'ich sinflarda tayyorlov ko'rinishidagi o'quv mashg'ulotlari o'tilsa, V-VII sinflarda ular takomillashtirilib kengroq bilimlar beriladi. Yuqori sinflarda esa ma'lum bir ixtisosliklar bo'yicha kasblarga yo'naltiriladi. Ko'rinib turibdiki, texnologiya fani bu bosqichlarda o'zaro uzviy bog'lanib, oddiydan murakkabga, osondan qiyinga qarab borish tamoyili asosida olib boriladi. Texnologiya o'qituvchisining vazifasi shu tamoyilga amal qilgan holda yangi materialni, oldin o'tgan materiallar bilan bog'lab olib borishdir. Bu ishlar fanlararo bog'lanishlarning ma'lum bo'lgan uch turi, ya'ni yangi mavzuni o'tishdan oldin, yangi mavzuni o'tish davomida va yangi mavzuni o'tib bo'lganidan so'ng bog'lash usullaridan foydalanib amalga oshiriladi. Texnologiyada tashqi bog'lanishlar esa uning boshqa sohalar va fanlar bilan bo'lgan o'zaro aloqasini bildiradi. Umuman olganda, Texnologiya darslarini maktabda o'tiladigan barcha fanlar bilan bog'lash mumkin. Amalda esa texnologiya darslari ko'proq chizmachilik, tasviriy san'at, fizika, matematika, jismoniy tarbiya, ona tili va adabiyot, kimyo, geografiya, informatika, tarix, biologiya kabi fanlar bilan bog'lana

TEXNOLOGIYA VA TASVIRIY SAN'AT.

Texnologiya fanida rasmlarning tutgan o'rni benihoya kattadir, chunki birorta detal yoki buyumni yasashdan avval uning rasmi yoki eskizi chiziladi va o'quvchilarga ko'rsatiladi. O'quvchilar ham ana shu rasmlarni daftariga ko'chirib chizib oladilar. Ko'rinib turibdiki, bu yerda o'quvchilarda har xil rasmlar chizish malakasi ham shakllana boradi. Lekin tajribalardan ma'lumki, rasm chizish oson ish emas. Ko'pgina o'quvchilar rasm chizishga oid yetarli ma'lumot va malakaga ega bo'lmaganliklaridan bu ishni bajarishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Shu sababli o'qituvchi texnologiya darslarida o'quvchilarga buyumlarning texnik rasmi, eskizi, yaqqol tasviri, perspektiva, rasmlarni chizishdagi ish ketma-ketligi shuningdek, ranglarni farqlash, ularni mutanosib joylashtirish va shu kabilar haqida ham tushuncha berib borishga to'g'ri keladi.

TEXNOLOGIYA VA INFORMATIKA

Hozirgi zamon sanoatida mahsulotlarni ishlab chiqarishga oid texnologik jarayonlarni takomillashtirib borishni elektron hisoblash mashinasi va informatika asoslari fanisiz amalga oshirish qiyin. Shuning uchun texnologiya darslarida o'quvchilarning elektron hisoblash mashinasi va informatika asoslari fani bo'yicha olgan bilim, ko'nikmalarini hisobga olgan holda ularni ishlab chiqarish jarayoniga qanday tadbiriq etishga oid tushunchalarni berib borish zarur. Masalan, o'quvchilarga materiallarga mexanik ishlov berish bo'yicha tokarlik, frezalash, randalash, prokatlash, parmalash stanoklari bilan tanishtirayotganda o'quvchilarga hozirgi kundagi takomillashgan avtomat va yarim avtomat dasturlashtirilgan stanoklarning ishlash prinsiplari, nimaga asoslanib ishlashini aytib o'tish joizdir. O'quvchilarga yuqorida aytilgan stanoklarda bajariladigan operasialarni bir stanokda, ya'ni dasturlashtirilgan sistemadagi stanokda bir necha ishlar; yo'nish, teshish, rezba ochish, pardozlash va boshqa operasialarni bajarishdagi qulayliklar haqida gapirib o'tilsa yanada yaxshiroq bo'ladi. Shuningdek, bunday ishlar uchun dastur tuzishning ahamiyati haqida ham alohida to'xtalib o'tish kerak Ekskursiya soatlarida esa shu toifadagi stanoklarni ko'rsatish, mehnat va informatika fanlaridan olgan bilimlarini mujassamlashtirib borish maqsadga muvofiqdir.

Zamon shundayki, unda har bir o'g'il – qiz o'zi uchun muhim bo'lgan kasbni egallashga va ishlashga o'zini tayyorlab borishi kerak. Ayniqsa bitiruvchi sinf o'quvchilarini kasb tanlayotganda har bir fan alohida ahamiyat kasb etishini ularning ongiga singdirib borishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. N.M.Mardonova, N.M.Sharipov, F.J.Ro'ziyev Kasblar olamiga sayohat .- T; "Turon zamin ziyo", 2016 -3b

2.O'zbekiston Respublikasi " Ta'lim to'g'risida" gi qonuni .2020- yil 19- mayda qabul qilingan.



JAMIYATDA BOLANING O‘ZINI-O‘ZI ANGLASHI JARAYONIDA OILANING O‘RNI

Mo‘minova Nilyufar
Namangan viloyati Namangan shahar
63-umumta’lim maktabi
Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotasiya: Ushbu maqolada bolaning o‘z-o‘zini anglash jarayonida oila, ota-ona va atrof-muhitning ahamiyati haqida ma’lumot berilgan

Kalit so‘zlar: tarbiya, ota-ona, oila, sog‘lom, kelajak, rahmdillik, ma’naviy fazilatlar, insoniylik, sharqona, yuksalish, qadrlash, hurmat, ahloqiylik, farzand tarbiyasi, barkamol inson.

Azal-azaldan har qaysi ota-ona o‘z bolasining sog‘lom va barkamol, aql-zakovatli, baxtli bo‘lishini istaydi. Shunday farzandni voyaga yetkazish, uning hayotda munosib o‘rin egallashiga erishish – ota-onaning eng ulug‘, eng muqaddas orzusi, desak, ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz.

Biz sog‘lom deganda, nafaqat jismoniy, balki ma’naviy jihatdan ham sog‘lom bolani o‘zimizga tasavvur etamiz.

Yoshlarimizning barkamol bo‘lib etishishida mahalla, oila jamoat tashkilotlari va ta’lim muassasalari alohida o‘rin egallaydi. Kelajak avlod haqida qayg‘urish, sog‘lom, barkamol insonni voyaga etkazishga intilish halqimizga xos milliy hususiyatlardandir. Darhaqiqat, barkamol avlod dastlab oilada vujudga keladi, oila muhitida yaxshi yoki yomon insonlar bo‘lib voyaga etadi.

Oilaviy ma’naviyatni yuksaltirishga shaxs sifatida xar bir oila a’zolarining muayyan ma’naviy dunyoga ega bo‘lishi ular o‘rtasidagi munosabatlar asosida vujudga keladi. Oilada ota va onaning ma’naviy fazilatlarini er-xotinlik munosabatlarining sharqona an’analari insoniylik va axloqiylik darajasini belgilab beradi. Oila ma’naviy olami o‘zaro hurmat, qadrlash, hamkorlik, murosasozlik, mehribonlik, rahmdillik, mehr-oqibat, sabr-bardoshlilik, insonsevarlik, olijanoblik, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat kabi ma’naviy qadriyatlarni o‘zida mujassamlashtirishi muhimdir. Bunday qadriyatlarning oilada e’zozlanishi, bunga amal qilinishi oilada shunday ma’naviy muhitni yaratadi. Bu esa o‘z kelayotgan avlod qalbi va ongi shakllanishida o‘ta muhimdir. SHu asosda har bir oila a’zosining iste’dodi va salohiyati to‘la ro‘yobga chiqishi uchun sharoit yaratiladi. Natijada oila ma’naviyat maskani sifatida shakllanib boradi.

Oilalar tarbiyasi – bu umuminsoniy jarayonning shunday bosqichidirki, keyinchalik butun umri davomida oladigan ma’rifat va hayot saboqlari uchun asos, zamin poydevor vazifasini o‘taydi. Har bir ota-ona o‘z burchlarini anglagan holda oilani mustahkamligini ta’minlaydigan hamma xususiyatga to‘liq rioya qilishga harakat qilishi, uning vazifa va maqsadlarini tushunishi shart.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyidagi nutqida ta’kidlaganidek, “Bugungi kunda yurtimizda tobora keng tarqalib borayotgan. “O‘z bolangni o‘zing asra” degan da’vat faqat quruq shior bo‘lib qolmasdan, har bir ota-ona, har bir fuqaroning qalbiga chuqur kirib borishi amaliy harakatga aylanishi zarur. Buning uchun bu masalani, ya’ni ota-onalarning farzandlar tarbiyasi uchun mas’uliyatini va burchini huquqiy asosda mustahkamlab qo‘yish vaqti keldi, deb o‘ylayman”.

Haqiqatan ham har bir ota-ona o‘z farzandining tarbiyasi uchun javobgar hisoblanadi. Farzandlarimizning tarbiyalashning muhim shartlari oilalarning mustahkam, ma’naviy sog‘lom asosda qurilganligi, ayniqsa, ota-onaning o‘zi tarbiyalangan bo‘lishidir. Ota-onalar farzandining bugungi muallimi hisoblanadi. Chunki farzandga til o‘rganish, kitob o‘qishga qiziqtirishi aynan oiladan boshlanadi. Hozirgi kunda farzandlarimizning har qanday insoniylikdan yiroqlashtiradigan illatlardan asrash uchun ularni ilm olishga, kitob o‘qishga qiziqтира bilish lozim. Farzandni tarbiyasida har bir ota-ona o‘z mas’uliyatini har bir daqiqa his qilib yashashi lozim.

Oilada sog‘lom muhit mavjud bo‘lgandagina, ularda har tomonlama sog‘lom, barkamol inson shakllanadi. Yoshlar tarbiyasi xususan jismonan baquvvat, aqlan sog‘lom, umuminsoniy madaniyat, darajasi yuqori, zamonaviy bilim va kasbga ega bo‘lgan kelajak avlodni voyaga etkazishda oila ma’naviyatining tutgan o‘rni alohidadir.

Oilaning har bir a’zosi millatning davomiyligini saqlovchi milliy va umuminsoniy qadriyatlarning rivojini ta’minlovchi, ma’naviy va jismoniy barkamol avlodni dunyoga keltirib tarbiyalovchi muqaddas makon ma’naviyat maskanidir.



Insonning shaxs bo‘lib shakllanishida, hayotda o‘z o‘rnini topish, el-yurt ichida izzat-hurmatga sazovor bo‘lishida oila asosiy poydevor hisoblanadi. Oila hayotning abadiylikini davomiyligini ta’minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga kelajak nasllarni qanday inson bo‘lib etishishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan tarbiya o‘chog‘idir.

Bolaning psixik rivojlanishi uning ruhiyatiga ta’sir ko‘rsatuvchi obyektiv va subyektiv omillarga, xususan undagi o‘zlikni anglash, o‘ziga-o‘zi beradigan baholar hamda munosabatlarning xarakteriga bog‘liqdir. Bu, avvalo, inson shaxsining psixologik asoslarini shakllantiruvchi, uning emotsional, intellektual va ijtimoiy rivojlanishiga zamin yaratuvchi ontogenezning dastlabki bosqichlariga taalluqlidir. Bunda oiladagi munosabatlar, xususan, ota-onalar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar, shuningdek, ota-ona va farzandlar o‘rtasida o‘rnatiladigan munosabatlarning tabiati katta rol o‘ynaydi. Oila ijtimoiy guruhlarining eng kichigi bo‘lib, bolada o‘zi va o‘zgalar to‘g‘risida shakllanadigan ijtimoiy tasavvurlarning dastlabki muhiti sifatida katta ijtimoiy ahamiyatga molik maskanidir,

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Musurmonova O. “Ma’naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi”. Toshkent 2006
2. Mavlonova R. To‘rayeva O. “Pedagogika”. O‘qituvchi 2012



INGLIZ TILI DARSLARIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

*Narziyeva Gulshan,
Navoiy viloyat Qiziltepa tuman
9-umumta'lim maktab ingliz tili o'qituvchisi*

Zamonaviy pedagogik texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitishning ilg'or uslublarini joriy etish yo'li bilan, o'sib kelayotgan yosh avlodni chet tillarga o'qitish, shu tillarda erkin so'zlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish hamda buning provardida, ularning jahon sivilizatsiyasi yutuqlari hamda dunyo axborot resurslaridan keng ko'lamda foydalanishlari, xalqaro hamkorlik va muloqotni rivojlantirishni nazarda tutadi. Bu maqsadga albatta ta'lim-tarbiya orqali erishiladi.

Pedagogik texnologiyalarning o'ziga xos jihatlari yana shundan iboratki, unda o'quv maqsadlarga erishishni kafolatlaydigan o'quv jarayoni loyihalashtiriladi va amalga oshiriladi. Ta'lim-tarbiya maqsadi va vazifalarini shunday belgilash kerakki, unda umumiy jamiyat o'quv maqsadlari va har bir bosqichlarining aniq maqsadi va vazifalari mushtarak bog'liqligini ta'minlashi lozim.

Ta'lim-tarbiyaning shuningdek, til o'rganishning kafolatlangan natijasini esa zamonaviy pedagogik texnologiyalar orqali amalga oshirish mumkin. Chunki, pedagogik texnologiyada ta'lim-tarbiya jarayonidagi o'quv maqsadlari kutilayotgan natijaga muvofiq o'qituvchi tomonidan oldindan loyihalanadi. O'quv materialini didaktik loyihalash masalasi o'zbek pedagog olimi M. Mahmudov tomonidan ancha keng tahlil etilgan. U «Didaktik loyihalashning ilk qadami o'qitish va o'qish maqsadlarini aniqlashdan iborat»¹, - deb hisoblaydi va o'quv maqsadlarini to'rt toifaga ajratadi: bosh maqsad, oraliq maqsad, hatti-harakatga teng maqsad, erishilgan natijani o'lchash me'yori va baholash usuli. Ta'lim jarayoni bosh maqsadni mo'ljallab tashkil etiladi. Oraliq maqsadlarni amalga oshirish esa bosh maqsadga bo'ysundiriladi. Bolalar oraliq maqsadlarga erishish yo'li bilan davlat ta'lim standartida qo'yilgan talablarni o'zlashtirishadi. Xatti-harakatga teng maqsadga ko'ra o'quv faoliyatini tashkil etish shart-sharoitlari qayd etiladi, oraliq maqsadga erishishga oid vositalar, o'quv holatlari, topshiriqlari, o'quv-biluv faoliyatini amalga oshirish tartibi beriladi. Erishilgan natijani o'lchash me'yori va baholash usulida esa tilni o'zlashtirish bo'yicha turli yozma va og'zaki topshiriqlarni, testlar to'plamini bajarish, o'zi va o'rtoqlari bilimidagi yutuq va kamchiliklarni baholash ko'zda tutiladi. Bu shakldagi ta'lim maqsadini belgilashni ta'lim etaloni, deb qaraladi.

M. Mahmudov tomonidan o'quv maqsadlarini to'rt toifasini o'qituvchi quyidagicha ishlab chiqishi mumkin:

I. Bosh maqsad – o'quv predmetidagi o'rganilishi lozim bo'lgan mavzu shuningdek, «Ta'lim to'g'risida» gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy modelidagi bosh muddao: - komil insonni shakllantirish; Kadrlar tayyorlash milliy dasturida belgilangan vazifalarni hayotga tadbiq qilishga qodir bo'lgan qobiliyatlarni shakllantirish.

II. Oraliq maqsadlar (Ta'lim natijalari) – o'rganilayotgan mavzu mazmun-mohiyatini ochib beruvchi o'quv materialini (qoidalar, ta'riflar, teoremlar va shu kabilar) shuningdek, mavzuga xizmat qiluvchi mustaqillikdan keyingi ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotlar mohiyati; fandagi oxirgi natijalar to'g'risida ma'lumot berish.

III. Harakatga teng maqsadlar (Natijaga erishish shartlari)- Xatti-harakatga teng maqsadga ko'ra o'quv faoliyatini tashkil etish shart-sharoitlari o'qituvchi tomonidan tashkil etilib, o'quvchilar tomonidan o'quv materialini innovatsion metodlar va ta'lim vositalari orqali o'zlashtirish nazarda tutiladi. (Bunda o'quv holatlari, topshiriqlari, o'quv-biluv faoliyatini o'yinli texnologiyalar, individual ta'lim texnologiyalari, shaxsga yo'naltirilgan texnologiya, muammoli ta'lim texnologiyalari, tabaqalashtirilgan ta'lim texnologiyalari orqali amalga oshirish tartibi berilishi mumkin).

IV. Erishilgan natijani o'lchash me'yori (baholash usuli) - guruhlarga bo'lingan holda berilgan mavzuni «O'ylab top» strategiyasi asosida yangi leksik birliklarning ishlatilishini mashq qilish; turli loyihalar ustida ishlash: “Seasons”, “My Family Tree”, yoki o'z qobiliyatlarini “Hello It's

¹ M.Mahmudov. Ta'limni didaktik loyihalash. Toshkent: Fan, 1999.-79 b.



me”, “My Granny is the Best” va shu kabi mavzularda esse yozish; mavzu yuzasidan tekstni tarjima qilish yoki tahlil qilish; mavzu yuzasidan og‘zaki hikoya tayyorlash; berilgan vaqt doirasida testlar to‘plamini bajarish; mashg‘ulot davomida berilgan savollarga javob berish va h.k.

O‘qituvchi o‘z o‘quvchilarining dars jarayonidagi ilmiy – amaliy faoliyatini samarali tashkil qilish avvaldan rejalashtirilgan, aniq bir maqsadga mustaqil matn yaratishga yo‘naltirish uchun har bir dars puxta rejalashtirilshi, darsni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil qilishi, lozim bo‘lsa, yangi mashq namunalari tanlab, qo‘shimcha mashg‘ulot sifatida rejaga kiritishi, darsni guruhlararo musobaqa ruhida olib borishi nihoyatda foydalidir.

O‘qituvchi doimiy ravishda o‘quvchilarni o‘rganilgan mavzu yuzasidan o‘z fikrlarini aytishga undashi, ular tomonidan kiritilgan taklif va mulohazalarni, o‘z iste‘dodini namoyish qilishga bo‘lgan urinishlarini ijobiy tushunishi, bunday ijodkorlik, kashfiyotchilik harakatlarini muttasil rag‘batlantirib borishi, ularga sharoit va imkoniyatlar yaratib berishi zarur bo‘ladi.

O‘quv mashg‘ulotlari pedagogik texnologiya tamoyillari va aniq maqsadlar asosida loyihalanganda o‘quvchining ijodiy qobiliyatini o‘stirish, aqliy salohiyatini kuchaytirish, ilmiy dunyoqarashini kengaytirish va har bir yangilikni tez va to‘la qabul qila olish ko‘nikma va malakalarini tarkib topadi. Ayniqsa, muammoli ta‘lim texnologiyalarni qo‘llash orqali ta‘lim jarayoni amalga oshirilganda o‘quvchilarda ilmiy izlanishga qiziqishi ortib, ijodiy tafakkur yuritish qobiliyatini rivojlantiradi. Natijada egallangan bilim, ko‘nikma va malakalar amaliy faoliyatda tatbiq etiladi, o‘zlashtirish sifati oshadi. Buning uchun o‘qituvchida pedagog injinerlik mahorati bo‘lishi va mavzularning mazmuniga qarab darsni to‘g‘ri loyihalay olishi lozim.

Shuningdek, chet tilida o‘quvchilarning o‘zaro munosabatlari va ular tomonidan berilayotgan savollarning ham inobatga olinishi talim jarayonining samaradorligini taminlashda o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Ingliz tilini o‘qitishda pedagogik texnologiyaning asosiy mohiyati talimda o‘quvchilarni qiziqtirib o‘qitish va bilimlarni to‘liq o‘zlashtirishga erishishdir. Talimda berilayotgan bilimlarni o‘quvchilarning aksariyat ko‘pchilik qismi puxta o‘zlashtirishi pedagogik texnologiyani joriy etishning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, biz o‘z darslarimizda qo‘llayotgan har bir pedagogik texnologiyalar shuningdek, axborot texnologiyalarining samaradorligini quyidagi mezonlar orqali doimiy kuzatib va takomillashtirib borishimiz mumkin bo‘ladi:

- o‘quv materialini didaktik loyihalashda o‘quv maqsadlarini to‘g‘ri belgilash;
- ta‘lim metodlari va vositalarini to‘g‘ri tanlash;
- pedagogik texnologiya turlarini (o‘yinli texnologiyalar, individual ta‘lim texnologiyalari, shaxsga yo‘naltirilgan texnologiya, muammoli ta‘lim texnologiyalari, tabaqalashtirilgan ta‘lim texnologiyalari) o‘quvchilarning yoshi va bilim darajasini inobatga olgan holda to‘g‘ri tanlash;
- o‘quvchilarning ijodiy ishlarini doimiy tashkil etish;
- o‘zlashtirish darajasini muntazam ravishda monitoringini olib borish;

Bunday turdagi faoliyat juda ham foydali va samarali hisoblanadi, chunki u o‘quvchilarning o‘z natijalarini ko‘rishga, olgan bilimlarni tizimlashtirishga, o‘qituvchiga esa keyinchalik amalga oshiradigan faoliyatni rejalashtirishga yordam beradi



BOSHLANG'ICH SINIF MATEMATIKA DARSLARIDA AXBOROT TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

*Namangan viloyati Namangan tumani
7-sonli maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi
Nasriddinova Zulfiya, Tojimirzayeva Nargiza*

Annatsiya: Jamiyatning har bir a'zosi o'zining kundalik faoliyatida, uzluksiz ravishda turli axborot resurslaridan foydalanadi.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich, o'qituvchi, axborot texnologiyalari, ta'lim, kompyuter, bilim.

Hozirgi kunda o'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning imkoniyatlari va talablarini inobatga olishi zarur. O'qituvchi tomonidan targ'ib etilayotgan ta'lim va tarbiya tizimi shaxsga yo'naltirilgan xarakterda ega bo'lishi, ya'ni shaxsning har xil xususiyatlari va sifatiga e'tibor qilgan holda tabaqalashtirilgan bo'lishi kerak.

Bilimlarni o'zlashtirish fikrlashni rivojlantiruvchi muhim omil hisoblansada, bilimlarni har qanday o'zlashtirish yoki egallash o'quvchining fikrlashiga rivojlantiruvchi ta'sir ko'rsatmaydi. Buning uchun bilimlarni faoliyat shakllarini faollashtirish lozim. Egallangan bilimlarni oddiy qaytarish o'quvchi va o'quvchilarning mustaqil fikrlashlarini rivojlantirishda yetarli bo'lmaydi. Faol bilish, mustaqil fikrlash faoliyati juda zarurdir. Bilimlarni mustaqil egallash faoliyati va olingan bilimlarni qo'llash jarayoni yangi bilimlarni shakllanishiga, o'quvchining samarali fikrlash manbaiga aylanadi.

Ma'lumki ta'lim mazmunini takomillashtirishning bosh xususiyatlaridan biri kompyuter bilan muloqot jarayonida uning doimiy murojaat qilinadigan «qo'llabquvvatlovchi axboroti»ni ko'paytirish, kompyuter axborot muhiti va hozirgi zamon talablariga javob bera oladigan darajadagi axborot bazasining yaratilganligi, gipermatn va multimedia, o'qitishda imitatsiya, kommunikatsiya tizimlari qabul qilingan

O'quvchilar bilimi sifatlarini test savollari yordamida aniqlash va psixofiziologik rivojlanayotganligini tashxis qilish maqsadida kompyuter tizimiga eksport tizimi qo'shimcha kiritilgan bo'lib, bu tizim yordamida elektron tarmoq orqali bilimlarni baholash va bu masala bo'yicha yetarlicha natijalarni aniqlash mumkin.

Kompyuter yordamida turli ilmiy axborotlar, o'quv materiallari bo'yicha axborotlarni tavsiya etishning boy imkoniyatlari, xususan ularga integrativ kurslarni kiritish, fanning tarixi va metodologiyasi bilan tanishish, turli fanlar bo'yicha ularning zamonaviy darajasiga oid bilimlar, madaniyat va ijtimoiy ongga dahldor bilimlarni kiritish, ta'lim mazmunini sezilarli o'zgartirish va keskin boyitishga yordam beradi, uni faollashtirish va rivojlantirishda muhim omil bo'ladi.

Bir qator axborotlarni an'anaviy qayta ishlash uchun ularni tayyorlashning standart shakllari mavjud bo'lib, ularga bibliografiya, statistik ma'lumotlar, referatlar kiradi. Ma'lumotlar bazasi axborot tarkibiga statistik, matnli, grafik va ko'rinishli axborotlarni cheksiz ko'p miqdorda va albatta, belgilangan shakllardagi ko'rinishlarini qabul qiladi

Kompyuterli o'qitish metodikasining boshqa bir muhim xususiyati, u o'qitish jarayonining barcha bosqichlarida, jumladan yangi o'quv materialini tushuntirishda, qaytarishda, umumlashtirishda, o'quvchilarning ma'lum fan bo'yicha erishgan bilim, malaka va ko'nikmalarini tekshirishda namoyon bo'ladi. Bunday jarayonda o'qituvchi kompyuterining o'quvchi uchun turli vazifalarni, xususan o'qituvchilik, ishchi qurol, ta'lim ob'ekti, o'zaro muloqot kabi funktsiyalarni bajarishini bilishi kerak.

Axborot texnologiyalarini ta'lim tizimiga tatbiq etish o'quv jarayonida zamonaviy o'qitish metodlarini qo'llashga keng imkoniyatlar ochadi.

Adabiyotlar:

1. Sh.M.Mirziyoyev. "Erkin va farovon demokratik O'zbekiston Davlatini birgalikda barpo etamiz" –T.: "O'zbekiston" 2016-y -56-b.

2. Abdullayeva B.S va b Boshlang'ich sinflarda matematikadan sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish-Toshkent.: OOO —Jahon printl,2011,146- bet.



BOSHLANG'ICH SINFDA MEHNAT TARBIYASI

*Norimova Ziyoda Jurayevna
Oltiariq tumani 13-maktab
boshlang'ich o'qituvchisi
e-mail: ziyoda@inbox.uz*

Annotatsiya: maqolada boshlang'ich sinfda mehnat tarbiyasini shakllantirish va boshlang'ich sinf o'quvchilarida mehnatga bo'lgan qiziqishni oshirish kabi masalalarga e'tibor qaratilgan

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, mehnat, kasbga qiziqish

Mehnat ta'limi va kasbga tayyorlash vazifalari boshlang'ich maktabda butun ta'lim tarbiya sistemasi va barcha o'quv predmetlari yordamida hal etiladi. Bu o'rinda mehnat darslari yetakchi rol o'ynaydi. Mehnat darslarida konstruktorlik va modellashtirish ishlari olib borilganda, quyidagilar haqida ma'lumot beriladi: ishlab chiqarish asoslari bo'limi: o'quvchilar O'zbekistondagi ishlab chiqarish turlari va tarkibi, ularning bir-biriga bog'liqligi; texnologik jarayonlar, yangi texnika, ilg'or texnologiyalar; mehnat predmetiga mexanik ta'sir etish orqali amalga oshiriladigan texnologik jarayonlar; ishlab chiqarishdagi kimyoviy va fizik-texnologik jarayonlar; fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirish omillari va istiqboli; ishlab chiqarish texnologiyasi; ishlab chiqarishni tayyorlashga oid texnologik hujjatlar; mahsulot ishlab chiqarishni nazorat qilish, o'lchash va taqqoslash texnologiyalari; kadrlarni tayyorlash, malakasini oshirish yo'nalishlari, tartibi va standartlari; mulkchilik turlari, marketing va menejment faoliyatining rivojlanishi; zamonaviy ishlab chiqarishning bozor munosabati bilan uzviyligi; olinadigan daromad va uni taqsimlash qoidalari; mehnatni unumli tashkil etish, tejamkorlik va ishbilarmonlik asoslari; mehnatni ilmiy tashkil etish; tabiatni muhofaza qilish; sanoat miqyosida ko'p seriyali ishlab chiqarish uchun tavsiya etish mumkin bo'lgan mahsulot namunasini tayyorlash. Xalq hunarmandchiligi texnologiyasi bo'limi: o'quvchilar yog'ochga va metallarga ishlov berish jarayonlari bilan uyg'unlashtirilgan xalq hunarmandchiligi texnologiyalari; hunarmandlarning bozor munosabatlari asosidagi faoliyatlari, uyushmalari va uning istiqbollari; hunarmandchilik bo'yicha ko'rgazma va tanlovlarni tashkil qilish va ishtirokchilarni tanlash qoidalari; hunarmandlar tomonidan eksport va ichki bozor uchun ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar; xalq hunarmandchiligida foydalanilayotgan nodir materiallar, asbob-uskunalar; hunarmandchilik mahsulotlarini tashqi shakli uzviyligi va yaxlitligi ta'minlanishiga ko'ra baholash; kompozitsion yaxlitlik; xalq hunarmandchiligiga oid tanlangan bitta kasb-hunar turlari; xalq hunarmandchiligining tanlangan yo'nalishi bo'yicha zamonaviy dizayn talablari bilan uyg'unlashtirilgan mahsulot tayyorlash ish usullari; zamonaviy dizayn talablari bilan uyg'unlashtirilgan xalq hunarmandchilik mahsulotlarini tayyorlash ish usullariga oid bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'ladi.

Maktabda muntazam mehnat ta'limining boshlang'ich bosqichi boshlang'ich sinflardagi mehnat dargohlari va kichik maktab yoshidagi bolalarning qo'lidan keladigan ijtimoiy foydali ishdir. Boshlang'ich maktabdagi mehnat ta'limning asosiy vazifalari mehnatga axloqiy va psixik mehnat, o'quvchilarni boshlang'ich politexnik bilimlar bilan qurollantirish mehnatga amaliy tayyorlashdir. O'quvchilarni mehnatga ahloqiy tayyorlash deganda, ularning mehnat natijalariga hurmat bilan yondoshishlari nazarda tutiladi. Mehnatga ahloqiy tayyorlash - bolalarga kollektivda qo'lashni, do'stona o'zaro yordamni, ijodiy tashabbusni, tashkilotchilik qobiliyatlarini namoyish qilishdan iboratdir.

Mehnatga o'rgatishda bolaning imkoniyatlarini nazarda tutib, hissiy bilish jarayonini takomillashtirish zarur. Bundan tashqari bolaning xotirasini o'stirish hamda alohida ahamiyatga ega. Mehnat bo'yicha o'quv materiallarni eslab qolish boshqa predmetlarga nisbatan o'ziga xos xususiyatga ega. Barcha yangi asboblarni materiallar, operatsiyalarning nomi boshlang'ich sinf o'quvchilari so'z-nomini predmetini ko'rib idrok etish bilan fikran biriktirib, tinglab fahmlaydilar, tushunib oladilar.

O'qituvchi mehnat darsida faqat tushuntiribgina qolmay, balki asosan materiallar va buyumlar namunasini, asboblarni materialga ishlov berish usullarini, operatsiyalarning izchilligini ko'rsatadi. Shuning uchun mehnat ta'limida eshitish, ko'rish xotirasi va har akatlantiruvchi xotira ham muhim rol o'ynaydi. O'quvchilarda mehnat darsidan - mehnat darsigacha yangidan yangi bilim va ko'nikmalar mujassamlashib boradi, ularni esa anglash hamda xotiralab qolish kerak. Mehnat



ta'limining to'g'ri borishida emotsional jarayonlar ham xarakterlidir. Bolalarni qiyinchiliklarni yengishga qo'yilgan maqsadga erishish yo'lida matonat va qatiyat bilan kirishishga o'rganish lozim. Boshlang'ich sinflarda keng ma'nodagi ilmiy asoslar haqida emas, balki politexnik ta'limning elementlari haqida gap boradi. Bu o'quvchilarda fan-texnika yutuqlariga nisbatan qiziqish uyoniishga yordam beradi.

Mehnatga amaliy tayyorlash mehnat ta'limining muhim omillaridan biridir. U o'zaro bog'langan bir nechta elementlardan: oddiy asbob va moslamalardan foydalana bilish u yoki bu materialga ma'lum izchillikda ishlovbera olish, yo'l qo'yilgan xatoni o'z vaqtida aniqlash va to'g'rilay olish kabilardan tarkib topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Z.Ilyosova Ma'naviyati yuksak avlod – vatan ishonchi./Boshlang'ich ta'lim.2010.3-son.
2. G.Elova Milliy qadriyatlarni singdirish/ Bosh. Ta'lim.2009.10-son.
3. Erkaboeva N. Amaliy pedagogika. "Fan va texnologiyalar". T.: 2005.
4. Xaydarov M. Pedagogik amaliyotni tashkil etish metodikasi. T. TDPU. 2003



BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MATEMATIKA FANINING O‘QITILISHI

*Nurmaxamedova Ozoda Xikmatovna
Toshkent shahar Yunusobod tumani
12-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi*

Annatasiya: Ushbu maqolamda boshlang‘ich sinflarda matematika fanining o‘qitilish usullari, matematika fanining o‘rni haqida yozilgan.

Kalit so‘zlar: Matematika, diqqat, qobiliyat, tafakkur.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining deyarli barchasi matematika fanini juda yaxshi ko‘radi. Boshlang‘ich matematika kursining vazifasi maktab oldiga qo‘yilgan “o‘quvchilarga fan asoslaridan puxta bilim berishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish, ularda hozirgi zamon ijtimoiy-iqtisodiy bilimlarni berish, turmushga, kasblarni ongli tanlashga o‘rgatish” kabi vazifalarni hal qilishda yordam berishdan iborat.

Matematika fanining paydo bo‘lishi qanchalik uzoq davrlarga borib taqalsa, ushbu fanni o‘rganish, uni o‘qitilish tarixi ham shu qadar uzoqdadir.

Ota-bobolarimiz tomonidan asrlar davomida yaratilgan ilmiy boyiklar, ular tomonidan yaratilgan asarlar xalqimiz, davlatimiz tomonidan asrlar davomida saqlanib, o‘rganilib kelinilayotgani kelajagimiz vorislari bo‘lgan o‘quvchilarimizga aytish shartdir.

Matematika fani esa doimiy navqiron va qadimiy fandir. u kishilik jamiyati paydo bo‘lgandan boshlab rivojlanib, taraqqiy etib kelmoqda. Hozirgi kunda biron bir soha yo‘qki, unga matematika kirib bormagan bo‘lsin. Matematikaning bu darajada yuksalib borayotganida, albatta, o‘tmish ajdodlarimizning, shu jumladan Al-Xorazmiy, Beruniy, Al-Farg‘oniy, Ali Qushchi, Al-Koshiy, Ibn Sino, Ulug‘bek va boshqa larning xizmatlari buyuk ekanligini e‘tirof etmay ilojimiz yo‘q.

O‘rta asrlarda madrasalarda matematikaning o‘qitilishi keltirilgan ma‘lumotlar asosida amalga oshirilgan. Madrsada matematika o‘qitishdan asosiy maqsadlardan biri meros taqsimlashning ilmiy va amaliy nazariyasini biluvchi mutaxassislar tayyorlashdan iborat edi.

Matematika o‘quvchilarda diqqatni to‘plab olish qobiliyat va faollikni tasavvurini, shaxsning axloqiy sifatlarini (qat‘iyatli, aniq maqsadga intilish, ijodkor, mustaqil, ma‘suliyatli mehnatsevar, intizomli va tanqidiy fikrlash) hamda o‘zining qarash va e‘tiqodlarini dalillar asosida himoya qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Matematikani o‘rganish jarayonida inson taffakurining usul va metodlari qatoriga induksiya va diduktsiya, umumlashtirish va aniqlashtirish, analiz va sintez kabilar qo‘shiladi.

Matematikani o‘rganishda o‘quvchilar o‘zlarinin fikr mulohazalarini aniq va tugal, lo‘nda va mazmunli bayon qilishga matematika yozuvlarini tushunarli batartib, bajarish malakalarini egallaydilar.

Fodalanilgan adabiyotlar:

1. ”Matematika o‘qitish metodikasi” Qosimova N.
2. Aniq fanlar metodikasi
3. Internet saytlaridan



INTERNETDAN FOYDALANISH MADANIYATINI O'QUVCHI – YOSHLARDA SHAKLLANTIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI

Nurmetova Bekposhsha Sadullayevna
Xorazm viloyati Shovot tumani
51-son maktab fizika-matematika
fani o'qituvchisi Tel:+998919156888

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo'lgan internetdan to'g'ri foydalanish, yoshlarda internetdan foydalanish madaniyatini shakllantirish masalalari haqida mulohaza yuritilgan.

Kalit so'zlar: internet, kompyuter, yoshlar, ong, axborot, xavf, tahdid.

Ma'lumki, XX asr ko'plab olamshumul ixtirolar, yangiliklar davri bo'ldi. Birgina kompyuter texnikasini olaylik. U paydo bo'lishidan oldin barcha hisob – kitoblarni inson miyasida, hisob cho'tlari orqali amalga oshirar edi. Asrlar o'tib ma'lumotlarning turi va hajmi ko'payishi tufayli, avval hisoblash mashinasi, so'ng kompyuter ixtiro qilindi. Tobora shiddat bilan rivojlanib borayotgan bugungi kunni ilg'or texnologiyalarsiz tasavvur qilish nihoyatda mushkul. Ular hayotimizning ajralmas bo'lagiga aylanib ulgurdi. Word Wide Web – “butunjahon o'rgimchak to'ri” deb ataladigan Internetning imkoniyatlari bugungi taraqqiyotning tezligiga tezlik, kuchiga kuch bag'ishlayotgani, insoniyat rivojiga mislsiz hissa qo'shayotgani isbot talab qilmaydigan haqiqat.

Internet – inson tafakkuri mahsuli. Ish stolimizda turgan kompyuter shunchaki elektron qurilma sifatida qaray olmaymiz. Internet axborot olish, almashish, uzatishning eng samarali qulay vositasidir. Bugungi kunda dunyoning har bir nuqtasida sodir bo'lgan voqea, yangilik xususida yetarli axborot olishimiz uchun atigi bir soniya kifoya. Internet bir necha yil ichida global tarmoqqa aylanib, nainki axborotlashgan jamiyatni yuzaga keltirdi, balki jahonda globallashuv jarayonining tezlashishiga ham muhim omil bo'ldi. Shu o'rinda mamlakatimizning birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimovning ogohlantirish sifatida bildirgan fikrlarini esga olaylik! ”Shuni unutmash kerakki, bugungi kunda inson ma'naviyatiga qarshi yo'naltirilgan, bir qarashda arziyasiz bo'lib tuyuladigan kichkina xabar ham axborot olamidagi globallashuv shiddatidan kuch olib, ko'zga ko'rinmaydigan, lekin zararini hech narsa bilan qoplab bo'lmaydigan, ulkan ziyon yetkazishi mumkin” degan fikrlar bejizga aytilmagani o'z-o'zidan ma'lum bo'lmoqda. Bugungi kunda yoshlar masalalari mamlakatimiz taraqqiyoti va ravnaqi bilan bevosita bog'liq ekan, ushbu muhim vazifani hal etishda yoshlarga ta'lim – tarbiya berish, ularni turli hil ma'naviy – marifiy tahdidlardan asrash o'ta dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. To'g'ri, internet bizning ishimizni osonlashtirib vaqtimizni tejab, ko'proq yutuqlarga erishishimizda muhim omil bo'lmoqda. Tanganing ikki tomoni bo'lganidek internet tarmog'i orqali “Ommaviy madaniyat” yengil – yelpi hayotga targ'ib etuvchi filmlar, musiqa va kliplar yoshlarimiz ongiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Dunyo miqyosida bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biri yoshlar ongining va manaviyatining bir qator jirkanch oqimlar tasiriga tushib qolishidir. Bunga bir qator omillarni keltirish mumkin;

- Internetga oson kirish;
- Uning yetarli darajada tartibga solinmaganligi;
- Cheksiz auditoriya;
- Internet maydonidagi faoliyatning maxfiyligi;
- Ma'lumotlarni yetkazishdagi tezlik;
- Matn, tasvir va ovoz uyg'unligidagi axborotni joylash kabi qulayliklar bunday niyati buzuq oqimlar yoshlarni balki butun ommani o'ziga jalb etmay qolmaydi.

Har bir inson individ bo'lib tug'ilib, shaxs bo'lib shakllanadi. Shaxs bo'lib shakllanish davomida atrof muhitning turli xil ko'rinishidagi omillar ta'sir ko'rsatadi. Yoshlarning ma'lumotlarni tanlay olish madaniyatining shakllanishida biz pedagog hodimlarning o'rni, albatta, katta.

Ta'lim dargohlaridagi dars jarayonlarida, turli xil ma'naviy – ma'rifiy kechalarda o'quvchi yoshlarga internetdan foydalanish madaniyatini shakllantirish orqali yot g'oyalarning yoshlar ongini egallashining oldini olishimiz zarur.

“Bu dunyoda tabiatda ham, jamiyatda ham bo'shliq bo'lmaydi. Qayerdadir bo'shliq paydo



bo‘ldimi, hech shubhasiz, uni albatta kimdir to‘ldirishga harakat qiladi. Bugungi kunda zamonaviy axborot maydonidagi harakatlar shu qadar tig‘iz, shu qadar tezkorki, endi ilgarigidek, ha, bu voqea bizdan juda olisda yuz beribdi, uning bizga aloqasi yo‘q, deb beparvo qarab bo‘lmaydi. Ana shunday kashfiyotga berilgan xalq yoki millat taraqqiyotidan yuz yillar orqada qolib ketishi hech gap emas” deb bejizga aytilmagan. Shunday ekan vatanimizning ertangi kuni, uning ravnaqi, gullab yashnashi, ertalab quyoshning kulib chiqishi va osoyishta botishi uchun farzandlarimizda internet va kommunikativ tarmoqlaridan foydalanish madaniyatini shakllantirishimiz, ma’naviy bo‘shliqqa yo‘l qo‘ymasligimiz lozim. Buning uchun nafaqat pedagog hodimlar balki ota – onalar ham farzand tarbiyasiga befarqlik bilan emas, balki ertangi kun ma’suliyati bilan qarashlari lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.A.Karimov Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –T.: Ma’naviyat, 2011.
2. www.ziyonet.uz
3. www.uzedu.uz



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA ILMIY DUNYOQARASH ELEMENTLARINI SHAKLLANTIRISHDA ONA TILINI O'RGANISHNING O'RNI

Nurmetova Dilarom Kenjayevna
Xorazm viloyati Yngibozor tumani
26-maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi
+998914212820

Annotatsiya: ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida ilmiy dunyoqarash elementlarini shakllantirishda ona tili o'rganishning ahamiyati va o'rni tahlil etilgan.

Kalit so'zlar; o'quvchi, ta'lim, boshlang'ich sinf, ona tili, dunyoqarash, ahamiyat.

O'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish vazifalaridan biri ularda ilmiy dunyoqarash elementlarini shakllantirishdir. Bu vazifani hal qilishda maqsadga muvofiq ishlashning yetakchi sharti — o'quvchini shaxs sifatida muvaffaqiyatli kamol toptirishdir. Quyida ko'rsatilgan omillar tilni o'rgatish bilan bog'liq holda o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash elementlarini shakllantirish usulini belgilaydi: 1. Tilning ijtimoiy hodisa sifatidagi mohiyati uning aloqa (kommunikativ) vazifasini ifodalashdan iboratdir. Maktabda, shu jumladan, boshlang'ich sinflarda tilni o'rgatishning yetakchi yo'nalishi o'quvchilar tomonidan tilning aloqa vazifasini bajarishini tushunishlariga erishish hisoblanadi.

2. Til bilan tafakkur uzviy bog'liq bo'lib, tafakkur so'z vositasida yuzaga chiqadi. Til tafakkurning mahsuli hisoblanib, ongdan tashqarida o'zicha yashamaydi.

3. Til va tafakkur atrofimizni o'rab olgan moddiy borliqqa nisbatan ikkilamchidir. Tafakkur tashqi dunyoning tushunchadagi ifodasi hisoblanadi. So'z tushunchaning shartli nomini o'zida aks ettiradi. Dunyoda yo'q narsa ongda ham, tilda ham bo'lmaydi. Bu holat o'quvchilarda dunyoqarashni shakllantirish asosini tashkil etadi va didaktik tamoyillardan birini, ya'ni til atrofni o'rab olgan m uhitni, voqelikni kuzatish jarayonida faol bilish faoliyati vaziyatida o'rganilishini belgilaydi. Bunday yondashish dunyoqarashning asosiy masalalaridan biriga, ya'ni nima birlamchi: tabiat (materiya)mi yoki ongmi degan savolga javob tayyorlash hisoblanadi; materiya — birlamchi, ong — ikkilamchi degan tushunchadan o'quvchilarning xabardor bo'lishiga yordam beradi.

4. Til — barcha tomonlari o'zaro dialektik bog'lanishda va birlikda bo'lgan murakkab, ko'p qirrali hodisa. Aloqa jarayonida tilning barcha tomonlari, uning barcha jihatlarini bir-biriga o'zaro ta'sir etadi, shunday sharoitdagina til o'zining aloqa quroli vazifasini bajara oladi. Maktabda tilning barcha tomonlari (talaffuzi, fonetikasi, leksi- kasi, grammatikasi, so'z yasalishi)ni o'zaro bog'liq holda o'rganish ona tilini o'rgatishdagi yetakchi tamoyil bo'lib, uni amalga oshirish o'quvchilarning tilni murakkab, rivojlanuvchan, o'zaro bog'langan muhim tomonlarga ega bo'lgan hodisa sifatida anglab yetishlari uchun ilmiy asos yaratadi. Tilning mohiyatini bunday idrok etish hodisalarning rivojlanuvchanligi va o'zaro bog'langan qismlardan tuzilishini tushunishga zamin hozirlaydi. Maktab tajribasi va maxsus tekshirishlar shuni ko'rsatadiki, yuqorida qayd etilgan dastlabki qoidalarni o'quv jarayonida amalga oshirishda ijtimoiy hodisa sifatida til haqidagi bilimlar majmuasini to'g'ri tanlash, asosiy til hodisalarini va turlarini tushuntirishda o'qituvchining tutgan metodologik yo'lining aniqligi, o'quvchilar fikrlashini faollashtirish, til nazariyasini o'rgatishga asos bo'ladigan til materialining yuqori sifatli bo'lishi kabi dalillar hal qiluvchi ta'sir etadi. Shubhasiz, har bir omil maktab tajribasida bir-biridan ajralgan holda bo'lmaydi. Aksincha, ulam ing bir-biriga to'g'ri, maqsadga muvofiq ta'siri ijobiy natija beradi. O'quvchilarda ilmiy dunyoqarash asoslarini shakllantirish ko'p qirrali jarayon bo'lib, u maktabda va maktabdan tashqarida olib boriladigan o'quv-tarbiyaviy ishlarning barcha tizimida hal qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Q. Abdullayeva, S. Rahmonbekova. „Ona tili darslari“ 41 (1 -sinf o'qituvchilari uchun qo'llanma). - T.: 1999.

2. Q. Abdullayeva va boshq. Savod o'rgatish metodikasi. - T.: „O'qituvchi“, 1996.



О‘QISH DARSLARIDA BADIY TAHLIL MALAKALARINI RIVOJLANTIRISH

*O‘ktamova Gulbahor Nu‘monovna
O‘zbekiston tumani XTB metodisti,
Yoqubova Azima 31-maktab
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi*

Annotatsiya: mazkur maqolada o‘qish darslarining maqsadi va o‘qish darslarida adabiy asarlarni tahlil qilish usullari, tahlilni uyushtirish jarayonlari haqida so‘z yuritilgan.

Tayanch so‘z va iboralar: o‘quvchining ma‘naviy-axloqiy dunyosi, adabiy-estetik did, mustaqil fikrlash, obrazli tafakkur, matn bilan ishlash, asar tahlili.

O‘qish darslarining maqsadi milliy hamda jahon adabiyotining nodir namunalarni o‘qitish orqali o‘quvchilarning ma‘naviy-axloqiy dunyosi, adabiy-estetik didini shakllantirish hamda ularda mustaqil fikrlash, obrazli tafakkurga oid bilim, ko‘nikma, malakalarni hosil qilish va rivojlantirishdan iborat. Shuningdek, o‘quvchilarni badiiy adabiyotga qiziqtirish, asarlarni o‘rgatish jarayonida olam va inson tabiati, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar, kitobxonlik madaniyatini shakllantirish orqali o‘quvchilarning ma‘naviyatini, dunyoqarashini kengaytirib, mustahkamlab borish.

O‘quvchining estetik zavqi va didini shakllantirishda badiiy adabiyot alohida o‘rin tutadi. Chunki badiiy asarni o‘qir ekanmiz, undagi voqelarga, personajlarga befarq qaray olmaymiz. Badiiy asarlar ta‘sirida tug‘ilgan mana shunday tuyg‘ular estetik tuyg‘u deyiladi. Estetik tuyg‘u bizda yaxshi fazilatlarini parvarish qilib, har qanday yomonlik va razolatga qarshi nafrat, chinakam go‘zallikka nisbatan muhabbat hissini uyg‘otadi. Shu asosga ko‘ra, yosh kitobxonlar nazarida ijodkor – sehgardir. Ko‘rinadiki, o‘qish jarayonida badiiy kitob bilan qanday ishlashni biladigan malakali o‘quvchini shakllantirish ham o‘qish darslarining asosiy maqsadi hisoblanadi.

O‘qish darslarida quyidagi vazifalarni amalga oshirish mumkin:

1. To‘liq o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish.
2. Badiiy asarlar va matnlar bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish
3. O‘quvchilarning axborot bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish.
4. O‘quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish.

“O‘qish” darsligidagi asarlar o‘quvchining badiiy matnni idrok etish xususiyatlarini hisobga olgan holda asoslangan. Psixolog olimlarning fikriga tayansak: “Asarni to‘la-to‘kis idrok etish faqatgina uni anglash bilan cheklanmaydi. Bu unda tasvirlangan voqelik asosida munosabatlarning paydo bo‘lishiga asoslangan aniq jarayonni o‘z ichiga oladi”. Demak, badiiy asarni o‘rganish jarayoni adabiy matnning badiiy xususiyatlarni hisobga olgan holda qurilishi kerak. Jumladan, adabiy asarning badiiy xususiyatlari: janr xususiyatlari, asar mavzusi, asar g‘oyasi, asarning majoziy tizimi, badiiy obrazlarni yaratish vositalari, matnning syujeti va tarkibi hamda uning til xususiyatlaridir .

Adabiy asarni o‘rganish jarayonining tuzilishi va tarkibiy xususiyatlari bir necha bosqichni o‘z ichiga oladi.

- matnni idrok qilish (muallif, uning ijodi, asarning yaratilish tarixi, asosiy voqealar va boshqalar haqida);

- matnda keltirilgan asosiy tushunchalarning ma‘nosini tushuntirish;

- matnni idrok etish uchun hissiy tayyorgarlikni ta‘minlash, bolalarni tinglab tushunish, fikrni og‘zaki bayon qilish, ifodali o‘qish hamda fikrni yozma bayon qilish, ijobiy motivatsion asosni yaratish;

- bolaning o‘qish faoliyatini rivojlantirish.

Bunday paytlarda bolalarning hayotiy tajribasi asosida o‘qituvchining tasvirlagan hikoyasi (muallif portreti bilan), fotosuratlar, illyustratsiyalar kabi vositalar asosida suhbatlar uyushtirish mumkin. Masalan, 2-sinflarda G‘ani Abdullayevning “Zilol suv” hikoyasi berilgan bo‘lib, asar tahlilida asarning tashqi belgilar bo‘yicha - sarlavhasi, muallifning ism, familiyasi, kalit so‘zlari, rasmlar va boshqalar asosida suhbat uyushtiriladi. Matnni tahlil qilishda matn mavzusini syujetga hamda kompozitsiyaga (fikrni aniqlashtirish uchun) asosan tushuntirish zarur. Suhbat matnga asoslangan bo‘lishi va tahlil matn orqali amalga oshirilishi talab etilishi kerak.

Matnlarni tahlil qilganda tahlili jarayonida quyidagi savollarni berish mumkin:



- Matn uchun rasmni ko'rib chiqing. U qaysi qismga mos keladi?
 - Muallif qahramon portretini qanday tasvirlaydi? Toping va o'qing ...
 - Ta'rif berishda muallif qaysi so'zni tanladi
 - Matnda nechta qismni ajratib ko'rsatish mumkin? 1- qismini toping va o'qing.
- Bundan tashqari matnni tahlil qilishda turli savollar va topshiriqlardan foydalaniladi:
- *matndagi sababiy munosabatlar* (- Nega? - Nima deb o'ylaysiz?),
 - *baholovchi* (- Siz rozimisiz ...? - Qahramonlar o'rnida o'zingizni qanday tutgan bo'lardingiz?
- Qanday baholaysiz ...?),
- *umumlashtirish* (- muallifning asosiy g'oyasi nima? - Qanday qilib uni tushunasizmi?) va hokazo.

Matnni tahlil qilish jarayonida quyidagi ish usullarini ham qo'llash mumkin:

leksik mashqlar, matnni tasvirlash, reja tuzish (hikoya, savol, rasm va boshqalar).

“Zilol suv” hikoyasi tahlilida quyidagi svollarni berish mumkin:

1. Hikoya qahramonlarini nomma-nom ayting.
2. Siz Tohirning o'rnida bo'lsangiz, nima qilar edingiz.
3. Suvni asrash uchun nima qilish kerak?

Xulosa qilib aytganda, o'qish darslarida asarni o'rganish jarayoni va mazmuni o'qituvchidan mahorat va mas'uliyat talab etadi. Darslarning bunday tashkil etilishi o'quvchilarda badiiy asarlar va matnlar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jumaboev M Bolalar adabiyoti.-T.: “O'qituvchi”, 1994.
2. Matjon Safo. Kitob o'qishni bilasizmi?-T.: “O'qituvchi” 1993.
3. Matjon Safo. Maktabda adabiyotdan mustaqil ishlar (O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma).-T.: “O'qituvchi”, 1996.
4. Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari.-T.O'qituvchi.



ТО‘ГАРАК MASHG‘ULOTLARINING MAZMUNI VA SHAKLLARI

O‘razboyeva Shohista Davlatyorovna
Xorazm viloyati Shovot tumani
12-maktab boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchisi
Tel:99-506-73-74//o‘razboyevashohista74@mail.com

Annotatsiya:Maqolada ona tili fanidan to‘garak mashg‘ulotlarini tashkil etish to‘g‘risida ma‘lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar:Yozuv konkursi,ommaviy tadbirlar,individual ishlash,tamoyillar.

Ta‘lim samaradorligini oshirish,o‘quvchilarning bilimlarni chuqur egallashlarida asosiy darslar bilan birga,to‘garak mashg‘ulotlarining ham ahamiyati katta, To‘garak mashg‘ulotlari asosiy darslarda o‘zlashtirilgan bilim va tushunchalarni mustahkamlashga qaratilishi bilan alohida e‘tiborga loyiq.Ona tilidan o‘tkazila-digan to‘garak mashg‘ulotlari ham shu vazifani bajarishga bo‘ysundiriladi.

Ona tili bilan adabiyotning chambarchas bog‘liqligi o‘qituvchining to‘garak mashg‘ulotlariga puxta tayyorgarlik ko‘rishini talab etadi.Buning uchun o‘qituv-chi,birinchi navbatda,tanlangan adabiy materiallarning grammatik mavzuga bog‘liqligi,tarbiyaviy ahamiyati va sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatlari hamda bilim savijasiga mos kelish-kelmasligini hisobga olishi lozim.Ona tili fanidan to‘garak mashg‘ulotlarini o‘quvchilarning bilim darajasiga ko‘ra turli shakllarda o‘tkazish mumkin.Jumladan,“Yozuv konkursi”ni quyidagi shaklda o‘tkazsa bo‘ladi To‘garak mashg‘ulotlarida yozuv konkursi yozma ishlar o‘tkazish orqali olib boriladi. Buning uchun o‘quv yili davomida diktant,bayon,insholar yozdirilib, chiroyli,xatosiz va mazmunli eng yaxshi ishlar aniqlanadi.Bunday mashg‘ulotning tarbiyaviy ta‘sir kuchini oshirish adabiy matnning to‘g‘ri tanlanishiga ham bog‘liq. O‘quvchilar bilan darsdan tashqari vaqtlarda o‘tkaziladigan to‘garak mashg‘ulotlari ta‘lim va tarbiyaning umumiy tamoyillari asosida olib borilishi lozim. Jumladan,o‘zbek tili bo‘yicha sinfdan tashqari ishlarning o‘ziga xos spesifik tamoyillari quyidagilardan iborat: 1.To‘garak a‘zoliciga shu fanga qiziqishi va qobiliyati bo‘lgan o‘quvchilar qabul qilinadi. 2.Sinfdan tashqari olib boriladigan barcha mashg‘ulotlar ma‘lum g‘oyaviy yo‘nalishda bo‘lmog‘i lozim. 3.To‘garakda amalga oshiriladigan tadbirlar o‘quvchilarning qobiliyatiga, mustaqilligi va tashabbuskorligiga tayanib o‘tkaziladi. 4.To‘garak mashg‘ulotlarining mavzusi ijodiy xarakterda bo‘lishi bilan birga, maktab o‘quv dasturidagi mavzularni mustahkamlashga va chuqurlashtirishga xizmat qilishi kerak. Mana shu tamoyillar asosida olib boriladigan to‘garak mashg‘ulotlarini 3 guruhga bo‘lish mumkin: 1.Odatdagi to‘garak mashg‘uloti 2.To‘garak mashg‘ulotlaridan tashqari ayrim o‘quvchilar bilan individual ishlash soatlarini tashkil etish. 3.Ko‘pchilik o‘quvchilar ishtirokida ommaviy tadbirlar o‘tkazish.

Maktabda ona tili to‘garagi ikkiga bo‘lib tashkil qilinadi.Ularning biri I-IV sinf,ikkinchisi,V-XI sinf o‘quvchilaridan tashkil topadi. To‘garak mashg‘ulotining yillik taqvim- mavzu rejasi uning maqsadiga muvofiq to‘garak rahbari tomonidan tuziladi.To‘garak mashg‘ulotlari shu reja asosida olib boriladi.To‘garak rahbari to‘garak jurnalini tutadi va unga mavzular,o‘quvchilarning davomati qayd qilib boriladi.To‘garak a‘zolari to‘garak mashg‘ulotlari uchun alohida daftar tutishlari lozim. Bu daftar to‘garak rahbari tomonidan nazorat qilinib va baholab boriladi.

Maktabni bitirgan o‘quvchi to‘la savodli,og‘zaki va yozma nutq malakalarini to‘liq egallagan,kalligrafiyasi chiroyli bo‘lishi lozim.Buning uchun o‘qituvchi o‘quvchilarni sodda,aniq va ravon so‘zlashga o‘rgatishi,ularga ona tili fanining maqsadi va vazifasi hamda mohiyatini uqtirishi,umuman,o‘quvchilarning shu fanga bo‘lgan qiziqishlarini tarbiyalab borishi zarur. Bu kabi ishlar o‘qituvchidan qunt va chidam bilan ishlashni,dars davomida va darsdan tashqari vaqtlarda o‘quvchilar bilan birgalikda har xil mashg‘ulotlar olib borishni, shuningdek, to‘garak mashg‘ulotlarini muntazam o‘tkazib turishni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Ahmedova N. Sinfdan tashqari mashg‘ulotlar va ularni tashkil etish, Toshkent-1998-yil.
- 2.Haydarov B. va b.q. Ta‘lim samaradorligini oshirish yo‘llari. Toshkent- 2002-yil.
3. Sayidahmedov N. Noan‘anaviy dars.Yangi pedagogik texnologiyalar, Toshkent-2003-yil.



INFORMATIKA VA ABOROT TEXNOLOGIYALARI DARSLARIDA O'RTA OSIYOLIK OLIMLAR ME'ROSIDAN FOYDALANISH METODIKASI.

*Ruziyeva Shaxnoza Iskandarovna
Zarafshon shahar 13-AFChO'IM
informatika fani o'qituvchisi Telefon raqami: 934609936*

Annotatsiya. Insoniyat harakat va raqobat orqali turmush tarzini rivojlantiradi va yangi yangi kashfiyotlarni yaratilishiga sabab bo'ladi. Bu kashfiyotlardan biri – kompyuter texnikasidir. Azaldan insoniyat o'z ishini osonlashtirish va vaqtni tejash muammolari bilan shug'ullangan.

Kalit so'zlar. Kashfiyotlar, kompyuter, axborot, DVD player, Flash xotira, dasturiy, texnik ta'minot, EHM, G'arbiy Yevropa.

So'zsiz aytish mumkinki kompyuter XX asrning buyuk kashfiyotlaridan biri. Davr talabiga ko'ra bugunga kelib kompyuter texnikasi juda rivojlanib ketdi. Ma'lumotlarni yig'ish, boshqarish, qayta ishlash va uzatish ayniqsa, hozirgi kunda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarni hozirgi kunning eng zo'r va ixcham texnologiyadan foydalanishga bo'lgan talab kun sayin ortib bormoqda. Chunki butun dunyoda XXI asr – «axborot» asri deb tan olingan. Axborot asrida katta hajmdagi ma'lumotlar ombori va axborotlar ustida ishlashga to'g'ri kelmoqda. Jamiyat taraqqiyotini rivojlanishiga, kunlik ehtiyojga kerakli vositalar (masalan, uyali telefon, DVD player, Flash xotira, ...), yuz berayotgan jadal o'zgarishlar ularning bir qismi bo'lgan «Informatika» va «Axborot texnologiyalari» faniga ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi dasturiy va texnik ta'minotga ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Bu ta'sirlar shunchalik kuchliki, yillar ichida emas, balki oylar ichida o'zgarib va boyib bormoqda. Axborot texnologiyalari va uning texnik, dasturiy ta'minotini yangi variantlari paydo bo'lishi bu sohadagi xizmat qilish usulini tubdan o'zgartirishni talab etadi. Eslab ko'ring, kerakli ma'lumotni tahrirlash, xotiraga yozish, qayta ishlash usullarni amalga oshirish yoki bir masalani kompyuterda yechib, natija olish uchun algoritmlarni, dasturlash tillari va ishlash muhitini bilishni talab qilar edi. Bunday ma'lumotga ishlov berish usullarini faqat mutaxassislargina amalga oshirishni bilardilar. Ammo hozirgi jamiyatni axborot texnologiyalarisiz tasavvur qilish qiyin. Har bir soha borki, ishlab chiqarishdan to ta'lim muassasalari, fermerlikkachaxborot texnologiyalari qolaversa, kompyuter texnikasining imkoniyatidan foydalanib kelinmoqda. Kompyuterlardan foydalanuvchilar sonining kundan-kunga ko'payishi jamiyat oldida ma'lum qiyinchiliklarni tug'dirmoqda. Respublikamizda kompyuter savodxonligini oshirish, jamiyatda kompyuter texnologiyalaridan samarali foydalanish jarayonining samarali kechishi uchun hukumatimiz tomonidan bir qator chora-tadbirlar ishlab chiqilgan. Islom Karimovning 2001 -yil Oliy Majlisning V sessiyasida so'zlagan nutqida axborot texnologiyalari va kompyuterlarni jamiyat hayotiga, kishilarning turmush tarziga, umumiy o'rta ta'lim maktablari, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari o'quv jarayoniga jadallik bilan olib kirish g'oyasi ilgari surilgan. —Informatika so'zi lotincha axborotlarni tushuntirish va tahlil qilish degan ma'noni bildiradi, bu fan axborotlarni jamlash va qayta ishlash usullarini, axborotlash jarayonini qonuniyatlarini o'rganadi. Informatika atamasi XX asrning 60-yillarida paydo bo'lib ishlatila boshlandi. —Informatika fanini yuzaga kelishi va rivojlanishida elektron hisoblash mashinalari (EHM), —dasturlash asoslari fani va boshqa texnik vositalarning o'rni beqiyos, chunki axborotlar bevosita EHMlar yordamida qayta ishlangan va bu fan o'zining yangi uslub va usullariga egadir. Demak, informatika bu inson faoliyatining turli jabhalaridagi axborotlarni izlash, to'plash, saqlash, qayta ishlash va undan foydalanish masalalari bilan shug'ullanuvchi fandır. XXI asrning boshlariga kelib, —axborot texnologiyalaril fani vujudga keldi. Bunga sabab, axborotni qayta ishlash, boshqarish usullari, texnik va dasturiy ta'minotlarining rivojlanishi, Internet tizimining paydo bo'lishi, hujjatlar va tarixiy ma'lumotlar, jamiyat uchun ehtiyoj sezilgan barcha axborotlarning elektron ko'rinishiga o'tishi va undan keng omma foydalanish imkoniyatlarining kirib kelganligidir. Informatika termini XX asrning 60 yillarida birinchi marta Fransiyada qo'llanilgan bo'lib, u infor-



mation soʻzidan kelib chiqqan. Bu termin Information (informatsiya) va automation (avtomatika) soʻzlarining qoʻshilmasidan hosil boʻlgan va axborotni avtomatik ravishda qayta ishlash fani degan maʼnoni ham anglatadi. Gʻarbiy Yevropaning koʻpchilik mamlakatlarida hamda AQSHda informatika terminidan tashqari koʻpincha uning sinonimi, yaʼni Computer Science (Hisoblash texnikasi vositalari toʻgʻrisidagi fan) – tushunchasi qoʻllaniladi.

Foydalanilgan Adabiyotlar Roʻyxati.

1. Xaldjigitov A.A., Madraximov Sh.F., Adamboev U.E. Informatika va programmalsh. Oʻquv qoʻllanma. OʻzMU, 2005 yil
2. Yoʻldoshov U.Y., Boqiyev R.R., Zokirova F.M. Informatika oʻqitish metodikasi. Oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlim muassasalari uchun qoʻllanma. –T.: Talqin, 2005.
3. www.ziyo.edu.uz



INGLIZ TILINI INNOVATSION G'UYALAR ORQALI CHUQUR O'ZLASHTIRISH USLUBI.

*Sabirova Iroda Abdullayevna
Xiva shahar 9-sonli umumiy
o'rta ta'lim maktabining
ingliz tili fani o'qituvchisi
Xiva, Xorazm, O'zbekiston*

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida ingliz tili dars mashg'ulotlarini tashkil etishda innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda o'quvchilarga bilim berish va ularning qiziqishlarini oshirishga harakat qilish borasida misollar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: ingliz tili, chet tillari, maktab, pedagogika, ilm-fan, yangi g'oyalar, innovatsiya.

Bugungi kunda mamlakatimizda ta'lim sifatini oshirish maqsadida keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Ayniqsa, butun dunyo shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir vaqtda texnikalar inson hayot omiliga aylanib ulgurdi desak mubolag'a bo'lmaydi. Pedagogik jarayonni yaratishda esa asosan, kasbiy aloqa muammosini aniqlagan holda o'quv jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish zarur. Misol qilib ingliz tilini aytadigan bo'lsak, bunda asosiy e'tibor o'quvchilardagi qiziqishni o'qituvchi tez va aniq anglab yetib, ularning har birining qiziqishidan kelib chiqqan holda kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan muloqot qobiliyatlarini shakllantirishga qaratishi zarur. Dars mashg'ulotlariga oldindan ko'rilgan tayyorgarlik orqali esa mukammal va puxta reja asosida ish olib borilsagina fikr aniq bayon etila oladi.

Innovatsion dars - o'qituvchilar va o'quvchilarning o'ziga xos ta'lim amaliyoti ko'rinishidagi mualliflik g'oyalariga asoslangan innovatsion faoliyati. Bunday dars jarayoni erkin tashkil etiladi. Masalan, dars mashg'ulotlari mobaynida kompyuter, turli ko'rgazmali qurollar, krossvordlar, rebuslar va hokazo ingliz tili darsligida mavjud bo'lmagan innovatsion texnologiyalarga tayanib ish tutiladi.



Innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda ingliz tili dars mashg'ulotlarida o'quv jarayoni va metodik shakllarning samaradorligini oshirish maqsadida o'qituvchilar tomonidan darsda foydalanishlari uchun: Axborot kommunikatsiya texnologiyalari, loyihalash va tadqiqot texnologiyalasi, sog'liq uchun havfsiz bo'lgan texnologiyalar va turli dars mashg'uloti bilan bog'liq bo'lgan o'yinlarning texnologiyalari mavjud bo'lishi lozim. Ushbu texnologiyalarning maqsadi asosan, ingliz tilini o'qitishda ta'limning innovatsiyalarida

hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shuning uchun o'quvchining bilim olishlari va hayoti uchun barcha zarur sharoitlarni yaratish va ijodiy salohiyatni rivojlantirishga urg'u berib o'tish lozimdir. Bunda faqat o'qituvchi emas balki, ota-onalar ham muhim o'rin tutadi. Ta'limning ushbu innovatsion g'oyasi bolaning yoshi, imkoniyatlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda individual ta'lim dasturlarida namoyon bo'ladi.

Maktabda innovatsion faoliyatni amalga oshirishga qodir va tayyor bo'lgan o'qituvchi o'zini professional sifatida anglaganida, mavjud innovatsion tajribani ijodiy idrok etishga va uni o'quvchilar uchun zarur bo'lgan paytda qo'llashi zarur. Chunki, zamonaviy pedagogik yangilik o'quvchining madaniy portretini shakllantiruvchi ta'lim texnologiyalari, shuningdek didaktik texnologiyalar bugungi kunda o'quv jarayoni rivojlanishining asosiy sharti hisoblanadi.

Shuni aytib o'tish joizki, bolalarni o'qitish tarbiyalashdan ko'ra osonroqdir. Tarbiya jarayoni bolaga nisbatan nozikroq yondoshishni talab qiladi va bu doimiy ijod va izlanishni talab qiladi. Ingliz tili o'qituvchisining faoliyati birinchi navbatda butun sinf o'quvchilari bilan ishlashga qaratilgan. U har bir alohida bolani o'rganish uchun motivatsiyani shakllantiradi, uning qiziqishlarini rivojlantirish va rag'batlantirish uchun uning yosh xususiyatlarini o'rganadi. Shu



bilan birga, shaxsni tarbiyalash nafaqat ma’lum miqdordagi bilimlarni o’zlashtirishga, balki insonning qobiliyatlari va fazilatlarini rivojlantirishga, zamonaviy iqtisodiy sharoitlarda samarali harakat qilish va ishlashga imkon berishga yo’naltirilgan bo’lishi kerak. Shu sababli, ingliz tili fani o’qituvchilaridan o’quv jarayonini boyitish va uni o’quvchi esda qoladigan darajadagi qisqa va sodda so’zlardan foydalanishi kerak.

Har bir sohada ishlashni zamonaviy axborot texnologiyalarisiz amalga oshirish mumkin emas. Inson tabiatan ko’proq ma’lumotlarni ko’zlar orqali qabul qiladi. Kompyuter o’quvchi va o’qituvchi o’rtasida ma’lumot tarqatish va almashish vositasiga aylanadi va bolaning atrofdagi dunyoga bo’lgan qiziqishi ortishiga hissa qo’shadi. Bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biri “Ma’lumotlarni xotirada saqlab qolish” desak mubolag’a bo’lmaydi.

Muammo: O’quvchiga bir soat dars mashg’uloti mobaynida faqatgina gapirib tushuntirib va ma’lumotlarni yozdiramiz. Keyingi dars mashg’ulotlarigacha bu ma’lumotlarning 95% qismi o’quvchining xotirasida saqlanib qolmaydi. Bundan ko’rinib turibdiki, qilgan ishimiz o’z samarasini bermadi.

Yechimi: Dars mashg’uloti mobaynida o’quvchiga o’rganishi lozim bo’lgan mavzuning umumiy mazmun mohiyatidan kelib chiqqan holda, kerakli ma’lumotlarni qisqa, sodda va aniq shaklda tushuntirib berishimiz zarur. Har hil kartochkalar, elektron manbaalar va oddiygina dars mobaynida jarayondan kelib chiqqan holda olinadigan kichik hajmdagi testlar ham dars mashg’ulotlari sifatini oshirishga yordam berishi mumkin. Misol uchun dars mobaynida eslab qolish zarur bo’lgan so’zlar tanlab olinadi va dars mobaynida aynan shu so’zlarga urg’u berilib boriladi. Kompyuter yoki proektordan foydalanilgan holda bu ishni amalga oshirish yanada kengroq imkoniyatlar yaratishi mumkin. Asosiy so’zlar books, school, a pencil, so’zlarini quyidagicha rasmlar orqali o’quvchilarni ongiga ta’sir qilish mumkin:



Bu metodika bir qarashda biz uchun oddiydek tuyulishi mumkin. Aynan shu narsa bir qarashda miyaning barcha to’qimalariga ta’sir qilib, ma’lumotni xotiraga muxrlanib qolishiga sabab bo’ladi.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi davrda ta’limda pedagogik faoliyatining barcha sohalarida xalqaro hamkorlik kengayib borayotganligi sababli, kasbiy muhim ko’nikmalar ro’yxatida birinchi o’rinlarda turuvchi chet tillarini bilish hisoblanadi. Shuning uchun maktablarda amalga oshiriladigan chet el tilidagi intensiv texnologiyalar o’quv jarayoniga keng joriy etilishi kerak deb hisoblayman.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 06.11.2020 yildagi PF-6108 sonli farmoni. <https://lex.uz/docs/5085999>
2. Mirziyoev Sh.M. “ERKIN VA FAROVON, DEMOKRATIK O’ZBEKISTON DAVLATINI BIRGALIKDA BARPO ETAMIZ” - O’zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bagishlangan Oliy Majlis palatalarining qo’shma majlisidagi nutq” – T., 2016
3. Dichkovskaya I.M. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. - K., 2004.
4. Selevko G.K. Ta’lim jarayonini boshqarish va tashkil etish samaradorligiga asoslangan pedagogik texnologiyalar. Kompyuter (yangi axborot) ta’lim texnologiyalari // Ta’limdagi informatika va axborot texnologiyalari. - № 12. - 2004 yil.
5. www.google.uz, www.ziyonet.uz



OILADA MUOMALA MADANIYATI VA UNI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI.

Sharipova Nigora Nasimovna.
Qashqadaryo viloyati Muborak tumani 5-umumiy
o'rta talim maktabi amaliyotchi psixologi

Annotatsiya: Oila a'zolari o'rtasida bir - biriga o'zaro munosabat madaniyati .Oilada bevosita shaxslararo munosabatda oila a'zolarining umumiy maqsadlari va hamkorlikdagi faoliyatini yuksak qadriyatlar asosida qurish.

Kalit so'zlar: Oila, muomala, nutq qobilyati, oila davrasi, shaxslararo muomala, o'zaro hurmat, muomala madaniyati, muomala darajasi, muomala natijasi.

Biz bilamizki oila davrasidami yoki undan tashqaridagi muhitdami bo'ladigan muomala fikr almashishning uch shakli bor. Ular:

Monologik (muomalaning boshqa ishtirokchilari fikrini tinglashga qaraganda suhbat tashkilotchisining mulohaza bildirishi ustunlik qiladi).

Diaologik (bir-biriga o'zaro ta'sir o'tkazishning qatnashchilari o'zaro tashabbuskor, faollik, ta'sirkorlik namoyish etadi).

Polilogik(ikki nafardan ortiq odamlar ishtirokidagi muloqot jarayoni, tashabbusni qo'lga olish kurashi tarzida o'tadi, bunda kimdir yetakchi bo'lishga intiladi).

Muomalaning mazmuni insonning insonga axborot uzatish, insonni inson tomonidan idrok qilish, muloqotdoahlarni o'zaro baholash, o'zaro ta'sir ko'rsatish vaziyati tashkil qiladi. Muomala kishilarni o'zaro birlashtiruvchi vosita, o'zaro tushunuv , ruhiy mutanosiblik vazifasini bajaradi. Muomalada jamiyatdagi mezonlar, qonun va qoidalarga asoslangan holda xulq atvor malakalari yoshlarda shakllantiradi. Muomala so'z va imo –ishoralar orqali amalga oshiriladi. Oila davrasida ota –onalar va bolalar o'rtasidagi muomala maqsadga muvofiq, o'zaro hurmat, bir-birini qadrlash yuzaga keladi, u holda :

- Muloqotdoshlarda bir-biriga axborot uzatish faollashadi.
- Fikr uzatish jadallashadi.
- Suhbatdoshlarda tashabbuskorlik ortadi.
- Shaxsda nutq qobiliyati o'sadi.

Muomalada uning ishtirokchilari bir–birlariga ta'sir o'tkazish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Buning ta'sirida muomala yaxlit hamkorlik faoliyatiga aylanadi. Har bir muomala ota ona rahbarligida va ularning bevosita nazoratida uyushtirilsa, o'zaro tasir , o'zaro munosabat, o'zaro tushunuv holatlari vujudga keladi. Natijada muomala fikr almashinuv vositasini, balki bilim olish, ijodiy izlanish, nutq madaniyati va xulq-atvor ko'nikmasini o'zlashtirishning manbasi vazifasini bajaradi.

Ota-onalar muomala jarayonida quyidagi holatga e'tibor qilsalar, maqsadga muvofiq bo'lar edi:

1. Ijobiy hissiy munosabatlar:

- a) birdamlik,
- b) zo'riqishning susayishi,
- d) ma'qullash

2. Ishbilarmonlik munosabati:

- a) taklif, fikr,
- b) axborot,
- d) iltimos, murojaat.

3. Salbiy hissiy munosabat:

- a) me'yordan og'ish, ziddiyat
- b) zo'riqish, tanglik, nizo.

Nutqiy (so'z orqali) muomalada buuyruq, fikr qo'zg'atishi, ko'rsatma berishi, ta'minlash, faraz yaratish, mulohaza yuritish, axborot to'plash, savol uzatish, javob topish, qaror qabul qilish singari nutq faoliyati va madaniyatining tarkibiy qismlarini egallash mumkin.

Adabiyotlar

1. E.G'oziyev. "Muomala psixologiyasi", T-2001.
2. V.Karimova. "Oila psixologiyasi", T-2008.



BOSHLANG‘ICH SINLARDA O‘QISH DARSLARINI TASHKIL ETISH USULLARI.

Sobirova Dilrabo Shokirovna
Navoiy viloyati Karmana tumani
8-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annatsiya: Ushbu maqolamda ona tili va o‘qish fanining chambarchas bog‘liqligi haqida va o‘qish darslarini tashkil etish haqida yozilgan.

Kalit so‘zlar: ona tili, o‘qish, o‘quvchilar, nutq, savod

O‘qish darslari zamirida bolalarning aqliy, ahloqiy tarbiyalariga, muomala odoblariga, nutqlarning ravon, nafis, ifodali bo‘lishiga, o‘quvchilar ruhiy faoliyatini rivojlantirishga hizmat qiladi. O‘quvchilarning ruhan tetik, qalban jasur, jismonan sog‘lom bo‘lib o‘sishlariga erishiladi.

Boshlang‘ich sinflarda o‘qitilayotgan ona tili o‘qish darslari adabiyot fanining tarkibiy qismi hisoblanadi. Dasturlarning o‘qish va nutq o‘stirish bo‘limida o‘tkaziladigan mashg‘ulklar mazmuniga; o‘quvchilarni to‘g‘ri, ravon, malum darajadagi tezlik bilan., ifodali o‘qishga o‘rgatish; bolaning ona-vatan, uning tabiati, kishilar mehnatidagi qahramonlik, jasurlik, milliy istiqloq g‘oyalarini ular ongiga singdirish kabi bilimlarni boyitish orqali o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma malakalari kengaytiriladi, shakllanadi va mustahkamlanadi.

O‘qish darslarini Davlat talablari asosida hayotiy tajribalarga, kuzatishlarga suyanib, hayotga bog‘lab o‘tishi uning taa’sirchanligini ongli idrok etishlarini ta’minlaydi. O‘qish va nutq o‘stirishning ta’limiy-tarbiyaviy maqsadlari, sinflar bo‘yicha o‘qish mazmunini o‘qish ko‘nikmalarining o‘gzaki va yozma nutqlarini rivojlantirish usullarini, o‘qish mashg‘ulotlarining yozma nutq bilan bog‘lanish kabi masalalar aniq kiritilgan.

O‘qish darslari davomida o‘quvchilar so‘zdagi harflarni bir-biriga bog‘lab yozish, so‘z va gaplarni kichik hamda bosh harflarni alifbe kitobida berilgan tartibda yozishga o‘rgatiladi.

Boshlang‘ich sinflarda o‘qish darslari yuqori sinfdagi o‘zbek adabiyoti, tarix, geografiya, biologiya va boshqa fanarni o‘zlashtirish uchun dastlabki asosni yaratadi. Shuning uchun boshlang‘ich sinfdagi o‘qish darslariga jiddiy e’tibor talab qilinadi. O‘qish darslarini talabdagidek olib borish uchun o‘qituvchi asosan quyidagilarga e’tibor berish lozim. 6-10 yoshdagi bolalar bir soatga mo‘ljalangan saboqni sabr toqat bilan tinglay olmaydilar. Ularning ruhiy tuzilishi qoyil harakatda, xayoli o‘yinda bo‘ladi. 10-15 minutdan ortiq davom etadigan gaplarni tinglolmaydilar. Shu tufayli bu sinlarda ta’lim-tarbiya vazifalari, asosan o‘yin, ashula, qisqa muddatli qiziqarli suhbat, hikoyalash yoki ifodali o‘qish orqali amalga oshiriladi.

Ifodali o‘qish turli badiiy va amaliy matnlarni puxta o‘zlashtirishning muhim metodlaridan biri sifatida o‘qituvchi uchun kait rolini bajaradi. Ifodali o‘qish darslarda o‘quvchining zerikishiga yo‘l qo‘ymaydi, aksincha, faollashtiradi, badiiy asrlarga qiziqishini kuchaytiradi, adabiyotga havas uyg‘otadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Ona tili o‘qitish metodikasi" Qosimova N
2. "Boshlang‘ich ta’lim jurnali" 2014-yil 6-son



О‘QUVCHILAR DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHDA TO‘GARAKLARNING O‘RNI

*To‘xtaboyeva Nilufar Pulatovna
Izboskan tumani 10-umumiy
o‘rta ta‘lim boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda to‘garak ishlarini tashkil etish, to‘garak turlari va ularni o‘tkazish asosida o‘quvchilar dunyoqarashlarini shakllantirish va rivojlantirish yo‘llari ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: to‘garak, fan to‘garaklari, kasb-hunar yo‘nalishidagi to‘garaklar, sport to‘garaklari, san‘at yo‘nalishidagi to‘garaklar

Sinfdan va maktabdan tashqi ishlar o‘quvchilarning kuchiga yarasha va ular uchun qiziqarli bo‘lishi kerak. Sinfdan va maktabdan tashqi ishlar o‘quvchilar tashkilotlari hamda ota-onalar jamoasi yordamiga suyangan holda olib boriladi.

Bu ishlarning eng ko‘p tarqalgan shakli quyidagilar: to‘garak ishlari, ommaviy tadbirlar va o‘quvchilarning mustaqil individual mashg‘ulotlaridir.

To‘garak ishlarini tashkil qilish sinfdan tashqari ishlarning eng ko‘p tarqalgan shakllaridan biridir. To‘garak — sinfdan tashqi havaskorlik ishlarining biror turiga umumiy maqsad va intilish bilan birlashgan o‘quvchilar jamoasidir. To‘garak, odatda, bir sinf yoki parallel sinflarning yoki bo‘lmasa aralash sinflarning 10 tadan 20 tagacha bo‘lgan o‘quvchilarini o‘z ichiga oladi. To‘garak tarkibiga haddan tashqari ko‘p o‘quvchilarni jalb qilishga intilish ma‘qul emas, chunki bu to‘garak ishini qiyinlashtiradi. To‘garakka yozilish ixtiyoriy ravishda olib boriladi. To‘garakka birinchi majlisda to‘garak a‘zolaridan saylab ko‘rsatilgan to‘garak boshlig‘i boshchilik qiladi. Agar to‘garak a‘zolari ko‘p bo‘lsa, bunday hollarda, odatda, uch o‘quvchidan iborat to‘garak byurosi saylanadi. To‘garakka maxsus tayinlangan pedagog rahbarlik qiladi. To‘garaklar o‘z ishlarini to‘garak a‘zolari bilan birgalikda ishlab chiqilgan reja asosida olib boradilar.

Har bir to‘garak o‘zining taxminiy ish rejasiga ega bo‘lishi maqsadga muvofiqdir. Bu rejada to‘garakning o‘z oldiga qo‘ygan vazifalari ko‘rsatilgan bo‘ladi. Ushbu reja asosida to‘garakning konkretlashtirilgan kaiendar rejasi tuziladi. To‘garakning faoliyati va ish sharoitiga qarab uning reja va ish rejasi o‘zgartirilishi mumkin.

To‘garaklarning mashg‘ulotlari o‘qishdan tashqari vaqtda, muntazam ravishda o‘tkazilishi lozim. Har bir to‘garakning qilgan ishi albatta to‘garakning kundalik jumaliga to‘garak boshlig‘i yoki uning bironta a‘zosi tomonidan yozib borilishi kerak.

O‘quvchilar to‘garaklari xilma-xil bo‘lishi mumkin.

Fan to‘garaldarining vazifasi to‘garak a‘zolarining ushbu fanga bo‘lgan qiziqishlariga tayanib o‘quvchilarning bilimi va ongini har tomonlama kengaytirish va chuqurlashtirish, ularning ijodiy qobiliyat-larini o‘stirish, ularni mustaqil ishlashga o‘rgatib borish, ularda amaliy ko‘nikma va malakalarni hosil qildirishdan iboratdir.

Sinfdan tashqari ishlarni o‘z ichiga olgan to‘garaklar quyidagi turlargabo‘linadi;

- Fan to‘garaklari;
- Kasb-hunar yo‘nalishidagi to‘garaklar;
- Sport to‘garaklari;
- San‘at yo‘nalishidagi to‘garaklar.

Fan to‘garaklariga “Ifodali o‘qish”, “Mohir qo‘llar”, “Qiziqarli matematika” “Tabiatni sehrli olami”, “Husnixat” to‘garaklarini misol qilishimiz mumkin.

Kasb-hunar yo‘nalishidagi to‘garaklar asosan o‘quvchilarni turli kasb va hunarlarga yo‘naltiradi: “Kichik advokat”, “Kichik pazanda” kabi to‘garaklar tashkil etiladi. Sport to‘garaklari asosan bolalarning jismoniy jihatdan o‘zlarini tarbiyalashlari uchun muhim ahamiyatga egadir. Bu to‘garaklar sirasiga kurash, boks, futbol, stol tennisi kabi to‘garaklarni misol keltirishimiz mumkin. San‘at yo‘nalishidagi to‘garaklar o‘quvchilardagi qobiliyatlarni namoyon etishlariga imkon berdi. Raqs to‘garagi, musiqa to‘garage, “Mo‘qalam jilosi” kabi to‘garaklarni misol tariqasida keltirib o‘tishimiz mumkin bo‘ladi.

To‘garak ishlari o‘quvchilarni ma‘naviy-axloqiy ruhda tarbiyalashda, ularga bilim berishda muhim vosita bo‘lganligi tufayli bu ishlarni keng yo‘lga qo‘yishga maktab rahbariyati shuningdek,



o‘qituvchilar jamoasi katta e‘tibor berishi, «Kamolot» va «Kamalak» tashkilotlari, ota-onalar jamoasi yordamidan har tomonlama foydalanish kerak.

O‘quvchilar bilan olib boriladigan to‘garak ishlarni o‘qituvchilar jon dillari bilan sevishlari, bu ishga rahbarlik qilishda ishtirok etishni o‘zlarining eng muhim vazifalaridan biri deb bilishlari zarur. Maktabning yangi vazifasi har bir o‘qituvchidan faqatgina o‘z fani va uni o‘qitishni a’lo darajada bilishnigina emas, balki bilimlarni chuqur egallashni va bundan sinfdan tashqi ishlarni maqsadga muvofiq yo‘lga qo‘yishda ijodiy foydalana bilishni, har tomonlama ma’lumot va mahoratga ega bo‘lishni talab qiladi. Bu vazifalarning muvaffaqiyatli hal qilinishiga har taraflama yordam ko‘rsatish har bir o‘qituvchining oliy burchidir.

To‘garak ishlari shaklini tanlaganda uning tarbiyaviy ahamiyatini shu ishning maqsadi, vazifalari nuqtayi nazaridan baholash kerak.

To‘garak ishlarining metodlari va vositalari tarbiya metodlari hamda vositalaridan iboratdir. Ularni tanlash to‘garak ishining mazmuni, shakli bilan belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mavlonova R, O.To‘rayeva, K.Xoliqberdiyev. «Pedagogika»T., «O‘qituvchi» 2002 yil
2. Qo‘ziyev Z «Sinf rahbari ishini tashkil etish va rejalashtirish». T., 1997 yil
3. G‘ulomova M. X., Sobirova N. K. Yangi innovatsion texnologiya yordamida ta’lim samaradorligini oshirish usullari.
4. www.ziyonet.uz



YOSH AVLODNI MA'NAVIY YETUK QILIB TARBIYALASHDA XALQ OG'ZAKI IJODIDAN FOYDALANISH

*Toshxo'jayeva Ma'muraxon
Namangan viloyati Namangan shahar
63-umumta'lim maktabi
boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

Annotasiya: Ushbu maqolada yosh avlodni ma'naviy yetuk qilib tarbiyalashda xalq og'zaki ijodining ahamiyati va undan foydalanish haqida ma'lumot berilgan

Kalit so'zlar: ma'naviy yetuklik, xalq og'zaki ijodi, san'at, mahorat, ertak, hadis, maqola, doston, an'anaviylik, jamoaviylik, asar.

Boshlang'ich sinflarda xalq og'zaki ijodidan foydalanish ularning teran fikrli, barkamol shaxs, buyuk kelajak egalari bo'lib tarbiyalanishlarida muhim rol o'ynaydi.

Inson, eng avvalo o'zligini anglashi, avlod-ajdodi, nasl-nasabini mukammal bilishi uchun o'z tarixini bilishi lozim. "O'z tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yo'q"¹. Darhaqiqat, chinakam har tomonlama yetuk, ma'naviyatli kadrlarni shakllantirishda tarixning o'rni beqiyosdir.

Bugungi kunda zamonaviy o'qituvchi darsini o'tishi bilan birga milliy urf-odatlarimiz, an'ana va qadriyatlarimizni o'quvchi ongiga singdirib, darsni integratsiyalashgan tarzda tashkil etishi kerak. Shu jihatdan har tomonlama mukammal rivojlangan insonni tarbiyalash, ta'lim va ma'orifni yuksaltirish, barkamol avlodni voyaga yetkazish davlatimiz siyosatining ustivor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Zero-ki, istiqlol davrida ma'naviy merosimizni tiklashda amalga oshirilgan ulug'vor ishlar, tariximizni xolisona o'rganish, ulug' allomalar adabiy-ilmiy asarlarining tarjima va nashr qilinishi, ta'lim berishni takomillashtirish, adabiyot, san'at sohasidagi yutuqlar – bularning barchasi jamiyatda ma'naviy-ruhiy ko'tarilishga olib keldi va iqtisodiyotimizning ustivor yo'nalishlaridagi islohotlarga qo'shimcha kuch bag'ishladi.

Xalq og'zaki ijodi – so'z san'ati. Bu jumlaning tushunishdan avval san'atning o'zi nimaligini anglash lozim. "San'at" – ish, mehnat, mahorat, kasb-hunar deb ko'rsatilgan. Agar izohdagi so'zlarga e'tibor bersak, san'at deganda mahorat bilan amalga oshirilgan mehnatni tushunish anglashiladi.

An'anaviylik xalq og'zaki ijodining xos xususiyatlari qatorida asosiy belgi sifatida ularning har biriga bildirishi mumkin bo'lgan munosib bahoni inkor etmagan holda, avvalgidek jamoaviylikni emas, an'anaviylikni ko'rsatish maqsadga muvofiqdir. Chunki butun dunyo xalqlari ijodida bo'lganidek, o'zbeklarda ham og'zaki ijod asarlarining yaratilishi va ijrosi asrlar davomida shakllangan va bugungi kungacha davom etib kelayotgan an'analarga suyanadi.

Xalq og'zaki ijodidagi an'anaviylikni uch yo'nalishda tahlil qilish lozim. Birinchidan, ming yillardan beri maqol va topishmoqqacha, qo'shiqdan dostonlargacha bo'lgan asarlar og'zaki an'anada yaratilmoqda, og'zaki tarzda yashab kelmoqda. Ikkinchidan, folklor asarlarining ijrosi va ijro qilinish vaziyati va ijro usuli jihatidan an'anaga ega. Uchinchidan, an'anaviylik og'zaki asarlarning matnida namoyon bo'ladi.

Xalq og'zaki ijodining ikkinchi muhim jihati uning og'zaki yaratilishidir. Jahon folklorshunosligi ilmida oddiy haqiqat sifatida takrorlanadigan eng muhim fikrlardan biri folklorning og'zaki yaratilishi va og'zaki yashashi hisoblanadi. Chunki butun xalqlarning og'zaki ijodi shu yo'singa bo'ysunadi shu qonuniyat asosida yaratiladi, yashaydi. Haqiqatdan ham, o'zbek xalq og'zaki ijodidagi hamma janrlarning inson ruhiga, ongiga, tabiatiga ta'siri, ko'pincha, uning og'zaki ijrosi bilan belgilanadi. Xatto, shunday asarlar borki, ularning yozma, qolaversa, nashr qilingan matnini o'qish mazkur asar haqida haqiqiy tasavvur hosil qilmaydi. Xususan, askiya, latifa, tez aytish, topishmoq kabi janrlarni ma'lum bir muhitdagi asar ijrosi ta'siri, ulari jonli vaziyatda eshitish, shu holat ishtirokchis sifatida his etish bilan uning matnini yakka holda o'qish o'rtasida o'qish o'rtasida yer bilan osmoncha farq bor. Og'zaki ijro folklor asarining yaratilishida ikki oqibatni taqozo qiladi.

Xalq og'zaki ijodi asarlarini og'zaki ijroda eshitish mazkur asarning matnini o'qishdan afzal

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.:Ma'naviyat, 2008. – B. 4.



hisoblanadi. Og‘zaki ijro folklor asarining yaratilishi, yashashida ikki oqibatni taqozo etadi. Birinchidan, og‘zaki ijro yozma adabiyotda kuzatilganidek, jiddiy mas’uliyatdan xoli bo‘ladi: yozma adabiyot vakili ijod qilayotgan asariga to‘liq mas’ul hisoblanadi.

Xalq og‘zaki ijodidagi og‘zakilik xususiyati asrlar davomida millatimiz tajribasidan o‘tgan va muhim ahamiyatga ega belgi sifatida baholanishi mumkin.

Har bir so‘z san’ati namunasi, jumladan, xalq og‘zaki ijodidagi qo‘shiq, ertak, doston va boshqa asarlarda fikriy yangilik bo‘lishi lozim. Bu yangilik kichik hayotiy voqeadan tortib murakkab ijtimoiy vaziyatlarni baholash bilan belgilanadi. Inson hayoti davomida sonsiz-sanoqsiz yangiliklarga duch keladi. Katta avlod tajribasidagi oddiy haqiqatlar yoshlar uchun yangilik hisoblanaveradi. Shuning uchun xalq og‘zaki ijodi asarlarini eshitganimizda, ko‘plab yangi fikrlarga duch kelamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.:Ma’naviyat, 2008. – B. 4.
2. Sh.Shomaqsudov, Sh.Shorahmedov “Ma’nolar mahzani”. “O‘zbekiston” 2001-yil. 80, 173, 380-betlar
3. M.Hamroyev “Adabiyot”. Toshkent 2006-yil. 123-bet
4. D.Yusupova “Adabiyot”. Toshkent 2014-yil. 10-bet



TABIAT DARSLARIDA BUYUK ALLOMALARNING QARASHLARI

*Tursunboyeva Nigora G'ulombekovna
Marg'ilon shahar 19-maktab
boshlang'ich sinf o'qituvchisi
e-mail:tursunboyeva@inbox.uz*

Annotatsiya: maqolada boshlang'ich sinflarda tabiat darslarini o'qitish va bunda buyuk allomalarning tabiat xususidagi qarashlaridan foydalanish, o'quv mazmunidagi talablarga e'tibor qaratish kabilar yoritilgan e'tibor qaratilgan

Kalit so'zlar: ta'lim sohasi, islohotlar, komil inson, ongli munosabat

“Tevarak-atrofdagi, tabitdagi ajoyib va g'aroyib ko'rinishlarni ko'ra bilish, idrok etish yuzasidan olgan bilimlarni mustahkamlash, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan asosiy talablardandir”, deyiladi DTS talablarida. Darhaqiqat, yon-atrofingizga, bizni o'rab turgan ona tabiatimizga qancha mehr qo'ysak, Vatanimiz kelajagiga shuncha g'amxo'rlik qilgan bo'lamiz.

Ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi - komil inson tarbiyasiga qaratilgan ekan, o'quvchilar qalbida tabiatga ongli munosabat tuyg'ularini tarbiyalash muhim hisoblanadi.

Ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi – jismonan sog'lom va aqlan yetuk intellektual salohiyatga ega bo'lgan komil insonni tarbiyalashga qaratilgan. Bu esa, o'z navbatida har bir o'quv predmetiga o'zgarishlar kiritib, yangililar yaratishni taqozo etadi. Jumladan, ekologik ta'lim-tarbiyaga bo'lgan munosabatda ham bir qator noan'anaviy uslublarni joriy etishni zaruriy vazifa qilib qo'yadi. Chunki, bugungi ekologik muhit bilan atroflicha tanishtirilmagan o'quvchi atrofimizdagi olam – tabiatga qanday munosabatda bo'lishga shaxsiy fikr yurita olmaydi. O'quvchilarni tabiatni asrashga o'rgatishni har bir inson tabiatning bir bo'lagi ekanini anglatishdan boshlash lozim. Ana shunday o'quvchilar tabiatni asrash, avvalo, o'zimizni va yaqinlarimizni asrashdir, degan fikrga keladi. O'quvchilarni tabiat bilan yaqindan tanishtirish, sodir bo'layotgan turli xil ekologik hodisalardan voqif qilish bugungi kunda pedagogika nazariyasi va amaliyotida, boshlang'ich ta'limda muhim yo'nalishga aylanmoqda. Bu yer yuzidagi og'ir ekologik vaziyatning vujudga kelishi bilan bog'liq. Bunday holatning yuzaga kelishi sabablari-dan biri aholi katta qismining ekologik savodsizligi va uning tabiatga ta'siri natijasini ko'ra olmasligidir. Shuning uchun ham Yunesko, Yunisef va boshqa tashkilotlar tomonidan planetamizda yashovchilarning ekologik ta'limning mazmuni va muddati masalasi ilgari surilmoqda.

O'quvchilarning ekologik ta'limida tabiiy-ilmiy bilimlarni egallashda eng muhim bosqich – boshlang'ich ta'lim hisoblanadi. Boisi insonning tabiatga, kelajakka munosabati shu davrdan boshlanadi. Orta asrlarda yashab ijod etgan Sharq allomalaridan Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino va boshqalar tabiat fanlarining rivojlanishiga katta hissa qo'shganlar. Ular hali ekologiya fani dunyoga kelmagan davrda tabiat va undagi muvozanat, o'simliklar va hayvonot dunyosi, tabiatni e'zozlash haqida qimmatli fikrlar aytganlar.

Buyuk alloma Muhammad al-Xorazmiy (782-847) risolalaridan birida bunday deb yozadi: “Bilingki, dunyoning ko'zlari yoshlansa, uning boshiga g'am-kulfat tushgan bo'ladi. Odamlar, daryodan mehringizni darig' tutmanglar”. Dunyoning yoshli ko'zlari deganda Muhammad al-Xorazmiy nimalarni ko'zda tutgan ekan? Ehtimol, u daryo suvining ortiqcha isrof bo'lishini nazarda tutgandir? U eng avvalo daryo bilan odamlarning bir-birini tushunishlari va til topishishlari, o'zaro mehr-muhabbatli bo'lishlarini nazarda tutgan. 847-yilda Muhammad al-Xorazmiy “Kitob surat al-art” („Yerning surati) degan asarini yozdi. Unda dunyo okeanlari, quruqlikdagi qit'alar, qutblar, ekvatorlar, gullar, tog'lar, daryo va dengizlar, ko'llar, o'rmonlar va ulardagi o'simliklar, hayvonot dunyosi, shuningdek, boshqa tabiiy resurslar- Yerning asosiy boyliklari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Ushbu risolada matematika, geologiya, astronomiya, etnografiya, tibbiyot, shuningdek, dunyo xalqlarining tabiiy ko'nikmalari va tarixiy huquqiy bilimlari umumlashtirilgan. Abu Nasr Farobiy (870-950) tabiatshunoslikning turli tarmoqlari bilan shug'ullangan bo'lib, Kalom fi-l hiys val miqdor” („hajm va miqdor haqida so'z”) „Kitob al-Mabodiy al-Insoniya” („insoniyatning boshlanishi haqida kitob”), „Kalom fiy azo al-hayvon” (“hayvon



a'zolari to'g'risida so'z") nomli asarlari bunga dalil bo'la oladi. Farobiy o'zining "Kitob fiy ihso al-ulum va at-tarif" asarida zamonasidagi ilmlarni har tomonlama o'rganib, ularni ma'lum tizimga solib, turkumlarga ajratdi, har bir ilm tarmog'iga ta'rif berishga harakat qildi, tabiatshunoslik ilmiga katta e'tibor berdi.

Tabiatshunoslikka oid „Inson a'zolari haqida risola tuzilishi“, „Hayvon a'zolari to'g'risida so'z“ kabi asarlarida odam va hayvonlar ayrim a'zolarining tuzilishi, xususiyatlari va vazifalari haqida, ularning o'xshashligi va farqlari keltirilishi bilan birga asosiy anatomik fiziologik tushunchalar berilgan. Ularning ruhiy holatlaridagi xususiyatlari haqida ham to'xtab o'tilgan. Odam tanasining tuzilishi va vazifalari haqida so'z yuritilganda ularning o'zaro bog'liqligi va yaxlitligi, ulardagi o'zgarishlar, ya'ni kasalliklar 1-navbatda ovqatlanish tartibining buzilishi oqibatida kelib chiqadi deb tushuntiriladi. Kasallikning oldini olish, sog'lomlashtirish va boshqa chora-tadbirlarni qo'llash lozim ekanligi haqida ma'lumotlar keltiriladi. Abu Ali Ibn Sinoning falsafiy va tibbiy-ilmiy qarashlari uning jahonga mashhur asari „Kitob ash-shifo“, ya'ni „Davolash kitobi“ da bayon etilgan. Bu asarda materiya, fazo, vaqt, shakl, harakat, borliq kabi falsafiy tushunchalar, shuningdek, matematika, kimyo, botanika, zoologiya, geologiya, astronomiya, psixologiya kabi fanlar haqida fikrlar bayon etilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Pedagogika, R. Mavlonova, O. To'rayeva, K. Xoliqberdiyev.
2. Pedagogika, O'quv qo'llanma, Hasanboyev, H. Sariboyev, G. Niyozov, O. Xasanboyeva, M. Usmonboyeva.



BOSHLANG‘ICH SINFLARDA XALQARO TADQIQOTLARGA PIRLS, TIMSSGA TAYYORGARLIK

*Uzbekova Farida
Toshkent viloyati Amgren shahar
18-maktabning boshlang‘ich sinf
o‘qituvchisi*

Annatsiya: Ushbu maqolamda boshlang‘ich sinflarda Xalqaro tadqiqotlar PIRLS va TIMSS ga tayyorgarlik ko‘rish, bunda o‘quvchilarning ta‘lim sifatini yanada takomillashtirish yo‘llari haqida bayon etilgan

Kalit so‘zlar: PIRLS, TIMSS, xalqaro, maktab

Tadqiqotlar 2001, 2006, 2011, 2016- yillarda o‘tkazilgan bo‘lib, 2021-yil tadqiqotning beshinchi davriyligi hisoblanadi. Har besh yilda o‘tkaziladigan PIRLS dasturi 4-sinf o‘quvchilarining o‘qib tushunish ko‘nikmasini xalqaro darajada baholaydi.

Mazkur dastur 4-sinf o‘quvchilarning matematika va tabiiy fanlardan bilim darajasini aniqlaydigan TIMSS dasturini to‘ldirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, Boston kollejidagi TIMSS va PIRLS xalqaro markazi, IEA tashkilotining Gamburg va Amsterdam shaharlaridagi idoralari bilan yaqindan hamkorlikda boshqariladi.

O‘quvchilarning bilimini baholash barcha o‘quvchilardan emas, balki ushbu qatlam vakillari sifatida tanlab olingan o‘quvchilardan ob‘ektiv testlarni o‘tkazish orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, maktab direktorlari, o‘qituvchilar, o‘quvchilar, hattoki ota-onalardan so‘rovnomalardan o‘tkazilib, ta‘lim sifatiga ta‘sir etuvchi omillarga doir qimmatli ma‘luotlar to‘planadi.

PIRLS xalqaro tadqiqoti boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qib tushunish ko‘nikmalarini qay darajada rivojlanganligi haqidagi ma‘lumotlarni xalqaro miqyosda taqqoslash imkonini beradigan, o‘qish va o‘qitishni yaxshilashda ta‘lim sohasidagi davlat siyosatiga xizmat qilishi mumkin bo‘lgan tahlilarni taqdim etadigan yirik xalqaro baholash dasturi hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda PIRLS ta‘rifiga ko‘ra, o‘qish savodxonligi jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma til shakllarini tushunish va foydalanish, shuningdek, matnlardan turli shakllarda ma‘no hosil qila olish qobiliyati hamdir.

Tadqiqot doirasida asosiy e‘tibor tushunishni namoyan qilishdan o‘zlashtirilgan ma‘lumotlarni qanday qilib yangi loyihalar va vaziyatlarda qo‘llay olish qobiliyatlarini namoyan qilishga qaratilmoqda.

O‘quvchi bu jarayonning faol qatnashuvchisi bo‘lib, ma‘no yaratadi, matn ustida mushohada yuritadi va samarali o‘qish strategiyalarini ongli ravishda tanlab qo‘llaydi. Har bir matn turi oddiy shakl va qoidalarga amal qilgan holda o‘quvchiga matnni sharhlashga yordam beradi. Har qanday matn turli shaklga ega bo‘lish mumkin. Bular an‘anaviy kitoblar, jurnallar, hujjatlar va gazetalar, shuningdek, raqamli ko‘rinishdagi yozma shakllarni ham o‘z ichiga oladi.

PIRLS boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining sinf va sinfdan tashqari o‘qishni baholashda ikkita keng qamrovli maqsadga, ya‘ni “badiiy tajriba orttirish”, “axborotni olish va undan foydalanish” ga qaratiladi.

PIRLS tadqiqotida O‘zbekiston Respublikasining ishtirok etishi ta‘lim sifatini oshirish, xalqaro miqyosda mamlakat nufuzini mustahkamlash bilan birga, o‘quvchilar bilimini xalqaro talablar darajasiga olib chiqishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Mahoratli pedagog” jurnali 6-son
2. Internet tarmoqlaridan



TARIX DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING BILISH VA O‘YIN FAOLIYATINI UYG‘UNLASHTIRISH

*Валиева Шахноза Хамидовна
Наманган вилояти Уйчи туманидаги
7-сонли умумий урта таълим
мактабининг тарих фани уқитувчиси*

Annotatsiya; ushbu maqolada tarix darslarida o‘quvchilarning bilish va o‘yin faoliyatini uyg‘unlashtirish borasidagi qarashlar tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: tarix, dars, jarayon, o‘yinli texnologiya, mazmun, mohiyat.

O‘yinli texnologiyalar turli shaklda bo‘lsada, ularning barchasi o‘z mazmuniga ko‘ra yagona maqsad sari yo‘naltirilgan, ya‘ni ular talabalarning nazariy bilimlarini chuqurlashtirish, kengaytirish, egallangan nazariy bilimlaridan amaliyotda mustaqil va samarali foydalana olish ko‘nikmalarini hosil qilish, ularni ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni uyushtirishga tayyorlash, ijtimoiy faollikni shakllantirish, yetuk axloqiy sifatlarini tarkib toptirish, teran va sog‘lom fikr, keng dunyoqarash egasi bo‘lgan komil shaxsni kamol toptirishdan iborat vazifani hal etadi. Psixologlarning ta‘kidlaricha, o‘yinli faoliyatning psixologik mexanizmlari shaxsning o‘zini namoyon qilish, hayotda o‘z o‘rnini barqaror qilish, o‘zini o‘zi boshqarish, o‘z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ehtiyojlariga tayanadi. O‘yin ijtimoiy tajribalarni o‘zlashtirish va qayta yaratishga yo‘nalgan vaziyatlarda, faoliyat turi sifatida belgilanadi va unda shaxsning o‘z xulqini boshqarishi shakllanadi va takomillashadi. L.S.Vigodskiy o‘yinni bolaning ichki ijtimoiy dunyosi, ijtimoiy burtmalarni o‘zlashtirish vositasi sifatida ta‘riflaydi. A.N.Leontev o‘yinga shaxsning hayolotdagi amalga oshirib bo‘lmaydigan qiziqishlari (manfaatlarini)ni xayolan amalga oshirishdagi erkinligi sifatida qaraydi. Psixologlar ta‘kidlaydilarki, o‘yinga kirishib ketish qobiliyati kishi yoshiga bog‘liq emas, lekin har bir yoshdagi shaxs uchun o‘yin o‘ziga xos bo‘ladi. O‘yinli faoliyat muayyan funksiyalarni bajarishga bag‘ishlangan bo‘ladi. Ular quyidagilar: - maftunkorlik - kommunikativlik (uyushtiruvchilik) - o‘z imkoniyatlarini amalga oshirish - davolovchilik - tashxis - millatlararo muloqat - ijtimoiylashuv Ta‘lim jarayonida didaktik o‘yinli texnologiyalar didaktik o‘yinli dars shaklida qo‘llaniladi. Ushbu darslarda talabalarning bilim olish jarayoni o‘yin faoliyati orqali uyg‘unlashtiriladi. Shu sababli talabalarning ta‘lim olish faoliyati o‘yin faoliyati bilan uyg‘unlashgan darslar didaktik o‘yinli darslar deb ataladi.

O‘qituvchi-pedagog avval talabalarni individual (yakka tartibdagi), so‘ngra guruhli o‘yinlarga tayyorlashi va uni o‘tkazishi, o‘yin muvaffaqiyatli chiqqandan so‘ng esa, ularni ommaviy o‘yinlarga tayyorlashi lozim. Chunki talabalar didaktik o‘yinli mashg‘ulotlarda faol ishtirok etishlari uchun zaruriy bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishlari, guruh jamoasi o‘rtasida hamkorlik hamda o‘zaro yordam vujudga kelishi lozim.

Tadqiqotchilar o‘yin xususiyatlari ishlab chiqqanlar. O‘yinlarning muhim qirralari S.A.Shmakov tomonidan yoritilgan. U erkin rivojlanuvchi faoliyatni farqlaydi. Bunday faoliyat faqat natija (tadbirni) tufayli bahra olish uchun emas, balki xohishlarga ko‘ra, faoliyat jarayonining o‘zidan bahra olish uchun qo‘llanadi. O‘yin ijodiylik bilan ajralib turadi U mumkin qadar boy, faol xarakterga-«ijod maydoni»ga ega bo‘ladi. O‘yin uchun hissiy ko‘tarinqilik hosdir. U o‘zaro ko‘rash, musobaqalashish, raqobat shaklida namoyon bo‘ladi. O‘yinning o‘yin mazmunini aks ettiruvchi, uni rivojlantirishning mantiqiy va vaqtincha izchilligini ko‘zda tutgan bevosita tegishli va unga nisbiy aloqador qoidalari bo‘lishini ko‘rsatadilar. Tadqiqotchilar nazariy aspektda o‘yinga faoliyat, jarayon va o‘qitish metodi sifatida qaraydilar. O‘yin faoliyat sifatida maqsadni belgilab olish, rejalashtirish va amalga oshirish, natijalarni tahlil qilishni qamrab oladi va bunda shaxs subekt sifatida o‘z imkoniyatlarini to‘la amalga oshiradi. O‘yinli faoliyatni motivasiyalash o‘yin xarakterining musobalaqalashish shartlari, shaxsning o‘zini namoyon qila olishi, o‘z imkoniyatlarini amalga oshirish ehtiyojlarini qondirishdan kelib chiqadi. Jarayon sifatida o‘yin tuzilmasi (G.K.Selevko ta‘biricha) quyidagilarni o‘zishga qamrab oladi: - o‘ynash uchun olingan rollar; - bu rollarni ijro etish vositasi bo‘lgan o‘yin harakatlari: - predmetlarni, ya‘ni haqiqiy narsalarni shartli, o‘yin narsalari o‘rnida qo‘llash; - o‘yinda ishtirok etuvchilarning real o‘zaro munosabatlari; - o‘yinda shartli ravishda yaratilgan syujet (mazmun)-ijro sohasi O‘yindan tushunchalar, mavzu va hatto o‘quv predmeti bo‘limni o‘zlashtirishda o‘qitish metodi va mustaqil



sifatida foydalaniladi. O‘yin bilish va uning bir qismi (kirish, mustahkamlash, mashq, nazorat) tarzida tashkil etiladi.

O‘yinlar turli maqsadlarga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Ular didaktik, tarbiyaviy, faoliyatni rivojlantiruvchi va ijtimoiylashuv maqsadlarini rivojlantirishni kengaytirishga qaratilgan bo‘ladi. O‘yinning tarbiyaviy maqsadi mustaqillik, irodani tarbiyalash, muayyan yondashuvlar, nuqtai nazarlar, ma’naviy, estetik va dunyoqarashni shakllantirishdagi hamkorlik, kollektivizmni, jamoaga kirishib keta olishni, kommunikativlikni tarbiyalashga qaratilgan bo‘ladi. Faoliyatni rivojlantiruvchi o‘yinlar diqqat, xotira, nutq, tafakkur, qiyoslash malakasi, solishtirish, o‘xshashini topish, faraz xayol, ijodiy qobiliyat, empatiya, refleksiya, optimal yechimni topa olish, o‘quv faoliyatini motivatsiyalashni rivojlantirishga qaratilgan. Ijtimoiylashuv o‘yinlari jamiyatning me‘yorlari va qadriyatlariga jalb qilinish, muhit sharoitlariga ko‘nikish, ehtirolarni nazorat qilish, o‘z-o‘zini boshqarish, muloqatga o‘rgatish, psixoterapiyani nazarda tutadi. 94 Pedagogikaga oid adabiyotlarda pedagogik o‘yin degan tushuncha mavjud. Pedagogik jarayonni tashkil etishning bir qator metodlari va usullari hamda turli shakldagi pedagogik o‘yinlar «o‘yinli pedagogik texnologiyalar»ni tashkil etadi. Pedagogik o‘yinda ta’limning pedagogik maqsadlari aniq qilib qo‘yiladi. Pedagogik o‘yinlar asosida talabalarni o‘quv faoliyatiga yo‘llovchi o‘yinli usullar va vaziyatlarni vujudga keltirish yotadi. G.K.Selevko tomonidan pedagogik o‘yinlar tasnifi va uni amalga oshirishning asosiy yo‘nalishlari ishlab chiqilgan.

Adabiyotlar:

1. A.Abduqodirov, R.Ishmuhammedov. “Ta’limda innovatsion texnologiyalar” T.:2008
2. S.Usmonov. “Pedagogik texnologiya asoslari” T.:2004
3. Fuzailova G.S, Rahmatullaeva O.R.“Tarix fanini kasbiy sohalarga yo‘naltirib o‘qitish metodikasi”. Uslubiy qo‘llanma. – T., TDPU, 2012



SINFDAN TASHQARI O‘QITISH DARSLARIDA TEZ AYTISH, TOPISHMOQLARDAN FOYDALANISH

Xasanova Oyista
Farg‘ona tumani 14-maktabning
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
shakhrizodasobirova2308@mail.com
+998903907237

Annotatsiya: Boshlang‘ich ta’limda sinfdan tashqari o‘qitish tizimining afzalliklari va o‘qitish samaradorligiga ta’siri shuningdek tez aytish va topishmoq kabi vositalarning ahamiyati ushbu maqolada yoritib berilgan

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, sinfdan tashqari o‘qitish, kitobxonlik, xalq og‘zaki ijodi, topmahoq, tez aytish, nutqning rivojlanishuvi,

Bugungi kunda rivojlanib borayotgan ta’limning eng ilg‘or texnologiyalarini yaratish maqsadida bu sohada amaliy va nazariy metodlarni dars jarayoniga tatbiq qilish yanada jadallik bilan yuqorilab bormoqda. Fanning chuqurroq tarzda o‘zlashtirilishi uchun dastlabki poydevor bo‘lib xizmat qiluvchi boshlang‘ich ta’limda olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar va innovatsiyalar e’tirofqa sazovordir. Boshlang‘ich ta’limning ajralmas qismi sifatida qaraladigan o‘qitish tizimi uchun kiritilgan sistematik mavzular va topshiriqlardan ko‘zlangan asosiy maqsad o‘quv jarayonining ilk qadamida o‘quvchilarning qobiliyatlarini shakllantirish hamda ularni aniqlash va ular ustida ishlashga qaratilgan. Jahonda bilim berishda muvaffaqiyat qozongan ko‘plab davlatlarda ham birlamchi yangiliklar va qarorlar boshlang‘ich ta’lim shakli uchun namoyon bo‘lishi, bu soha vakillarining o‘rni ta’limda ajralmas va yuqorida ekanligini bildiradi. Quyi sinfdan egallanishi kerak bo‘lgan bilimlar o‘qish mahoratidan boshlanishi bejiz emas: ravonlik, talaffuz ko‘nikmalari, so‘zlarni bir-biriga bog‘lash bu shu pallada mavjud barcha fanlar negizini tashkil etuvchi asosdir. Bu layoqatni yuzaga chiqarishda sinfdan tashqari o‘qitish texnologiyalari dars jarayoniga metodik ahamiyat sifatida asrimizning ellikginchi yillaridan boshlab kiritilib, shu kungacha takomillashgan modellari bilan tatbiq etilayotganligi zamirida nafaqat badiiy adabiyotni ulug‘lash, kitobxonlik madaniyatini o‘stirish, an’ana va qadryatlarni bolalarda yoshlik davridan mustahkamlashda dastlabki bosqich bo‘lib kelmoqda. Sinfdan tashqari o‘qitishning muhim vazifalari qatoriga o‘qitishdan ko‘zlangan maqsadning umumlashmasi sifatida qarash, shuningdek, o‘qitishda bolaning ongini dastlabki pog‘onadan: harflarni tanitishdan boshlab to ravon fikrlaydigan, savodxon shaxs sifatida yuzaga chiqarish kiradi desak, aniq fikrni ifoda etgan bo‘lamiz. Bundan tashqari bu o‘qitish jarayoni uchun davlat ta’lim standartlari ishlab chiqilgan bo‘lib, har bir element hisobga olingan, shuningdek, alohida sinfdan tashqari o‘qitish uchun monitoring tekshiruvlaridan ijobiy tarzda o‘tgan maxsus darsliklar hamda topshiriq va ko‘rgazmalar ishlab chiqilgan, shu bilan bir qatorda umumta’lim maktab va o‘quv muassasalariga foydalanish uchun topshirilgan. Sinfdan tashqari o‘qitishda kitoblarning tuzilmalariga diqqatimizni qaratadigan bo‘lsak: birlamchi navbatda boshlang‘ich sinflardagi kitobsevar bolalarning yoshi, ularning ayni qaysi darajada ekanligini inobatga olgan holda janrlar, tarbiyaviy ahamiyat kasb etuvchi asoslar, o‘qilishi va tushunilishi murakkab bo‘lmagan matnlar, rang-barang folklor manbalarining kiritilganligiga guvoh bo‘lamiz. Albatta yana bir ahamiyatli jihat bu qiziqish doirasi ham nazarda tutiladi. Sinfdan tashqari o‘qitish har bir o‘quvchiga individual yondashishni talab qilish bilan bir paytda, singdirilishi kerak bo‘lgan ona vatanni tarannum etuvchi she’rlar, asrimizga ajdodlardan boqiy an’analarni meros qilib qoldirgan uzoq yillik ma’naviy tushunchalarni anglatishni ham o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan. Sinfdan tashqari o‘qitish bo‘limida boshlang‘ich sinf bolalari bilan ishlashda tanlangan asarni birgalikda o‘qish, dars davomida o‘qilgan kitobni mustahkamlash uchun va mazmuniy mulohazalash aks etishi uchun har bir boladan izoh, yoki shu asarga shaxsiy munosabat, fikr so‘raladi, shuningdek savol-javoblar guruhlar aro tashkil etiladi hamda rasmiy korgazmalar asosida tasvirlar chizish bo‘yicha musobaqalar, rag‘batlantiruvchi o‘yinlar ham o‘tkaziladi. Shu o‘rinda boshlang‘ich ta’lim tarbiyalanuvchilarining kitobxonlik savodining asosiy intilishlari tarkibidagi xalq og‘zaki ijodi namunalari bilan uyg‘unlashuviga ham urg‘u berish darkordir. Folklor atamasi negizida bolgan topmahoq, tez aytishlar sinfdan tashqari o‘qitish texnikasida samarali tadbir ekanligini



bayon etadigan bo'lsak, quyidagi ta'riflar orqali bu ikki atamaning metodik uslubdagi foydali taraflarini keltirib o'tishimiz mumkin. Tez aytishlar xalq tomonidan yaratilib bugungi kunda ham o'qitish darslarida kitob o'qish mahoratini yuksaltirish uchun nutqning aniqligi va bir tekisdaligini ta'minlashda amaliy vositaligi bilan bir maromda o'quvchilar uchun kitobga yanada ishtiyoqni jalb qila oladigan turdir. Miya faoliyatini ham rivojlantirib, fikrlash uchun zarur bo'lgan bilimlar uchun dahldor xotirani ham tarraqqiy ettiradi. Tez aytishlash ham tuzilish jihatidan oson va mushkullik darajasida baholanib, har bir boshlang'ich sinf o'qish kitobida o'quvchining qobilyati yuzasidan taqsimlangandir." Gulsara gul saralab, gul sanadi ".,," Bu bo'ri bo'z bo'rmas chiyabo'ri", "Qurilishda burilish, burilishda qurilish" "Qo'ng'iroq qo'zichoqnikimi, qo'g'irchoqnikimi?" kabi sodda tez aytishlar, "Shovotli Shukurjonning sho'r sho'rvasi Shoiraning sho'r sho'rvasidan ham sho'r", Osmonda ikkita kalxat. Birining oq dumi kalta kalxat, birining qora dumi kalta kalxat. Oq dumi kalta kalxat qora dumi kalta kalxatga xalaqit beradi, qora dumi kalta kalxat oq dumi kalta kalxatga xalaqit beradi" singari murakkab tez aytishlarni talaffuz qilish davomida tovushlarning tasnifi doirasida o'quvchilar amaliy bilimga ega bo'ladilar. Topmachoqlar xalqning uruf-odatlarini, an'analari bilan qorilgan bo'lib, o'quvchilarda mulohazalash iste'dodlarini rivojlantiradi, hamda topag'onlik san'atini o'stiradi. Zavqli uslubiyatga mansub bu kabi vositalardan foydalanish orqali darsning boshlang'ich sinf kitobxonini ongida uzoq muddatli bilim bo'lib qolishiga xizmat qiladi.



О‘ЗБЕК ТИЛИ ЛЕКСИКАСИ

Xoliqova Parvina Abdumalik qizi
Termiz davlat universiteti Magistratura bo‘limi
“Ta’lim tarbiya nazariyasi va metodikasi”
“Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishi 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Hozirgi o‘zbek tilining lug‘at tarkibi bu tilning leksik-semantik sistemasi sifatida shakllangan. O‘zbek tilida mavjud bo‘lgan barcha so‘zlar, grammatik vositalar bu tilning o‘ziniki, uning o‘z boyligidir. Ammo bu lug‘aviy boyluk o‘zbek tilida birdan yuzaga kelgan emas. O‘zbek tili lug‘at tarkibi murakkab rivojlanish bosqichlarini boshidan kechirgan. Ushbu maqolada O‘zbek tili leksik boyish manbalari jumladan eskirgan so‘zlar, yangi so‘zlar, iboralar, tasviriy ifoda, atamalar, shevaga xos so‘zlar, olinma so‘zlar, lug‘at va lug‘atshunoslik haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: O‘zbek tili leksikasi, ichki va tashqi manba, eskirgan so‘zlar, yangi so‘zlar, iboralar, tasviriy ifoda, atamalar, shevaga xos so‘zlar, olinma so‘zlar, lug‘at va lug‘atshunoslik.

LEKSIKA-degan so‘z bu o‘zbek tilida mavjud bo‘lgan jamiki so‘zlarning yig‘indisiga nisbatan leksika degan nom ishlatiladi.

O‘zbek tili leksikasi deganda biz quyidagi mavzularni o‘rganib boramiz. Buni mundarija asosida o‘rganib boramiz.

- O‘zbek tili leksikasining boyish manbalari ;
- Eskirgan so‘zlar;
- Yangi so‘zlar;
- Iboralar;
- Tasviriy ifoda;
- Atamalar;
- Shevaga xos so‘zlar;
- Olinma so‘zlar;
- Lug‘at va lug‘atshunoslik;

O‘ZBEK TILI LEKSIKASINING BOYISH MANBALARI. Har bir tilning o‘z lugati boyish va kambag‘al bo‘lish xarakteriga ega. Demak bu jihatdan o‘zbek tilida ham yangi so‘zlarning kirib kelishi, nutqimizda yangi so‘zlarni ishlatish jarayonimiz bu lug‘at tarkibining, ya‘ni leksikaning boyishini anglatadi. Zamon rivojlanishi taraqqiyot o‘zgarib borishi natijasida esa biz ba‘zi bir ishlatilayotgan so‘zlarimizdan voz kechib boramiz. Demak o‘sha o‘zbek tili leksikasining boyish yoki unga teskari ravishda kambag‘allashi kabi tushunchalar mavjudki ularni biz ona tili darslarida o‘rganib boramiz.

O‘zbek tili leksikasining boyish manbaalari tadqiqotlarga ko‘ra ikki manba asosida boiydi.

I. Ichki manba

II. Tashqi manba

Bulardan qay biri faolroq degan savol tug‘ilishi mumkin-bu albatta ichki manba faol hisoblanadi. Sabab ichki manba deganda –bu o‘z ichki imkoniyatlarimizni ishga solish. Ichki manba o‘z ichida ikki xil.

a. Shevalardan so‘z olish

b. so‘z yasash

SHEVALARDAN SO‘Z OLISH. Shevalardan ba‘zi bir so‘zlarni olish orqali hozirgi adabiy tildagi so‘zlar miqdorini **boyitamiz.** Shevalardan so‘z olish bu judaham murakkab tushuncha hisoblanadi, ya‘ni judaham murakkab jarayon. Sababi necha yuz yillar davomida o‘sha **bizning** o‘zbek shevamizdagi ba‘zi bir so‘zlargina adabiy tilga kirib keladi. Xususan mengzamoq degan fe‘l bu Xorazm shevasida ishlatiladigan so‘z bugungi kunda adabiy tilimizga kirib keldi, ya‘ni biz bu so‘zni keng ma‘noda ishlatishimiz mumkin. Bugungi kunda mengzamoq degan so‘zning sinonimi bu o‘xshatmoq degan ma‘noga teng keladi.

Ichki manbaning ikkinchi yo‘li bu so‘z yasash orqali adabiy tilimizdagi so‘zlarni boyitib boramiz. Masalan **kitob** so‘zi bor edi bizda, lekin kitobni o‘qiydigan shaxsni nomlovchi so‘z yo‘q edi. Biz unga **xon** qo‘shimchasini qo‘shdik va kitobni o‘quvchi shaxs nomi paydo bo‘ldi –**kitobxon** va lug‘atimizda bitta so‘z paydo bo‘ldi, paydo bo‘lish natijasida lug‘atimiz boyidi, yoki **supurmoq** harakati bizda mavjud edi, lekin supuradigan vositaning nomi yo‘q edi. Biz shu **supurmoq** fe‘liga **gi**



qo'shimchasini qo'shdik va supurish jarayonida ishlatiladigan detall nomini yasab oldik. Natijada lug'atimizga yana bir so'z kirib keldi **supirgi**.

Ichki manbaning o'zini ham ikkiga ajratishimiz mumkin ya'ni **faolvanofaolga**. Bu yerda so'z yasash orqali o'zbek tili lug'atini boyitish eng faoli hisoblanadi.

Leksikaning boyish manbalaridagi ikkinchi manba bu **tashqi manba**. **Tashqi manba orqali boyish** bu-biz ehtiyojimizga kerak bo'lgan so'zlarni boshqa chet tillaridan o'zbek tiliga mansub bo'lmagan so'zlardan olamiz. Masalan; bugungi kunda **bot** degan so'zni biz ishlatamiz, bot bu telegramdagi ma'lum bir funksiyani bajaradigan nastroykasiga nisbatan bot degan so'z ishlatiladi. Bugungi kunda bizning nutqimizda faol ishlatiladigan so'z, yoki **poyezd** degan so'z. Poyezdning ixtiro qilinishi natijasida va uning o'lkamizga kirib kelishi natijasida uning nomi ham o'lkamizga kirib keldi va bu so'z ham bizning lug'atimizni boyitishga xizmat qilyabdi bugungi kunda.

O'zbek tili leksikasining boyishida bu faqatgina chetdan so'z olish yoki ichki manbalarimiz asosida leksikamizni boyitamiz deyishimiz o'rinli albatta, lekin boshqa tillardan so'z olmaydigan hej qanday tilning o'zi yo'q. Xususan boshqa millatlarning tillarigaham o'zbek tilidagi so'zlar kirib boryapti. Masalan: o'zbek kurashini anglatuvchi ba'zi bir atamalar dunyo bo'ylab boshqa millatlarning ham tillarida ishlatilyapti, ya'ni bu o'zbek kurashining kengayishi natijasida. Deylik masalan **kurash** degan so'zning o'zi, **chala**, **yonbosh**, **halol**, degan shu sport turida ishlatiladigan atamalar bugungi kunda boshqa xalqlarning tillarida muqim bo'lib qolyapti. Demak bundan ko'rinib turibdiki o'zbek tili ham boshqa tillarning boyishiga turtki bo'lar ekan.

ESKIRGAN SO'Z. **Eskirgan so'z**-bu til taraqqiyotining ma'lum bir davrida ishlatilgan keyinchalik esa iste'moldan chiqib ketgan so'zlarni biz eskirgan so'zlar nomi ostida o'rganamiz. Eskirgan so'zlar ikki xil bo'ladi. Ularni biz **tarixiy vaarxaik so'z** deb farqlaymiz. Bularni bir-biridan qanday farqi bor, ya'ni bu so'zlarni tarixning ma'lum bir chegarasigacha yetib kelishiga nisbatan olamiz. Masalan: **tarixiy so'zda** tushuncha va so'z bir paytda baravariga eskiradi. Masalan; **mirshab** degan so'z. Mirshab degan so'z bu tarixda ishlatilgan so'z bo'lib lavozim nomini anglatgan, bugungi kunda bu so'zni ishlatmaymiz bu tushunchaning o'zi ham yo'q bugungi kunda.

Arxaik so'zda tushuncha tarix chegarasidan o'tib ketadi, lekin uni nomlagan so'z tarixda qolib uning o'rniga boshqa so'z ishlatiladi. Demak tushuncha saqlanib so'z eskiradigan uning o'rniga boshqa so'z ishlatiladigan eskirgan so'zlarga biz arxaik so'z nomini ishlatar ekanmiz. Masalan: **jug'rofiya**. Jug'rofiya degan so'z bugungi kun tilimizda ishlatilmaydi bu tarixda qolgan ya'ni bu eskirgan so'z, biz uni o'rniga bugungi kunda **geografiya** degan terminni ishlatamiz. Demak agar tushuncha saqlanib u tushunchani ifodalovchi nomlardan biri tarixda qoladigan bo'lsa bunday so'zlar arxaik so'z hisoblanadi. Masalan; jug'rofiya arxaik so'z, geografiya arxaik so'z emas.

YANGI SO'Z. **Yangi so'z**-degani bu bugungi kunda o'zining yangilik belgisini saqlab turgan so'zlar. Yangi so'zlar shundayki jamiyatning barcha a'zolari uchun birdek tushunarli bo'lmaydi. Yangi so'zlar bu o'z ichki imkoniyatlarimiz asosida yoki boshqa chet tillaridan kirib kelgan hisoblanib u o'sha ma'lum bir jarayonda, ma'lum bir davrda ommalashmay turgan so'zlarga yangi so'zlar deb nom beramiz. Yangi so'zlarga biz bugungi fan texnikaga oid so'zlarni misol qilib keltirishimiz mumkin. Masalan: You Tube, Instagram, Telegram, WatsApp....

Bular o'z-o'zidan bugungi kunning yangi so'zlari hisoblanadi.

IBORALAR. Og'zi qulog'iga yetgan; Yog' tushsa yalagudek; Oyog'ini qo'liga olib keldi.

Bu jummalarga ahamiyat bersak, agar biz qachonki yonimizda turgan insonning xursandchiligini ko'rsakgina og'zi qulog'iga yeygan degan iborani ishlatamiz, yoki shoshib tezlik bilan yetib kelgan odamga oyog'ini qo'liga olib keldi degan jumlaning ishlatamiz. Toza bo'lgan joyga biz yog' tushsa yalagudek degan so'z bilan ta'riflaymiz.

Ibora-ma'nosi bir so'zga teng keladigan so'zlar birikmasi yoki gaplarga ibora deyiladi. Masalan: Oyog'ini qo'liga olib keldi iborasi shoshmoq ma'nosini bildiradi. Og'zi qulog'ida degan iborasi xursand degan so'zga, yog' tushsa yalagudek degan ibora esa bu toza degan ma'noni bildiradi. Demak iboralar degani bu ko'chma ma'noda ishlatiluvchi so'zlar birikmasi yoki gaplardan tuzilgan, ammo mazmuni bir xil so'zga teng keladigan jummalarni ona tilida iboralar deb aytar ekanmiz. Iboralar shundayki ular yaxlit holicha bitta savol oladi va gapda bitta gap bo'lagi vazifasida keladi. Ularni tarkibini ajratish mumkin emas, chunki ular yaxlit holda nutqimizda qotib qolgan. SHuning uchun ularni ikkinchi nomi **turg'un birikmalar** nomi bilan ham yuritiladi.

TASVIRIY IFODA

Mo'yqalam sohibi...



Salomatlik posbonlari...

G'azal mulkinging sultoni...

Bu nomlar bizga nimani eslatyapti? Masalan: Mo'yqalam sohibi. Biz nutqimizda rassomlarga shunday ta'rif beramiz, yoki salomatlik posbonlari, shifokorlarni biz shunday nom bilan ataymiz. G'azal mulkinging sultoni, o'zbek millatining Benazir shoiri A.Navoiyga qaratilgan jumla. Demak tasviriy ifoda biror bir hodisani ifodalayotganimizda tasviriylik bilan yondashishimiz. Biror narsa va hodisani boshqa bir narsa va hodisaga o'xshatish orqali tasvirlab ifodalashga **tasviriy ifoda** deyiladi.

ATAMALAR. Ma'lum bir fan, yoki kasb –hunar doirasida aniq bir ma'noni ifodalash uchun qo'llanilgan so'zlar **atamalar**dir. Atamalar qo'llanishiga ko'ra ikki xil bo'ladi.

-ilmiy atamalar

-kasbiy atamalar

Ilmiy atamalar-bu ma'lum bir ilm-fan sohasida ishlatiladigan atamalar hisoblanadi. Deylik biz ilm-fan deganda ona tilini, fizika, matematikani tushunishimiz mumkin. Mana shu fanlarni aks ettiruvchi so'zlarga nisbatan ilmiy atamalar deyiladi. Masalan: Ona tili fanimizda qanday atamalar bo'lishi mumkin? Leksikologiya, ma'nodosh so'z, metafora, metonomiya. Mana shu so'zlar ilmiy atamalar hisoblanadi. Ilmiy atamalarning hosil bo'lishida ikkita yo'l bor. **Birinchi guruhda** xalq tilidagi so'zlar ilm-fanga maxsus atama uchun kiritiladi. Masalan; ot, ildiz, sifat, hol degan so'zlar. Bu asli xalq tilidagi jumlar hisoblanadi. Biz ularni atama sifatida ham ishlatamiz. Ot bu insonga qo'yilgan ism. Biz so'z turkumi sifatida otni ishlatamiz, o'sha xalq tilidagi ismdan uzoq lashtirmagan holda, ya'ni narsa predmetning otini ot deb ataymiz. Demak ilmiy atamalarning birinchi guruhi shu, ya'ni xalq tilidagi so'zlar atama uchun qabul qilinadi.

Ikkinchi guruhi esa ilmiy atamalarning boshqa guruhi, chet tilidan atama sifatida maxsus qabul qilinadi va u xalq tilida hej qanday ma'noga ega bo'lmaydi. Masalan: leksiografiya, metonomiya, metafora. Bu o'sha chet tillaridan maxsus qabul qilingan atamalar bo'lib, ular xalq tilida hej qanday ma'no anglatmaydi.

Kasbiy atamalar-ma'lum bir kasb –hunarga oid bo'lgan so'zlar. Masalan; duradgorlik, zargarlik, quruvchilik, chorvachilik kabi kasb korga ishlatiladigan so'zlarga biz kasbiy atamalar deymiz. Masala: quruvchilikda o'z o'rnida ishlatiladigan atamalar mavjud. G'isht ishlatiladi, loy ishlatiladi, ularni yana bir qancha qurol-yaroqlarining nomi bor. Bularning barchasi shu kasbiy atamalarga kiradi.

SHEVAGAXOS SO'ZLAR. Shevaga xos so'zlar-ma'lum bir hududda ishlatilib, boshqa hudud uchun tushunarsiz bo'lgan, lekin adabiy tilda o'zining muqobiliga ega bo'lgan so'zlar shevaga xos so'zlar deyiladi. Masalan: **beshik**. Beshik bu adabiy tilda ishlatiladigan so'z. O'lkamizning ba'zi bir joylarida beshik gavora deb yuritiladi, yoki buvi degan so'zni respublikamizning ba'zi bir hududlarida bibi deb nomlaydi, yoki sigirni Buxoro tomonlarida inachi deb ataydi, qipchoq shevasida gapiradiganlar esa uy deb nomlaydi. Demak shevaga xos so'zlar bu adabiy tilde mavjud bo'lgan so'zlarning boshqa hududlarda boshqacha nomlar bilan yuritilishi bu shevaga xos so'zlar deb yuritiladi.

OLINMA SO'ZLAR. Tilimizga boshqa tillardan kirib kelgan har qanday so'zlar **olinma so'z** deyiladi. Olinma so'zdan holi bo'lgan hej qanday til yo'q. Har qanday tilda albatta olinma so'zlar mavjud. Olinma so'zlar qanday tartibda paydo bo'ladi degan savol tug'ilishi mumkin. Xalqlarning o'zaro bir-biri bilan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy aloqalari natijasida kirib keladigan so'zlarni biz olinma so'zlar deymiz. Masalan: texnikaga, iqtisodga oid so'zlar; **kredit, kompyuter, telefon, garjet** va boshqalar. Blarning barchasi boshqa chet tillaridan o'zbek tiliga kirib kelganligi bois bu so'zlar olinma so'zlar deb o'rganiladi.

LUG'AT VA LUG'ATSHUNOSLIK. Har bir tilning o'z lug'atlari mavjud. Lug'atlari bilan shug'ullanadigan tilshunoslik bo'limi lug'atshunoslik, yoki uni keng tilda **leksografiya** deb ataymiz.

Lug'atlar-bu ma'lum bir tilga tegishli bo'lgan so'zlarning alifbo tartibida terib chiqilgan, alifbo tartibida keltirilgan shakli bu lug'at deyiladi. Lug'atlar turli xil maqsadlarga yo'naltirilgan bo'ladi. Tildagi jamiki so'zlarni izohlashga qaratilgan lug'atlar bo'lsa, ularni **izohli lug'atlar** deb ataymiz. Tildagi so'zning ikkinchi tildagi muqobilini ko'rsatishga qaratilgan lug'atlar bo'lsa ularni biz **tarjima lug'ati** deb ataymiz. Agar tildagi so'zlarning to'g'ri yozilishiga qaratilgan lug'atlar bo'lsa biz ularni **imlo lug'ati** deb ataymiz. Demak lug'atlarning maqsadga ko'ra izohli, tarjima, imlo lig'atlari bu tildagi eng faol lug'atlar hisoblanadi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Egamov Sh. Bir soʻzning leksik maʼnolari xususida // Oʻzbek tili va adabiyoti. – Toshkent. 2002.
2. Abduazizov A. Oʻzbek tili fonologiyasi va morfologiyasi. – Toshkent: Oʻqituvchi. 1992.
3. Bafoyev B. Koʻxna soʻzlar tarixi. – Toshkent: Fan, 1991.
4. Irisqulova M. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: Oʻqituvchi, 2008
5. Muhammadjonova G. Oʻzbek tili leksikasi taraqqiyotining baʼzi masalalari. T., 1982.
6. . Shoabdurahmonov Sh. Oʻzbek tili va oʻzbek xalq shevalari. T., 1962.



BOSHLANG‘ICH TA’LIM DARSLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI.

Yakubova Sultanpashsha Nazirovna
Xorazm viloyati Xiva tuman 19-son maktab
Boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi. Tel: +998977188494
Niyazmetova Ayposhsha Rustamovna
Xorazm viloyati Xiva tuman 19-son maktab
Boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi. tel:99888.780.25.22

Annotatsiya: ushbu maqolada boshlang‘ich sinf darslarida qo‘llaniladigan metodlar haqida bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: innovatsion ta’lim, interfaol metod, baliq metodi, venn diagrammasi.

Ta’lim jarayonida ilg‘or pedagogik texnologiyalarni faol qo‘llash, ta’lim samaradorligini oshirish, tahlil qilish va amaliyotda joriy etish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. O‘quvchilarning fikr doirasi, ongi, dunyoqarashlarini o‘stirish, ularni erkin tinglovchi, erkin ishtirokchiga aylantirmoq nihoyatda muhimdir. O‘qituvchi darsda boshqaruvchi, o‘quvchilar esa, ishtirokchiga aylanmog‘i lozim. Ana shu vazifani uddalashda innovatsion faoliyat ustunligi ko‘p qirrali samara keltiradi.

Boshlang‘ich ta’lim umumta’lim maktablarining bosh bo‘g‘ini bo‘lganligi sababli ana shu jarayonda o‘quvchi shaxsining mukammal rivojlanib borishiga ko‘proq e‘tibor berish lozim. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ma’suliyatlari cheksizdir. Ular maktab ostonasiga endigina qadam qoygan o‘quvchilarni maktab hayotiga ko‘niktirib, zamonaviy bilim olishlariga yo‘l ochib beradilar. Bolalarning o‘qishga munosabatlari, aqliy salohiyatlari ana shu davrda shakllanadi. Bu ham boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining vazifasi ma’suliyatli ekanligini ko‘rsatadi.

Pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslar tashkiliy usullari, o‘tkazish metodlariga ko‘ra o‘quvchi ehtiyojiga mos tushishi kerak. Chunki bunday darslar bola ruhiyatiga yaqinroq bo‘ladi. O‘quvchilarning o‘quv materiallarini o‘zlashtirishga bo‘lgan qiziqish, xoxish va istaklarini qo‘zg‘atish asosida maqsadga erishish motivatsiya bo‘lib, bu o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro ichki yaqinlashuvidir.

Boshlang‘ich sinfda ta’lim jarayonida o‘quvchilarning o‘qish motivini rivojlantirish katta ahamiyatga ega. Boshlang‘ich sinflarda ko‘proq bolalarning yoshini, bilim saviyasini hisobga olish lozimligini unutmaslik kerak. Ularga oddiy, oson va vaqt kam sarflanadigan o‘yin mashqlardan foydalanib darslar o‘tish yaxshi samara beradi. Ko‘proq atrof-muhit bilan bog‘lab o‘tilgan mashg‘ulotlar bolalar ongini, dunyoqarashini, erkin fikrlash, bayon etish qobiliyatini, mustaqil ishlash ko‘nikmasini rivojlantiradi.

Innovatsion texnologiyalardan dars jarayonida foydalanishning o‘ziga xosligi shundaki, ular o‘qituvchi va o‘quvchilarning birgalikdagi faoliyati orqali amalga oshiriladi. O‘qitish jarayoni o‘qituvchi va o‘quvchilarni o‘z ichiga oladi. O‘qituvchining faoliyati materialni bayon qilish, o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishlarini orttirish, fikrini teranlashtirish va e‘tiqodini shakllantirish, o‘quvchilarning mustaqil mashg‘ulotlariga rahbarlik qilish, ularning bilim, ko‘nikma va malakalarini tekshirish hamda baholashdan iborat.

Boshlang‘ich sinflarda darslarda quyidagi metodlardan foydalanish mumkin:

“Venn diagrammasi” metodi: ushbu texnologiya o‘qish darslarida o‘tilayotgan mavzu haqida o‘z fikriga ega bo‘lish, matn bilan ishlash, o‘rganilgan materialni yodda saqlash, so‘zlab berish, fikrini erkin bayon etish, hamda dars mobaynida o‘qituvchi tomonidan barcha o‘quvchilarni baholay olishga qaratilgan metodlardan biridir.

“Baliq skeleti” metodi: Bu usul orqali o‘quvchilar mustaqil, keng, ijodiy, tanqidiy fikrlashga o‘rganadilar. Bu texnologiya baliq model chizmasi orqali namoyish etilib, bunda o‘quvchilar o‘rtaga tashlangan muammoni har tomonlama ochib berishga harakat qiladilar

“Blits – o‘yin” texnologiyasi.

Ushbu texnologiya o‘quvchilarga harakatlar ketma-ketligini to‘g‘ri tashkil etish, mantiqiy fikrlash, o‘rganayotgan pretmeti asosida ko‘p, xilma-xil fikrlar va ma’lumotlardan kerakligini tanlab olishga o‘rgatishga qaratilgan. Bu metod o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, shu bilan bir qatorda, o‘z g‘alalar fikrini ham hurmat qilishga o‘rgatadi.

Bu usul quyidagicha tashkil qilinadi: o‘quvchilarga alohida-alohida tarqatma materiallar



beriladi. Ular tomonidan yakka tartibda bajarilishi kuzatiladi. O'quvchilar tarqatilgan qog'ozlarda ko'rsatilgan vazifani mustaqil bajaradilar, so'ngra guruhlarda tahlil qiladilar.

O'quvchilar tarqatma materialdagi tartibsiz berilgan javoblar to'g'risiga mos savollar raqamini belgilab chiqadilar. bu vazifani bajarish uchun 10 daqiqa vaqt beriladi. So'ngra o'quvchi javobi bilan to'g'ri javob o'qituvchi yoki guruhlar tomonidan taqqoslanib, tahlil qilinadi.

Xulosa qilib aytganda, dars davomida o'quvchining ta'lim faoliyati innovatsion texnologiyalar asosida amalga oshirilsa, uning axborotni qabul qilishi oson kechadi va ta'lim samaradorligi ortadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Ro'ziyeva D, Usmonboyeva M, Xoliqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va mashg'ulotlarda o'qitish texnologiyalari. T-2013
2. Ishmuhamedov R, Qodirov A, Pardayev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. T-2008



INNOVATION USULLARDAN FOYDALANILGAN DARS- DAVR TALABI.

Yusuffjonova Navbahor
Farg‘ona shahar, 30- o‘rta ta’lim maktabi
biologiya fani metodist o‘qituvchisi
yusupjonova80@mail.ru (916622571)
Mavlonova Zuhraxon
Farg‘ona shahar, 11- o‘rta ta’lim
maktabi biologiya fani metodist o‘qituvchisi

Mavzuning annotatsiyasi.

Zamonaviy fan-texnika yutuqlari bugungi avlod uchun shunchaki oddiy statistik ma’lumot sifatida qabul qilinadigan davrdamizki, bunda biologiya fanining muhim asoslarini o‘quvchilarga singdira olish juda muhim ahamiyatga ega. Bugungi avlod o‘z navbatida ertangi kun asoschilaridir. Ya’ni bugungi yoshlar ertangi kunning ota – onalaridir.

Kalit so‘zlar: “Davra suhbat” “Ishbop o‘yin” “Bahs-munozara” “Muammoli vaziyat”, innovatsion usul

Bugungi kunda yosh avlodga ta’lim berishda innovatsion usullardan foydalanish dars samaradorligining asosiy omili ekanligi barchamizga ma’lum. Bu biologiya fani o‘qituvchilarini zimmasiga yanada yuksak mas’uliyat va vazifalarni yuklaydi. Ta’lim-tarbiya tizimining bugungi kundagi asosiy vazifasi o‘quvchilarni o‘z bilimi va iste’dodiga suyanadigan hamda mustaqil ravishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda bilimlarni egallaydigan, intellektual salohiyati yuqori bo‘lgan barkamol shaxsni tarbiyalashdan iborat.

Biologiya o‘quv fanini o‘qitishning maqsadi o‘quvchilarga tirik organizmlarning tuzilishi, kelib chiqishi, xilma-xilligi, muhofazasi, tabiat va inson hayotidagi ahamiyati haqidagi bilimlarni berish, o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini kengaytirish va ijodiy fikrlashini shakllantirishdan iborat.

Biologiya fani o‘qituvchi dars jarayonida bilimlarni tayyor axborot shaklida emas, balki muammoli vaziyatlarni vujudga keltirish natijasida o‘quvchilarning avvalgi mavzularda o‘zlashtirgan bilimni yangi kutilmagan vaziyatlarda qo‘llashga imkon yaratishi, ularda mustaqil va ijodiy fikr yuritish ko‘nikmalarining tarkib topishiga zamin tayyorlashi zarur.


Agar o‘qituvchi dars jarayonida “**Aqliy hujum**”, “**Kichik guruhlarda ishlash**” “**Davra suhbat**” “**Ishbop o‘yin**” “**Bahs-munozara**” “**Muammoli vaziyat**” metodlardan foydalansa, o‘quvchi dars jarayoniga qiziqadi. O‘quvchi tayyor ma’lumotni eslab qolishidan ko‘ra, zarur bo‘lgan tayanch so‘z iboralarni mustaqil ravishda o‘zi bajarsa, u faol ishtirokchiga aylanadi. Bunday izlanish bilan egallangan bilimlar o‘quvchining shaxs sifatida rivojlanishiga asos bo‘ladi.

Zamon bilan hamnafas ishlayotgan biologiya fani o‘qituvchisi o‘quvchilardagi istaklarni amalga oshirish uchun ta’lim jarayonida “**Biologik diktant**”, “**Eng, eng. Eng**”, “**Hikoya qilish**”, “**Klaster**” usullaridan o‘z vaqtida o‘tkazishi o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishlarini orttirish va bilish faoliyatini faollashtirishga zamin tayyorlaydi.

Biologiya fanini o‘qitishda innovatsiyalarni qo‘llash biologiya darslariga qo‘yiladigan zamonaviy talablar asosida darslarni tashkil etish imkonini yaratadi

- “Suvda va quruqlikda yashovchilar” mavzusiga oid bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish, muammoli vaziyatlar tashkil qilish, oldingi mavzular bo‘yicha egallangan bilimlarini tekshirib ko‘rish maqsadida foydalanish mumkin.

- O‘quvchilar o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘ladi; Suvda va quruqlikda yashovchilar, ularning tuzilishi va xilma-xilligi, tuzilishini farqlashni o‘rganadi, ularning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish usulini tanlaydi va qo‘llay biladi; muammoli vaziyatlardan chiqish yo‘llarini o‘rganadi.



Bizning hududimizda ko‘l baqasidan tashqari suvda va quruqlikda yashovchilar ham uchrashini ma’lum qilib, ulardan qaysi birini tabiatda uchratishganini o‘quvchilardan so‘rash mumkin. O‘quvchilarga qurbaqa ko‘proq tanish, tritonni esa ular “Suvda va quruqlikda yashovchilar” sinfiga kiritishmaydi, chunki o‘quvchilar uning hayoti haqida juda kam ma’lumotga ega. Bu ma’lumotlarni biologiya faniga qiziqadigan ayrim o‘quvchilar bilishi mumkin.

Ma’lumki, o‘qish jarayonida mavzuga oid o‘quv va videofil’mlardan foydalanishning ahamiyati juda kattadir. O‘qituvchi tomonidan o‘tilayotgan mavzuning tasavvurga keladigan abstrakt tushuncha holatida qolishiga barham beradi. Chunki har qaysi o‘quvchida o‘tilayotgan mavzu xususida o‘z idrokidan kelib chiqib turlicha tasavvur hosil bo‘ladi.

“Suvda va quruqlikda yashovchilar” sinfini vakillari — baqa va qurbaqalar tabiatning foydali jonivorlari sifatida munosabatda bo‘lishga o‘rgatish.

O‘tilgan mavzu yuzasidan savol-javoblar tashkil etilib, ba’zi savollar bilan navbatdagi darslar mavzusiga o‘quvchilarning qiziqishini, e’tiborini orttiradigan shunday muammoli vaziyat hosil qilish kerakki, o‘quvchilar keyingi darsgacha muammoli savollarga imkoniyat darajasida javob izlaydilar, mustaqil topa olmasalar, navbatdagi darsda topadilar. Bunday usul o‘quvchilarni mantiqiy fikrlashga, darslik va qo‘shimcha adabiyotlar bilan ishlashga undaydi. Bu esa o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishi va e’tiborini orttirishga xizmat qiladi.

O‘quvchilar, unutmazlik kerakki, ular uchun berilgan har qanday saboqni shaxsining shakllanishidagi “ulkan imoratning g‘ishti”ga qiyosdir

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘.Pratov. “Botanika “ darsligi. T.-2005 yil .
2. M. Nabiyev. ”Qiziqarli botanika”. T.-1975 y.
3. Tolipova J.O. Biologiya ta’limi texnologiyalari. T . “O‘qituvchi” 2002 yil.
4. Tolipova J.O., G‘ofurov A.T. Biologiya o‘qitish metodikasi. O‘quv-metodik qo‘llanma. T . “Bilim” 2004 yil.



ИНФОРМАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

*Джанклыч Надежда Владимировна,
Учитель начальных классов школы №18, г.Навай*

Применение информационных технологий в начальном образовании с использованием элементов компьютерных технологий дает возможность творчески работающему учителю расширить спектр способов предъявления учебной информации, позволяет осуществлять гибкое управление учебным процессом.

Все современные технологии обучения в качестве важного компонента содержат применение элементов информационных технологий. В тематическое планирование включается перечень электронных учебных материалов, имеющихся в школе и соответствующих изучаемым темам курса. При планировании урока применяется иллюстративный материал, тренировочные или контрольные задания на различных этапах урока в соответствии с дидактическими целями. Применение элементов компьютерных технологий индивидуализирует и дифференцирует учебный процесс.

Опираясь на знания о статусе ребенка в классе, учитель может оптимизировать работу в группах. Особый эффект дает такая форма работы при решении проблемных задач на уроках математики, заданий исследовательского характера на уроках по ознакомлению с окружающим миром. При проведении динамических учебных игр, эстафет целесообразно предлагать учащимся с заниженной скоростью мыслительных процессов выполнять аналогичное задание за компьютером. Работа в собственном скоростном режиме положительно сказывается на результате, что ведет к росту самооценки, создает благоприятную психологическую атмосферу ситуации учения. Школьникам, выполняющим общие для всех задания качественно и быстро, можно предложить компьютерный тренажер повышенной сложности или задание пропедевтического характера, выполнение которого позволит им участвовать в объяснении нового материала своим одноклассникам.

Особое значение имеет работа за компьютером для детей, часто пропускавших занятия по болезни. Помочь таким учащимся можно, предложив им познакомиться с изучаемым материалом, кратко и структурировано изложенным в компьютерных обучающих программах, во время проведения природоведческой разминки, фронтального опроса или повторения изученного. Безусловно, использование компьютера и др. технических средств обучения возможно применять только при условии соблюдения гигиенических норм и требований к ним.

Компьютер можно использовать на всех этапах процесса обучения: при объяснении (введении) нового материала, закреплении, повторении, контроле. В настоящее время успешно используется соединение элементов компьютерной технологии с проектно-исследовательской работой.

Проектный метод обучения предполагает процесс разработки и создания проекта. В основе метода лежит развитие познавательных интересов учащихся, умений самостоятельно конструировать свои знания и ориентироваться в информационном пространстве, проявлять компетенцию в вопросах, связанных с темой проекта, развивать критическое мышление.

Начальное обучение проектной деятельности направлено на формирование основополагающих умений учебного проектирования. Прежде всего, мы формируем и развиваем умение планировать. Сначала дети учатся планировать свою деятельность и осуществлять ее в соответствии с составленным планом. Затем составлять план как инструкцию

уже не для себя, а для других, потом составлять инструкцию как способ решения проблемы и, наконец, учатся выполнять самостоятельно все этапы технологии проектирования: от рассмотрения проблемной ситуации до выстраивания последовательности действий, решающих проблем.

При таком построении проектной деятельности учащиеся оказываются в различных жизненных ситуациях, сталкиваются с затруднениями, преодолевают их как интуитивно, так и посредством новых знаний, которые нужно добыть для достижения поставленной цели.

Учителю, организующему проектную деятельность детей, надо знать, что проектная деятельность требует интересов детей, возможностей их самообразования в процессе прак-



тического применения знаний. Именно учитель стимулирует самостоятельную активность учащихся, их сообразительность и изобретательность, повышает мотивацию учащихся, поддерживая, поощряя и направляя их по пути достижения целей, организует доступ к информационным ресурсам, дает четкий анализ результатов выполненного проекта.

Перед проведением работ по каждому из проектов руководителем должна быть четко выстроена логическая схема:

- * Задачи создать, провести, обеспечить, привлечь, подготовить, выполнить.
- * Методы виды деятельности.
- * Результат проектная деятельность успешно сочетается с исследовательской.

Исследовательский метод обучения предполагает организацию процесса выработки новых знаний. Принципиальное отличие исследования от проектирования состоит в том, что исследование не предполагает создания какого-либо заранее планируемого объекта, даже его модели или прототипа. Результат проекта известен заранее, а результат исследования может быть непредсказуем. Организуя учебно-исследовательскую деятельность младших школьников, необходимо следовать методологии. Поставленная проблема и обозначенная тема должны быть актуальными для ребенка, исследовательская работа должна выполняться им добровольно и быть обеспечена необходимыми оборудованием, средствами и материалами. Планирование проектной деятельности предполагает:

- определение источников информации;
- определение способов сбора и анализа информации;
- итоговый продукт (формы представления результата);
- выработку критериев оценки результатов работы; - распределение обязанностей среди членов команды.

В проектной деятельности детей развиваются важнейшие общеучебные, познавательные умения и навыки. Это путь формирования особого стиля детской жизни и учебной деятельности. Он позволяет трансформировать обучение в самообучение, реально запускает механизм саморазвития.

Таким образом, современная школа должна воспитывать готовность человека к инновационному поведению. На смену послушанию, повторению, подражанию приходят новые требования: умение видеть проблемы, спокойно принимать их и самостоятельно решать. Это касается всех сфер жизни бытовой, социальной и профессиональной.



СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ РЕЧЕВОЙ КУЛЬТУРЫ ШКОЛЬНИКОВ В ПРОЦЕССЕ ОВЛАДЕНИЯ ГРАММАТИЧЕСКИМИ НОРМАМИ РУССКОГО ЯЗЫКА

*Каримова Мохира Набиевна,
Учитель русского языка школы №8,
Навайская область, р.Кармана*

Аннотация. В данной статье предложена организация комплексной работы по формированию и совершенствованию речевых навыков школьников.

Ключевые слова: речевая культура, речевой навык, совершенствование, метод, прием, грамматический класс.

Школьники довольно часто допускают ошибки в произношении слов, постановке ударения, словообразовании, словоизменении, употреблении слов, что свидетельствует о достаточно низком уровне их речевой культуры. Это, в свою очередь, создает предпосылки для поиска новых эффективных методов и приемов, направленных на совершенствование культуры речи учащихся. При изучении имени существительного рассматриваются различные методы как одной из сложных частей речи, играющей важную роль в организации текстового пространства. Этот грамматический класс слов имеет большое количество форм, употребление которых в речи вызывает трудности, связанные как с семантикой существительных, так и с их образованием, с употреблением в ходе продуцирования высказывания¹.

Наиболее часто встречаются грамматические ошибки, связанные с неправильным употреблением форм рода, числа и падежа имен существительных, с выбором управляемого и согласуемого слова в структуре словосочетания, нарушениями в согласовании главных членов предложения и т.д.

Поэтому, в целях совершенствования речевой культуры школьников в процессе овладения грамматическими нормами русского языка, при изучении имени существительного необходимо развивать следующие умения: умения образовывать формы рода, числа, падежа имени существительного и употреблять их в речи; умение выбирать правильную падежную, предложно-падежную форму управляемого слова; умение согласовывать определение с определяемым словом в словосочетании; умение согласовывать главные члены предложения.

Отбор языкового материала для заданий должен осуществляться с учетом принципа доступности данной лексики. Важным условием эффективности работы по совершенствованию речевой культуры школьников является ее систематичность. В ходе изучения категории рода имени существительного для формирования умений образовывать формы рода и употреблять их в речи учащимся можно предложить следующие задания:

1. Подберите и запишите к существительным мужского рода (где это возможно) соответствующие существительные женского рода. Учитель, санитар, чемпион, массажист, секретарь, ученик, адвокат, бригадир, доктор, врач, генерал, защитник, директор, солист.

2. Определите род существительных. Составьте словосочетания, подобрав подходящие по смыслу прилагательные. Тюль, пони, внук, кенгуру, девочка, шампунь, доярка, жена, бра, заяц, львица, такси, мороженое, орел, жюри, рояль, интервью, художник, нож, канал, капуста, тарелка, пальто, путь, леди, билет, соловей, кофе, адвокат, колокольчик, судья.

Следующую группу заданий использовать при изучении категории числа имени существительного. Они направлены на развитие умения образовывать формы множественного и единственного числа и употреблять их в речи.

1. Поставьте данные существительные в форму множественного числа родительного падежа. Автор, абрикос, выбор, директор, ботинок, свадьба, яблоня, цапля, катер, лекарь, грузин, осетин, ладонь, зеркало, шорты, оратор, отпуск, офицер, порт, профессор,

¹ Аванесов Р.И. Из истории русского вокализа //Из истории отечественной фонологии / Под ред. А.А. Реформатского. М., 2010. -178 с.



редактор, сторож, трактор, фельдшер, пастель, шофер, басня, гранат, брызги, баклажан, банан, няня, томат, кухня, якорь.

2. От данных существительных образуйте форму единственного числа, именительного падежа. Близнецы, ботинки, макароны, туркмены, брюки, брызги, гектары, брови, валенки, варежки, войска, волосы, казаки, румыны, кавычки, коньки, лыжи, носки, дрова, овощи, перчатки, родители, отруби, ясли, мемуары, тапки, туфли, усы, уши, будни, каникулы, бусы, фрукты, чулки.

Для развития умений выбирать правильную падежную форму управляемого слова в словосочетании, согласовывать главные члены предложения

Предлагаются следующие задания:

1. Раскройте скобки и поставьте существительные в правильную падежную форму.

Занятия на (дом). На (дом) висит флаг. Читали о фруктовом (сад). Гуляли в (сад).

Встретиться на (мост). Говорили о (мост). На столе стоит стакан (чай). Выпить (чай).

Насыпать (сахар) в стакан.

2. Составьте сочетания со следующими существительными, используя предлоги согласно, благодаря, вопреки.

Помощь, приказание, желание, совет, умение работать, намерение врагов, интересы школьников.

3. Составьте словосочетания со следующими существительными, используя подходящие по смыслу предлоги (с, на, из, в): ...юг –...юга, ... побережье –... побережье, ... Киев –... Киева, ...город – ...города, ...школу –...школы, ...сад –...сада, ...дерево –... дерева.

Эффективным приемом, позволяющим изучить и закрепить слова, которые вызывают трудности у школьников при образовании форм рода, числа, падежа, является применение опорных таблиц-помощников. Учитель может расположить их в грамматическом уголке «Учимся говорить и писать правильно». Для составления таблиц используются справочные материалы о трудных случаях употребления имен существительных. Слабо успевающим детям следует предложить таблицы-памятки, включающие материал, актуальный для изучаемой на данный момент темы (например, правильные формы слов, которые вызывают затруднения, и т.д.).

Таким образом, системное и целенаправленное применение заданий подобного характера будет способствовать развитию памяти, внимания детей, будет содействовать формированию у школьников интереса к языку, активизации умственной деятельности, что в целом будет эффективно для совершенствования речевой культуры школьников в процессе изучения грамматических норм русского литературного языка.

Литература:

1. Аванесов Р.И, Сидоров В.Н. Очерк грамматики русского литературного языка. 4.1. М., 2005. - 122 с.
2. Артёмов В.А. Психология речи. М., 1999. - 104 с.



МЕТОДИКА ИЗУЧЕНИЯ РАЗДЕЛОВ НАУКИ О ЯЗЫКЕ

*Кошчанова Гулчехра Худайберганошна
Урганч шаҳар 11 сон мактабнинг
рус тили ва адабийоти фани уқитувчиси
+99890 559 08 94*

В школьном курсе русского языка изучаются все уровни: фонетический, лексико-семантический и грамматический. Исторически в методике преподавания русского языка сложились особые ее области, в которых излагается методика изучения понятий, единиц соответствующего уровня, норм употребления, включенных в школьную программу: фонетических – в методике изучения фонетики, морфемных – в методике изучения морфемики, словообразовательных – в методике изучения словообразования, лексических и фразеологических – в методике изучения лексики и фразеологии, морфологических – в методике изучения морфологии, синтаксических – в методике изучения синтаксиса. Самостоятельность перечисленных областей методики определяется тем, что каждая из них, соотносясь с соответствующим разделом науки о языке, имеет свои цели, содержание, методы обучения и контроля.

Изучение разделов науки о языке – фонетики, лексики, фразеологии, морфемики, словообразования, морфологии, синтаксиса – предполагает познание основных свойств изучаемых единиц языка и функционирование их в речи. В соответствии с этим перед ознакомлением с разделами науки о языке ставятся следующие цели:

- изучение основных особенностей единиц языка;
- ознакомление с их функционированием в речи;

– формирование учебно-языковых умений. Изучение основных особенностей единиц языка как цель обучения учащихся состоит в выяснении функций этих единиц, их семантики и структуры. Единицы языка в речи используются в зависимости от этих особенностей, поэтому ознакомление с функционированием их в речи должно постоянно разъясняться в учебном процессе. Формирование учебно-языковых умений как цель обучения способствует закреплению полученных лингвистических знаний. Изучение лингвистических понятий, естественно, сопровождается употреблением их в связных ответах. Они представляют собой учебные тексты на научные темы. Формирование у школьников умения излагать свои знания в виде лингвистических текстов – одна из задач обучения школьников на уроках русского языка. Она может быть решена только тогда, когда учащиеся успешно овладевают знаниями о разделах науки о языке.

Лингвистические понятия, используемые в школьном курсе русского языка, охватывают все разделы науки о нем. В раздел «Фонетика» включены следующие понятия: звуки; гласные; гласные ударные и безударные; согласные; согласные звонкие и глухие, мягкие и твердые, парные и непарные по мягкости-твердости, по звонкости-глухости; слог, ударение; чередование гласных и согласных. Кроме того, в некоторых школьных учебниках используются понятия шипящих и сонорных согласных, а также описываются функции звуков речи. В совокупности перечисленные понятия, отражая существенные признаки звуковой системы русского языка, составляют основы знаний о ней. Для описания звуков вводятся основные элементы транскрипции: знак мягкости и квадратные скобки. В раздел «Лексика и фразеология» включены следующие понятия: слово, лексическое значение слова, многозначные и однозначные слова, прямое и переносное значение слова, омонимы, синонимы, антонимы, общеупотребительные слова, диалектные слова, профессиональные слова, эмоционально и стилистически окрашенные слова, заимствованные слова, устаревшие слова, неологизмы, фразеологизмы. Часть этих понятий характеризует лексику русского языка с точки зрения значения слов, часть – с точки зрения их употребления или происхождения.

В учебники по русскому языку введены необходимые для практики понятия из области лексикографии: толковый словарь, словарная статья, помета в словарной статье, словарь иностранных слов. Словообразовательная система русского языка в разделе «Словообразование» описывается с помощью понятий, характеризующих строение слова (морфемику) и производство слов: окончание, нулевое окончание, основа; корень, приставка, суффикс;



однокоренные слова; способы образования слов – приставочный, суффиксальный, бес-суффиксный, приставочно-суффиксальный, сложение, переход слова из одной части речи в другую, сложное слово, соединительная гласная, сложносокращенное слово. В разделе «Морфология» представлены понятия, описывающие слово как часть речи: часть речи, форма слова, начальная форма слова; части речи самостоятельные и служебные; имя существительное, имя прилагательное, имя числительное, местоимение, глагол, причастие, деепричастие, наречие, категория состояния, предлог, союз, частица, междометие, звуко-подража-тельные слова. Для характеристики изменяемых самостоятельных частей речи отобраны понятия, описывающие их постоянные признаки (присущие слову в целом) и непостоянные (характеризующие словоформу). В тему «Имя существительное» включены следующие понятия: одушевленные и неодушевленные существительные, собственные и нарицательные, род существительных, склонение, падеж, число, несклоняемые существительные, разносклоняемые существительные.

Литература :

1. Бабайцева, В. В. Русский язык : теория : учеб. для 5–9 кл. общеобразоват. учреждений / В. В. Бабайцева, Л. Д. Чеснокова. – М. : Просвещение, 1995.
2. Баранов, М. Т. Методика лексики и фразеологии на уроках русского языка / М. Т. Баранов. – М. : Просвещение, 1988.



ИННАВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ НА ЗАНЯТИЯХ ПО РУССКОМУ ЯЗЫКУ

*Маткаримова Орзигул Абиловна
Учитель 6-й школы Булакбашинского района
Андижанской области*

Анататсия: Использовать метод инавационных технологий «Презентация « .Это значит, что один из вас самостоятельно будет вести занятие.

Ключ: корочкой, проекционные пособия, слайды, иллюстративный материал, альбом, таблицы с пословицами, поговорками, загадками.

Выработка умения передавать прослушанную речь, прочитанную информацию, развитие у учащихся навыков белого чтения, развитие умения высказывать свою точку зрения в виде монологического текста, развитие и совершенствование культуры мышления, речи :воспитание высоких нравственных качеств, любви к природе и родному краю.

Занятие надо быть необычное, использовать метод инавационных технологий « Презентация «. Это значит, что один из вас самостоятельно будет вести занятие.

По названной теме вы должны были найти материал и самостоятельно подготовить его к занятию (группа делится на четыре команды, выбираются спикеры, которые вытягивают карточки с названиями времен года : «Зима «, «Весна «, «Лето» и « Осень «.Каждая команда самостоятельно дает характеристику своему времени года, подбирает стихотворения, пословицы, поговорки, загадки и т.д .для.)

Закрепление нового материала (проводится игра « Ход конечно «, игра «Кто быстрее «

Выбери какой школе ты учишься ? В каком классе ты учишься ? Сколько учеников в вашем классе? Сколько из них девочек, сколько мальчиков ? Сколько человек в вашей семье ? Сколько тебе лет ? Сколько лет твоему отцу ? Сколько лет твоему маме ? Сколько лет твоему дедушке ? Сколько лет твоей бабушке ? Сколько лет твоим братьям и сестрам ? и т.д.

Игра « Тематический гнездо «: прочитать пословицы и распределить их по тематическим гнездом «Ценностное отношения к труду,»Этапы трудового процесса «,»Орудие труда «.

МЕТОД «Дерево решений» заключается в том, что класс делится на 3 или 4 группы с одинаковым количеством учеников.Каждая группа обсуждает вопрос и делает записи на своем «дереве» (лист ватмана),потом группы меняются местами и дописывают на деревьях соседей свои идеи . Затем в группах происходит обмен и взаимопроверка выполненных заданий.

Действенными являются также интерактивные диктанты, например, диктант с постукиванием. Суть данного метода заключается в том, что во время диктанта учитель постукивает по столу в тот момент, когда произносит слово с какой-либо орфограммой. Это постукивание заставляет ученика думать и вспоминать орфограмму.

Дидактические игры на уроках русского языка.

«Дикие и домашние животные»

Цель игры :дифференциация понятий.

Ход игры: в начале игры учитель напоминает ученикам, на какие виды делятся животные .Для домашних животных выбирается картинка « Наш двор», где изображены домашние животные, а для диких -» Животные в лесу» . Эти картинки закрепляются на магнитную доску.Предметные картинки, изображающие их, лежат на столе .Дети по очереди берут по одной картинке и объясняют, к диким или домашним относятся это животные. Объяснение должно быть полным : « Медведь -это дикое животное, потому что он живёт в лесу « .» Корова - это домашнее животное.Она живёт во дворе.Корова даёт молоко «.Если ученик дал неправильный ответ, картинка возвращается на место, а если объяснил верно, назвал картинку, она забирает её себе Игра заканчивается после того, как все картинки будут находиться на руках у учащихся. Выигрывает тот, у кого больше картинок .Также можно проводить эту игру по темам : «Овощи-фрукты, «Одежда -обувь «и т.д.

Современная педагогика предлагает использовать различные инавационные образовательные технологии, такие как опорная и игровая, технологии проблемного обучения, развития критического мышления, проектного обучения и.т.п.

Использованная литература;

1. Современный русский язык. М.1990.

2. Шанский .Н. М. Лексикалогия современного русского языка .М. 1972.



BOSHLANG'ICH TA'LIM TIZIMIGA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA ZAMONAVIY YONDASHUV

Omonova Dilrabo
Namangan viloyati Namangan shahar
63-umumta'lim maktabi
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim tizimiga pedagogik texnologiyalar yordamida zamonaviy yondashuv usullari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim tizimi, inson tarbiyasi, sharq allomalari, yosh avlod tarbiyasi, zamonaviy o'qituvchi, integratsiya, innovatsiya, ilg'or pedagogik texnologiya, aqliy hujum.

Bugungi kunda zamonaviy o'qituvchi darsini o'tishi bilan birga milliy urf-odatlarimiz, an'ana va qadriyatlarimizni o'quvchi ongiga singdirib, darsni integratsiyalashgan tarzda tashkil etishi kerak. Shu jihatdan har tomonlama mukammal rivojlangan insonni tarbiyalash, ta'lim va ma'orifni yuksaltirish, barkamol avlodni voyaga yetkazish davlatimiz siyosatining ustivor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Zero-ki, istiqbol davrida ma'naviy merosimizni tiklashda amalga oshirilgan ulug'vor ishlar, tariximizni xolisona o'rganish, ulug' allomalar adabiy-ilmiy asarlarining tarjima va nashr qilinishi, ta'lim berishni takomillashtirish, adabiyot, san'at sohasidagi yutuqlar – bularning barchasi jamiyatda ma'naviy-ruhiy ko'tarilishga olib keldi va iqtisodiyotimizning ustivor yo'nalishlaridagi islohotlarga qo'shimcha kuch bag'ishladi.

Sharq allomalari va mutafakkirlari yosh avlodni tarbiyalash, kasbga yo'naltirish bo'yicha tengi yo'q fikr, g'oyalarni ilgari surganlar, ta'limotlar yaratganlar. Ilmiy merosni sinchkovlik bilan o'rganish, tahlil qilish, tizimlashtirish hamda jahon fanining mazkur sohadagi yutuqlari bilan taqqoslash o'zligimizni anglash imkonini kengaytirib, xalqimizning jahon hamjamiyatidagi obro'-e'tiborini yanada oshiradi.

Milliy pedagogikamiz tarixini, ayniqsa, yosh avlodni tarbiyalash bo'yicha ajdodlarimizning asrlar davomida to'plagan tajribalarini o'rganish esa ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirishga xizmat qilishi shubhasiz.

Zamonaviy o'qituvchi dars jarayonida "aktyor" emas, aksincha "rejissyor" bo'lishi kerakligini bo'lg'usi o'qituvchilar auditoriyadanoq anglashi lozim. Buning uchun esa u bir necha yangicha ta'lim usullarini yaxshi bilishi kerak. Maktab o'quvchisi, kasb-hunar kollejlari, akademik litsey, oliy ta'lim muassasalari talabalarining yuqori ta'lim sifat va samaradorlik ko'rsatkichini namoyon qilishi uchun bo'lg'usi pedagog-o'qituvchilarni kasbiy mahoratini innovatsion yondoshuvlar asosida takomillashtirib borishimiz kerak bo'ladi. Bugungi zamonaviy ta'lim ham integratsiyalashgan darsni talab etadi. Pedagogik texnologiya va pedagog maxoratiga oid bilim, tajriba, interaktiv metodlar, innovatsion yondoshuvlar asosida o'quvchi - talabalarni bilimli, yetuk malakaga ega bo'lishliklarini ta'minlaydi.

Integratsiya- lotincha "integration" so'zidan olingan bo'lib, qayta qurish, tiklash, to'ldirish;"integr"-to'liq, butun, yaxlit degan ma'noni anglatadi. Integratsiya-o'quv fanlarining o'zaro aloqadorligi, bir-biri bilan birlashib ketish, bir-biriga o'zaro singdirish, bir-biri bilan birlashib yangi, yagona barqaror umumlashgan yaxlit g'oyani hosil qilish. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, zamonaviy o'qituvchi ta'lim – tarbiya jarayonida innovatsion yondoshuvlardan foydalana bilishi va amalga oshira olishi lozim. Bu jarayonda bo'lajak o'qituvchilarga quyidagi talablarni qo'yiladi:

- ta'limda innovatsiya tushunchasini, uning mazmun mohiyatini bilishi;
- innovatsion texnologiyalarning ta'lim maqsadini amalga oshirishdagi o'rni va rolini bilishi;
- innovatsion texnologiyalarni fanlar bo'yicha qo'llash tamoyillarini bilishi;
- integratsiya asosida noan'anaviy dars tashkil eta olishi;
- o'quvchilarning mustaqil faoliyatlarini tashkil qilish va ta'minlash yo'llarini bilishi;
- ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llab, na'munaviy imitatsiya o'quv mashg'ulotlarini o'tishi;
- ta'lim-tarbiyaning faollashtiruvchi usullarini bilishi va egallashi kerak. Uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to'liq foydalaniladi.

